

Bolalar kutubxonasi

Abdurahmon Akbar

UYQUCHINING TUSHLARI

She 'rlar



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006

10 32172
283

Akbar, Abdurahmon

Uyquchining tushlari: She'rlar / Bolalar kutubxonasasi. — T.: «Sharq», 2006 — 240 b.

She'r mutolaa qilish doimo bolalar uchun sevimli mashg'ulotlardan biridir. She'rlar orqali dunyoni bola tanisa ne ajab! Bolajonlar o'ynoqi, satirik she'rlarni ushbu kitobdan topib yod ham olishlari mumkin. Axir she'riyatsiz hayot bu g'ariblikdir.

BBK.84(57)6.

20.08/44	Alisher Navoiy nomidagi
20.08/44	Alisher Navoiy nomidagi
2655	O'zbekiston M ^u dorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi, 2006.	

Mehribon quyosh



QUYOSH

Qish faslida shimol yoqlarda
Ko‘rinmasmish quyoshjon oylab.
Taftlaridan bahra olishni
Bolajonlar yurarmish poylab.

Birma, Seylon, Hindiston degan
Allaqancha yurtlarda yana,
Tinmay «yig‘lab-siqtab» bulutlar
Oftobjonni qilarmish mayna.

Bizda bo‘lsa,
bizda boshqa gap.
Sovuqlardan qo‘rqmas keksa-yosh:
Chillada ham O‘zbekistondan
Xabar olib charchamas Quyosh.

SO'ROV

Yaproqlarning boshin silading,
Daraxtlarga o'rgatding o'yin.
Bulutlarni «yum-yum» yig'latding,
Buzib qo'yib nogahon «to'yin»,
Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Goh uvlaysan, goh chiyillaysan,
Seni kimdir quvlarimi bu payt?
Kayfiyatning bilmay hayronman,
Xursandmisan, xafamisan, ayt,
Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Yelayapsan, jivirlar buloq,
Kelayapsan, shivirlar yaproq,
Nima bo'lar o'zing ko'rsatsang,
Nahot yuzing shuncha badqovoq?
Shamol, bitta yuzingni ko'rsat.

Bir qarasam, yo'qqa o'xshaysan,
Bir qarasam, o'xshaysan borga.
Tanib qo'yay seni ham axir,
Bir bor xo'p de, men qilgan zorga,
Shamol, bitta yuzingni ko'rsat!

KUZ

1

Kechagina yoz edi,
Endi bo'lса kuz.
Xohla, bog'da uzum ye,
Xohla, anor uz.

Yozi bo'yi irmoqdan
Chiqmagan suvo't
Bugun ko'kdan suv kutar
Ko'zi bo'lib to'rt.

Shukuh kezar havoda
Tonggi pallalar.
Qaymoq to'la kosaga
O'xshar dalalar.

O'qish, ishga kuzatib
Oltin kuz bizni,
Kiydirtirar erinmay
Kamzulimizni...

2

Shamol esib kechki payt
Bo'ri bo'lib «uvladi».
Bulutlarni oldiga
Solib rosa quvladi.

O'rinalariga yotgan
Kichkintoylar uxlolmay,
Pichirlashib so'zlashdi
Derazadan ko'z olmay:

— Qo'rqib ketyapman juda, —
Dedi qaltirab Omon. —
Vahimasini qarang,
Shamol namuncha yomon.

— Qo'rqib ketyapman, aka, —
Dedi baqaloq To'lab.
— Qayerda non yopamiz
Shu... tandir tushsa qulab?

Shoira ham boshini
Ko'rpaga burkab, cho'chib,
Astagine shivirlar:
— Chiroq qolibdi o'chib...

Bir-biriga jajjilar
Shunday yurak yorishar.

Allamahalga borib
Pish-pish uxbab qolishar.

Tursalar sahar payti
Havo ochiq, charog'on.
Yomg'ir, yeldan darak yo'q,
Tom omon, tandir omon.

Shamolvoy uzr aytib,
Degandek bo'lmanq qo'rnoq,
Qoqib ketibdi bog'da
Bolajonlarga yong'oq...

SHIRIN «QUYOSH»

Chorlar mitti chumoli
Teng-to'shin sayohatga:
— Qani ketdik, jo'ralar,
Sayohatga — rohatga!

Cho'milmaymiz bugun biz
Nilufar ungan ko'lda.
Adashib ham yurmaymiz
Qumlari qaynoq cho'lda.

Ishoninglar, do'stlarim,
Ishoninglar so'zimga,
Boshlab boraman sizni
Quyoshjonning o'ziga!

O'rtoqlarin chumoli
Shunday deb yo'lga solar.
Mo'ljal qilib manzilga
Kungaboqarni olar.

...Quvnar chumolilarning
Pistadan yeganlari:
— Buncha shirin bo'lmasa,
Bu — Quyosh deganlari!..

ODATLAR

Qiziq odati bor-da
Aziz dadajonimni.
O'zi bilmay yig'latar
Ba'zan oyijonimni.

Bugun ham shunday bo'ldi:
Maktabdan kelsam shoshib,
Oyim turgan ekanlar
Ko'zlaridan yosh toshib.

Dadamlar kulib derdi:
— Bularning bari xayol!
O'zing bo'lsang keragov
Dunyoda eng go'l ayol.

Xo'sh, shunday bo'lgan bo'lsa,
Nima bo'pti, shunga xo'sh?
Mendan xafa bo'lma-yu
Ko'ngling asli juda bo'sh.

Qilgan ishingni qara,
Yaxshimi shu, qani ayt —
Shartmi axir dod solish
Urib, do'pposlagan payt?..

Tunov kungidek hamma
B-i-r qarab qo'ydi bizga...
Oyim der: — Og'irligi
Tushmasin buni sizga...

Do'stlar, dadajonimdan
Yana ranjib yurmangiz.
«Mening dadam bundoq», deb
Gapni chetga burmangiz.

Bizga ham yot janjallar,
Chehramiz doim gulgun.
...Oyimlar yig'lar faqat
Hindcha kino ko'rgan kun!

OPAM

Hamma qo'rqar opamdan,
Qo'rqar hatto erkaklar.
Kelisharlar oldiga
Ayollarin yetaklab.

Qo'rqar o'smirlar, qizlar,
Alpqad yigitlar ham.
Hushlaridan ketkizar
Ba'zilarini opam.

Kimki kirsa yoniga
Zum o'tmasdan «oh!» deydi.
«Bu azob, ko'rgilikdan
Tez qutqaz, Olloh!» deydi.

Shunaqa, hamma qo'rqar
Uvoqdayin opamdan.
Ammo birpas dodlashib,
Qutulishar dard, g'amdan.

Opam mushtumzo'r emas,
(O'zim buning guvohi)
U bor-yo'g'i qishloqning
Tish oluvchi jarrohi...

«KASHFIYOTCHILAR»

— Sherzod-ku yosh — esi yo'q,
Senga ne bo'ldi, qizim?
Beshta kosa singuncha
Qarab turdingmi-a jim?

— Ukam hech ko'nredi-da, —
O'zini oqlar Lola. —
Ikkimizga kosadan
Yasayman deb piyola...

QISH SABOG'I

Shimimda to'rtta cho'ntak,
Paltomda to'rtta cho'ntak.
Birma-bir kirib chiqar
Bariga ikki qo'lim.

«Kuh-kuh»lab qo'llarimga,
Oyimlar koyir andak:
— Shunaqa, chatoq bo'lar
Qo'lqop yo'qotish,
O'g'lim!

NIMA KUCHLI

Izg'irin zo'rmi, shamol,
Muzmi, qor,
nima asli?
Hamma narsadan kuchli
Momo oftob qish fasli.

Bulutlar qurshasa ham,
Nur sochar to'rt tomonga.
Sovuqlardan qo'rqqanda
U chiqmasdi osmonga...

CHIRILDOQLAR QO'SHIG'I

Quyosh kulgan chog'larda
Olam to'lar ovozga:
Shovqin-suron, qiyqiriq,
Sho'x qushlar chalgan sozga.

Qo'shiq aytib kunduzi
Obro' topib bo'lmas hech,
Shuning uchun kuylaymiz
Tusha boshlaganda kech.

Yarim kechaga qadar
«Lapar»imiz tinmaydi.
Eng muhimi, bizlarga
Hech kim halal bermaydi.

Unimizni eshitar
Ko'kda kezib yurgan oy.
To'xtab qolgandek bo'lar
Hatto oqayotgan soy.

Dilni yayratar bahor,
Dilni yayratar o'tloq,
Zerikmas qulq solib
Qo'shig'imizga qishloq...

UNUTILGAN DO'STLIK

— Charchab ketdim, — dedi bolakay
Peshonasi duv terga botib.
Qo'lidagi dastarringsini
So'ng jahl-la yubordi otib.

— Charchab ketdim, — dedi arra ham
Qayerdadir g'ing'illab nolon. —
Qutqar meni malomatlardan,
Tezroq qutqar,
do'stim, egovjon!

BIRI KAM DUNYO

Mushkul ishdır azaldan
Hammaning ko'nglin olish.
Oshpichoqning boshiga
Tushdi g'alati tashvish.

Yosh pazanda bekasi
O'tmaslashgan paytlari,

Uni «yomon» pichoq deb
Surib qo'yardi nari.

Qayroqtoshni «achomlab»
Charxda toblanib kelgach,
Hurmatini joyiga
Qo'ya boshladi bekach.

Hozir-nozir har ishda:
To'g'rar sabzi, piyoz, non.
Yuradigan bo'b qoldi
Hatto to'ylarga chunon.

Toshni ham ming bo'lakka
Kesar kerak bo'lsa gar.
Ammo «yomon» pichoq der
Endi uni bolalar...

KO'NGIL HAQIDA SHE'R

— Ikki qarich katakda
O'n besh jonmiz, o'n besh jon!
Insofing bormi, o'zi,
Qaydan kelding, beimon?

Yosh mehmonni tovuqlar
Cho'qir ekanlar yanib,
— Bas qilinglar! — der Xo'roz,
Toji yonib, hurpayib.

— Shu bugundan boshlaboq,
Hammangizlar jo'rasisiz.
...Gap joydamas, ko'ngilda
Sig'ishamiz,
ko'rasisiz!

QISHLOQLIK VA SHAHARLIK

O'yin she'r

— Uying qayerda? — desam,

— Do'mbirada, — dedi u.

Yelka qissam, «vah-ha»lab

Qulog'imni yedi u.

— Do'mbira — bu do'mbira,

Uni chalishar to'yda! —

Desam ham qotib kulib

Meni qoldirdi o'yda.

Keyin bilsam, mehmonning

Gapi «nu-nu», «da» ekan.

Manzili azim Toshkent,

Qo'ylig, dom №1 «a» ekan.

AYOZ BILAN SUHBAT

— Ayoz dedim, ayoz dedim,

Mehring buncha sayoz dedim.

Shashtdan tushsang, senga atab —

Yozardim bir bayoz dedim.

Ayoz dedi: — Sha'nimga she'r —

Bitmasang ham rahmat senga.

Qizdiraman oyoq-qo'ling

Birpas o'ynab bersang menga...

SEVINCH

Ota laylak baxtiyor,

Ona laylak baxtiyor.

Laylakning quvonchi ham.

Benihoya — bir olam.

Erta tongda tug‘ilgan
Singliga boqib to‘ymas:
— Burningdan aylanayin,
O‘zimning puchuqqinam...

BAHONA

— Ma’rab qoldi ona qo‘y,
Ma’rab qoldi qo‘zichoq.
Ichib bo‘lgach choyingni
Suv berib chiqqin, Uzoq.

— Oyijon-ey, ularga
Keragi yo‘q qarashni.
Qo‘zichoqqa ona qo‘y
O‘rgatyapti ma’rashni.

MEHRIBON QUYOSH

Bahor keldi.
Sevinib,
Bulut to‘kdi duv-duv yosh.
Mehri bilan chulg‘adi
Zaminni boboquyosh.

Keyin kumush bulutga:
— Ko‘z yoshingni artib ol, —
Degandayin jilmayib
Tutdi kamalak — ro‘mol.

NIYAT

Kattakon Baroqvoyga
Rosa havas qilar Mosh.
Chunki u usta ovga
Bo‘lsa ham juda yuvosh.

Kichkina Moshning bo'lsa,
Aslo yurishmas ovi.
Baqalooq sichqonlarni
Qo'rqtolmas «miyov»i.

Ammo Mosh o'kinmas hech,
O'ylar: «Yurishar ovim,
Ko'p emas, yana biroz
O'sganida mo'ylovim».

KIMGA QIYIN

Uyquchilar haqida
Qayerda ochilsa gap,
Negadir bir «uh» tortib,
Ma'yus so'z boshlar Rajab:

— Uyqusin ochirolmay
Erka ukam O'rozni,
Bo'g'ilib qolar har tong
Tomoqlari xo'rozni!

TANBEH

O'sib el xizmatida
Bo'laman degan odam,
Qadrlamog'i kerak
O'zgalar mehnatin ham.

Ijod esa o'yinmas
Yoki ko'ngil ermagi.
Haq deb yonmog'i lozim
Musavvirning yuragi.

Gap nima haqdaligin
Tushungandirsan, Asom?
Partaga chizganlardan
Hech vaqt chiqmagan rassom!

«MEHRIBONLIK»

Tangadek in og‘ziga
Ming bir marta mo‘ralab,
Sichqonboyga gap sotar
Baroqvoy mo‘ylov burab:

— Qorning ochqab ketgandir,
Yotaverib bir joyda.
Shu paytgacha zax yerdan
Hech kim topmagan foyda.

Ko‘cha bo‘lsa, go‘zal xo‘p
Ko‘kda patir — kun kular.
Sutdek xush is taratib,
Jilmayar bog‘da gullar...

Xullas, tashqariga chiq,
Tarang qilmay, oshnajon.
Chiqsang, bor-yo‘g‘i birpas
O‘ynaymiz «mushuk-sichqon».

TONGDA

Xo‘roزلaring «qu-qu»lab
Sukut bag‘rin tilishdi.
Qanotlarin silkishib,
Turfa mashqlar qilishdi.
Tur o‘rmingdan, turaqol,
Uyquchi ukam Kamol.

Quyosh mayin jilmayib,
Nurin sochar olamga.
Bog‘da gullar uyg‘onib
Yuz yuvishar shabnamga.
Tur o‘rmingdan, turaqol,
Uyquchi ukam Kamol.

Vaqt qaytmas, tonglar go'zal,
Shu so'zlarim unutma.
Yigit bo'lsang, hech mahal
Uyg'otishlarin kutma!
Qani bo'ldi, turaqol,
O'zimning ukam, Kamol!

«ISHBILARMON» YOMG'IRVOY

Baland tomli uy qurdi
Qo'shnimiz Tursun aka.
Imoratin ustiga
Qoqli yangi tunuka.

Yomg'irvoy bo'lsa yana
Ochayin deb rangini,
Bir kun tomni yuvdi-yu,
Chiqarvordi zangini.

MAQTANMA, DAKANG

Sahar payti qichqirib,
Maqtanar xo'roz:
— Mendan erta uyg'onar
Qaysi bir shovvoz?

G'ashi kelib kuchuk der:
— Kerilma, dakang.
Kechadan beri uyg'oq
Olapar akang!

BOLARILAR

Onalari singari
Bolarilar mehnatkash.
Ularga yot shu bois
Tekin yeb, tekin oshash.
Bolarilar bog'larda
Quvnab qo'shiq aytishar.
O'ynab bo'lishgach uyg'a
Asal yig'ib qaytishar.

ZIYRAK CHUMOLI HAQIDA ERTAK

Sig'may keng uyasiga
Xavotir olib bu chog',
Kenjatoy o'g'lin kutar
Ona chumoli mushtoq.

Ko'zginasin qorasi
Qaylarda ekan bu dam?
Ko'rmadik deb ko'ngliga
Vahm solar qo'shnilar ham.

Hayallamoq odati —
Yo'q edi-ku uning hech.
Ona yo'lga ko'z tikib
Kunni zo'rg'a qilar kech.

Tun cho'kar. Yulduzzorga
Sayr etgani chiqar Oy.
Qayerdadir tush ko'rib,
Asta kishnab qo'yar toy.

Atrof to'la boshlagach,
Chirildoqlar kuyiga,

Chumoli don ortmoqlab
Kirib kelar uyiga.

Tanbeh, dashnom bermoqning
Bo‘lsa hamki xonasi,
Bir so‘z demay o‘g‘liga
Horg‘in boqar onasi.

— Uyga erta qaytgandim,
Bug‘doyzorlar oralab, —
Deya mitti chumoli
Kalovlanib boshlar gap.

— Qarasam yo‘l chetida
Chalingan kabi dardga,
Yotgan ekan ushoq — don
Belanib tuproq-gardga.

Uni tishlab, ortmoqlab
Oshdim dala, oshdim qir.
Ilhaq qildim Sizni ham
Kechiring, ona, uzr...

TOMOSHA

— Biram maza ekan-ey,
Peshayvonda uxlamoq, —
Akasiga shunday deb
Tongda maqtanar Uzoq.

— Oqshom tushgach yulduzlar
Oyga qo‘shiq kuylashdi.
Men uxbab qolgunimcha,
Berkinmachoq o‘ynashdi.

HAVAS

Baliqlarga azaldan
Kelar juda havasim.
Chunki ular qishda ham
Sovuq yeishmas, Nasim.

Nega desang, baliqlar
Suvda yotmay toshdaqa,
Kim o'zarga har kuni
O'yashar musobaqa!

UZRLI KECHIKISH

Tayin etilgan vaqtida
Kelsa-da mehmon degan.
Ovqat ham qoldi sovib,
Endi ne qilsam ekan?

Chigirtka ana shunday
Xayollarga tolgan on,
Eshik qoqar Chumoli —
Ko'pdan kutilgan mehmon.

Sovg'asi — arpa donin
Mezbonga tutib xushhol,
— Picha hayalladim, — deb
So'rashar holu ahvol.

— O'rtoqjon, bilsang bizda
Bor shunday odat, tartib,
Ko'ringan do'stlar bilan
O'tish kerak so'rashib.

AVTORUCHKANING YOZGANLARI

Ishchanman deb maqtanmayman,
Arzanda ham emasman.

Yozish, chizish lozim bo'lsa,
Hech charchadim demasman.

Kerilishdan, o'zim haqda
Lof urishdan ne foyda?
Ko'pchilikka kundek ayon
Kerakligim har joyda.

Menga yoqmas, gapning rosti,
G'aladonlar, kissalar,
Yozsam deyman daftar-daftar
Qo'shiq, g'azal, qissalar.

Iltimosim, cho'ntaklarda
Uzoq olib yurmangiz.
Bag'rim qizib toshib ketsam,
Mendan xafa bo'lmangiz.

SO'ZLOVCHI YOMG'IR

Ishim o'zi shunaqa:
Hamma joyga yog'aman.
Qarindoshman qor bilan,
Shudringvoyga tog'aman.

Yaylovdagi suruvdek
Ko'kda kezib yursak ham,
Bizlar asli Yerlikmiz, —
Deydilar Bulut onam.

— Vatan yashnasin desang,
Bo'lsin desang chaman, bog',

Bolam, unga kuzdamas,
Ko'proq ko'klam chog'i yog'.

Onajonim so'zidan
Kayfiyatim chog' bo'lib,
Shoshilaman zaminga
Bahor kelganda kulib.

Hazillashib — tortqilab
Maysalar qulog'idan,
G'ubor-changni yuvaman
Gullarning yaprog'idan.

Unsin deya nasiba,
Unsin deya paxta, don,
Vatanim — Yer bag'riga
Tomchilayman bearmon...

Ishim shunaqa, do'stim,
Hamma joyga yog'aman.
Qarindoshman qor bilan,
Shudringvoyga tog'aman.

EGIZAKLAR

Hasan-Husan — aka-uka
Juda ahil, mehribon.
Shunday bo'lsa-da har kech
Boshlashadi to'polon.

Qilisholmas murosa
O'rin-ko'rpa talashib.
So'ng uqlashar bir-birin
Tonggacha achomlashib.

Yulduzoyning daftaridagi she'rlar



Sizlarga atalgan she'rlarimning bir nechtasini Yulduzoyning daftariga ko'chirib, yozuv stolim ustida qoldirgan edim. Qizim ularni bilmasdan yirtib qo'yibdi. Ayrim so'zлari yo'qolgan she'rlarni aslini tiklashda balki sizlar Yulduzoyga, qolaversa, menga yordam berarsiz?..

«A'LOCHILAR»

Moshdan bo'shagan yerni
Tezlikda chopib qo'ydik.
Tok novdasin qo'ndoqlab
Pichan-la..... qo'ydik.

Ko'chadagi..... ni
O'tinxonaga tashib,

Oshxona devorini
Shuvay boshladik shoshib.

Hasan aka — muallim
Taklif qilsa hamga,
Ish ishga o'xshasin deb
Biz tushib ketdik loyga.

G'ayratimizni ko'rib,
—! — der o'qituvchi.
— Kim aytadi sizlarni
Tanbal, yalqov

Muallimning bog'ida
Qo'shimcha «saboq» olib,
«A'lochi» bo'lib qoldik
«Mehnat»dan men va

SADIRJONNING KAPTARI

Sadirjonning oq.....
Parvoz qilar samoda.
Siypalaydi qanotlarin
Mayin esgan.....

Oppoq kaptar o'yin tushib,
Uchib o'tar bog'lardan.
Uchib o'tar.....,
Uchib o'tar tog'lardan.

Kaptar uchar, kaptar uchar,
Chappar urib balandda.
Ko'kka uchar Sadirjon ham
Katta bo'lsa..... !

TISHI YO'Q-DA

— qand bergen edim
Nor bilan bo'lashgin deb.
Ranjitibsan ukangni
Hammasini.....b.

— ni-chi, tog'ajon,
Novvot bilan ishi yo'q.
Chunki uning og'zida
Birorta sog'i yo'q.

RAQQOSA

— Kapalakjon,
Shoshib uchasan buncha?
O'ynasang bo'lar edi
..... bilan kech

— Huv gulzorda, o'rtoqjon,
Chaman ochilgan
Raqs tushib bermasam
Zerikib qolardi ular.

MA'SUDA VA OYMOMA

Ko'kda to'lin oy
Suzar ekan osuda,
O'yga tolar ko'zlarin
Pirpiratib

Qayga suzib borar
Axtararmi bolasin?
Ne sabab yoyib olgan
Shu'la — sochin tolasin?

Nega u yolg'iz kezar
Tunda osmon — bog'ini.

.....ni achenlab
To'ldirmas quchog'ini.

Tushlarida Ma'suda
Ko'kka solar.
Yulduzlarni
.....ga tomon yo'l olar.

ORZU

Zokir yasagan.....
Shamoldan ham tez uchar.
O't olsa bas, bir zumda
Moviy.....quchar.

Kemasida.....
Fazolarga uchmoqchi.
Singlisiga
Oyni olib tushmoqchi.

KICHKINTOY CHAVANDOZ

Jajjigina.....
Chavandoz bo'laman der.
Poygalarda qatnashib,
Sovrinlar.....r.

Unga..... yo'q-ku, deb
Maslahat solgunimcha,
Ukam..... — Ot bo'lasiz,
Samantoy.....

YULDUZOYNING KULCHASI

Yulduz loykulcha yopti,
Yopib ko'chaga chopti.
Chaqirdi Salimani,
Chaqirdi Halimani.

Yetib kelguncha qizlar
O'ynab bo'lishib to'ptosh,
Loykulchani nuri-la
Quritay dedi quyosh.

Voy, buncha yaxshi, dedi
Uni ko'rib Salima.
Chiroylı naqshi, dedi
Uni ko'rib Halima.

Bosh-dumin qimirlatib
Mana shu tobda qarang,
Ma'qulladi qizlarning
Gaplarin bir chuvalchang:

— Ochig'ini aytaman
So'zlarimga ishon, hoy,
Kulchang qotgan bo'lsa ham
Shirin ekan, Yulduzoy!

YULDUZ

Ikki qizcha bir yulduzni
Talashgani talashgan.
Shom tushgandan ko'k toqiga
Qarashgani qarashgan.

— Menga boqib kulayapti, —
Deb quvonar Yulduzzon.
— Yo'q, yo'q, menga ko'z qisyapti, —
Sevinch bo'sh kelmas shu on.

Qizchalarining talashishib —
Yurganicha bor ekan.
O'sha yulduz eng katta-yu,
Sernur, shu'lador ekan.

Samoning qoq o'rtasida
Turar ekan parpirab.
Ko'nglim o'sar meni ham goh
Osmonga qo'ysam qarab.

Fanda tayin nomi bordir
U yulduzni ehtimol?
Faqat bizmasdirmiz unga
Boqib, surguvchi xayol?

Ne bo'lsa ham mangu porlar
Oymomaning «kunduzi» —
Yulduzxonning sevinchi u,
Sevinchoyning yulduzi!

YULDUZOYNING O'GITI

Opam to'yga otlansa,
Shovqin solib ergashma.
Dadam keltirmasa nok
Ko'z yosh qilishga shoshma.

Yig'loqi edim men ham
Sendan o'n chandon battar.
...Qoyil joy ekan maktab,
Birinchi sinf, bolalar.

Bu aql o'rgatishmas,
To'g'ri tushungin mani,
Yomon ko'radi hamma
Yig'layotgan bolani!

«O'G'Rİ»

Qalamini topa olmay,
Xunob bo'lar Yulduzoy.
Singlisiga zug'um qilar:
— Sen olgansan hoynahoy!

— Men emas, — der jajji Sevinch
Ko‘zlarin pirpiratib. —
Kecha taxta qirqqan edi
Uni usta ishlatib.

Shoshilmasdan naqsh chizib,
Shiftning eni-bo‘yiga,
Qulog‘iga qistirvolib,
Olib ketdi uyiga!

ZEBOXON

Uyimizning kenjası —
Chaqalog‘imiz,
Arzandamiz, erkamiz
Baqalog‘imiz,

Qay bir kuni sahardan
Bo‘b qoldi «sergap».
Kulaverdi beshikdan
Hammaga qarab.

Pirpiratdi ko‘zlarin
Ko‘tarsak suyib.
Burishtirdi yuzlarin
Mehrimiz tuyib.

Oyijoni kiydirsa,
Egniga ko‘ylak,
Qo‘llarini silkitdi
O‘ynayotgandek.

Nega desak buncha sho‘x,
Buncha chiroylik,
Bo‘lgan ekan Zeboxon
Shu kun uch oylik!

ZEBO DEGAN QIZGINA

Qo'llarida ko'zmunchoq,
Yarmi qora, yarmi oq.
Biram sho'x, biram quvnoq,
Zebo degan qizgina.

«Oyi» deyishni bilar,
«Dada» deyishni bilar,
Endi bir yarim yashar,
Zebo degan qizgina.

Holva bilan ishi yo'q,
Demang, yana tishi yo'q.
Qand bersangiz, demas yo'q,
Zebo degan qizgina.

Yillar o'tib yil kelar,
Ko'ngil sevinchga to'lar,
Bir ajoyib qiz bo'lar,
Zebo degan qizgina...

ZEBONING QO'G'IRCHOG'I

Yeru ko'kka ishonmas
Qo'g'irchog'in Zeboxon.
Choy ichgan payt choy ich, der,
Non yeganda tutar non.

Ko'rinxay qolsa agar,
Tinmas topguncha izlab.
Keyin kechgacha yurar,
Qo'g'irchog'ini «siz»lab!

KAMALAKJON

Zeboning she 'ri

Paydo bo‘lsang boshimda
Aqlim shoshib qoladi.
Aqlim shoshgani sari,
Zavqim toshib qoladi.

Chiqolmasman oldingga,
(Axir emasman-ku qush).
Yomg‘irlarga osilib,
Sen yaxshisi, pastga tush.

Tushsang, sochimga o‘xshab,
Qilib qo‘ygum jamalak.
...Osmoningda meni ham
Ko‘rasanmi, kamalak?..

«O‘RTOQLAR»

Gilos qoqib bergandim
Zeboxonga erinmay,
Oldiga qo‘shalog‘i
Qarang, tushib qolibdi.

Qiqirlar Zebogina
Ularni qo‘ldan qo‘ymay:
— Dada, giloslarimiz
O‘rtoq bo‘lib olibdi!

NIYOZBOSHDA BIR QIZ BOR

Zeboning she 'ri

Niyozboshda bir qiz bor
Ko‘ngli hamisha bahor.
Anor deysiz yuzlarin
Yulduz deysiz ko‘zlarin.

Opasining erkasi,
Eng kichkintoy — kenjasi.
Yurar doim ozoda,
Ko'ylaklari top-toza.

Katta-yu kichikka ham,
Salom beradi har dam.
Aytaymi, o'sha qiz kim?
O'sha qiz — mening o'zim...

ENG TO'G'RI JAVOB

— Senga qay fasl
Yoqadi ko'proq? —
Deya Yulduzdan
So'radi Uzoq.

O'ylab ham ko'rmay,
Shunday der Yulduz:
— Yozda yoz fasli,
Kuzda bo'lsa, kuz!

BOLA TILI

Jajji qizcha — Zeboxonni
Maqtasangiz, erib ketar.
Qiziq-qiziq so'zlar aytib,
Ko'nglingizni xushnud etar.

Erkalanib, ezmalanib,
So'z boyligin etar «ko'rik»:
— Dovuchchaning oti nima,
Dovuchchaning oti — o'rik!

ORZU HAQIDA SHE'R

Cho'lp-cho'lp o'pib singlisin
Olmadayin yuzidan,
Adashiblar ketdi deng
Yulduzbonu so'zidan:

— Tug‘ilgan kuning bilan
Tabriklayman, singiljon,
Orzularingga yetgin,
Omon bo‘lgin har qachon!

— Rahmat! — deya jilmayar
Opajoniga Sevinch.
Ko‘zlarida bir umid,
So‘zlarida bir ilinj.

— Orzu haqida so‘zlab
Xursand etding xo‘p meni.
...Bersang, jon deb kiyardim
Havorang ko‘ylagingni...

E’TIROF

Ikki «v» da o‘qisa ham
Yulduz so‘zlar ma’noli.
Qo‘ldan qo‘ymas kitobini
She‘r yodlar qolsa xoli.

Zehniga-ku ta’rif yo‘qdir
U shunaqa topqir qiz.
Kecha aytgan bir gapiga
Rosa hayron qoldik biz.

Hayron qoldi buvim, dadam,
Hayron qoldi oyimiz —
Ko‘kmas, aynan yashil ekan
Ichib yurgan choyimiz...

SEVINCHOY HAQIDA SHE’R

Sevinchoyni endi aqli
Ko‘p narsaga yetyapti.
Piyolani ko‘rsatib der:
— Choyim uchib ketyapti.

«Qan-i-i?» deya bizlar atay —
Hayron bo'lsak, «uf»lar u.
— Mana, ko'rib qo'yinglar! — deb
Issiq choyin puflar u...

BO'SH QOZONDA NIMA BOR

Jo'jalarin «kisht-kisht»lab
Yulduzxon horib-tolar.
Oshxonadan ularni
Necha bor quvib solar.

Qaysargina jo'jalar
Tinim bilmay aylanar.
Yuvuqsiz, bo'sh qozonni
Cho'qimoqqa shaylanar.

Yosh oshpazning bu holdan
Hayronligi ortadi.
Qo'liga neki tushsa,
Ular tomon otadi...

— Bo'sh qozonda nima bor!
— Bo'sh qozonda nima bor?
Gina qilar jo'jalar
Yulduzdan bo'lib bezor.

Bilmasang bilib qo'y deb
So'zlashar takror-takror:
— Qozonda sen damlagan
Palovning qirmochi bor!

BAHOR HAZILI

Ninachini tutqazib
Zeboxonning qo'liga,
Bundan sira qo'rqlma, deb
Dalda berdik yo'liga.

Jajji Zebo bir nafas
Qaltirab, titrab-toldi.
Ninachini qo'yvorib,
Bizga b-i-i-r qarab oldi.

Sir boy bermay dedi so'ng:
— Ninachidan qo'rqlmayman.
Olib kelsin qizini,
Qizi bilan o'ynayman!

«TO'RT» VA TORT

Sevinchoy opasini
Maktabiga kuzatib,
— «To'rt», «besh» olib kelng, — der
Zebo sochin tuzatib.

«To'rt» va «besh»ning neligin
Qaydan bilsin qizgina,
Bog'chaga ham bormagan
Yuzlari qirmizgina.

Maktabdan qaytsa Sevinch
Jildini ochar shosha.
— Qani mening tortim, — deb
Boshlar birpas xarxasha...»

Xato she'rlar



JUMBOQ

Maqsadi ne bilmadik:
Sinfdoshimiz Oyosh
Sinov kuni mакtabga
Ko'tarib kelibdi TOSH.

MEN KO'RGAN TUSH

Ajoyib men ko'rgan tush:
Atrof go'zal TOG' emish.
Uyg'onsin deb BULBULLAR,
Yonib kuylarmish GULLAR.

TESKARI ERTAK

YALLA aytib ESHIKni
Tebrataveribdi Nor,
SHUNING UCHUN kechgacha
UXLAY OLMABDI Qo'chqor.

DAFTARIMNING ODATI

«Ikki» olgan kunlarim
Ozib qolar KAPTARIM.
Don sepsam ham oldimga
Kelay demas DAFTARIM.

MO'JIZA

Yulduzlarga to'ldi ko'k,
Yulduzlarga to'ldi soy.
Bu qanday mo'jiza deb
Pishqirib yubordi OY.

SINGILCHAM

Yuvib bo'lgunimizcha,
Ukam bilan OLCHANi,
Yeb qo'yibdi singilcham
Ikki qism SHOLCHANi!

HASHARDA

Olti «b»lar bu safar
Nok o'tqazishdi butkul.
Biz bo'lsak yo'l chetiga
Ekib chiqdik nuqul PUL.

NOTANISH YO'LOVCHI

Suhbatlashib tursak bizdan
So'rab qoldi bitta xola:
— Karimjonning kichik o'g'li
Ichingizda qaysi LOLA?

Jajji she'rlar



TUNGI MAYOQLAR

- Nega oyu yulduzlar
Porlar faqat kechqurun?
- Samolyotlar yo‘lini
Yo‘qotmasligi uchun!

BOTIRLIKNING «SIRI»

- Botirligingga
Berishdilar tan.
Tunda bir o‘zing
Qanday yurasan?
- Qo‘rqmaslik uchun
Hamroh shart emas.
Baland ovozda
Qo‘shiq aystsang bas.

TOPGAN JOYINGNI QARA

Jo‘jasin izlayapti
Der edim bo‘lsang tovuq.
Botinkamning ichida
Senga nima bor, sovuq?

TENNIS SHARCHASI

Ikki tomon — raqiblar
Murosaga kelsin deb,
Ming bor ora tushsa ham
Kuni o‘tar kaltak yeb.

QISHDA

Qor yog‘sа yayrar
Qarg‘aning dili —
«Qar», «qar» der «qor»ga
Kelmasdan tili.

MISH-MISH

Eshitgandirsan
Sen ham, Mirrajab.
Kecha bolalar
Aytishdi bir gap.

Darsga har kuni
Kelsa ham Unsun,
Sog‘inar emish
Uni... Shotursun...

ONA ONA-DA

Ko‘ringanga
Toshbaqaxon
O‘g‘ilchasin
Maqtar chunon:

— Bolaginam,
Oydakkina,
Gijinglagan
Toydakkina.

CHAQALOQ

Oyim kelsa
Eshikdan,
Jilmayadi
Beshikdan.

KEL, DO'STЛАSHAMIZ

Maymun Kenguru
Yoniga borib:
— Zerikib ketdim, —
Der yurak yorib.

— Agarda o'rtoq
Bo'lsang men bilan,
Terib beraman
Bir xalta banan.

SEHRGAR

Xo'p ajoyib narsa-da
Rostini aytsak ko'zgu.
Balki sizlar bilmassiz —
Haqiqiy sehrgar u.

Buyumlarni qo'ysangiz,
Oldiga qator-qator,
Ko'paytirib beradi
Barchasini ikki bor.

MART

Qish tugadi, qor ketdi
Ketdi sovuq, qahraton.
Hademayin barg yozib,
Gulga burkanar har yon.

Qarab gulga, sunbulga
Dilbar tortar xayollar.
Bog'imizga keladi
O'ynagani shamollar...

MUSHUKLARIM

Mushuklarim ajoyib,
Mushuklarim g'aroyib.
Itlardek ovqatlarin
Qolmas aslo talashib.

Bir hovlida yursa ham,
Bitta uyda tursa ham,
Salomlashar har sahar
Bir-birini yalashib...

ZO'R YONG'OQNING SHUM YONG'OQQA DEGANI

Tan olaman, pishiqliqsan,
Toshni ham yorishing chin.
Chunki senda mag'iz yo'q,
Chunki iching...
qo'rg'oshin.

DASTLABKI XULOSA

To'rt kunlik
Filni ko'rib,
Shunday der
Kuchuk hurib:

— Fil bo'lsa ham
Chaqaloq,
Ekan juda
Baqaloq.

NIYOZBOSH

Qishlog'im
Gul Niyozbosh.
Bag'ri Chirchiqqa
Yondosh.

Dalalari
Sururli.
Bolalari
G'ururli.

PAZANDA MEZBON

Mehmon kutar
Gulrayhon.
Bezab to'kin
Dasturxon.

Palov damlab
Do'ppidek,
Patir yopib
Lo'ppidek.

«QARIYA»

Endigina
olti yoshga
To'ldi jo'ram
Narimon.

Men-chi undan
ancha katta —
Naq to'rt oyga
Qariman.

MUSHUK XOLA

Quva-quva yetolmagach,
 Mushuk xola «miyov» dedi.
 — Sichqon uka, qizim Moshga
 Bo'laqoling kuyov, dedi.

TEKIN NONUSHTA

Akmal terlab
 yer chopdi,
 Tovug'i tushlik
 topdi.

Chuvalchangni
 cho'qib u,
 Dedi: — Endi
 bering suv!

ALI-VALI

Qachon ko'rsam, Ali yurar
 Ukasini arillatib.
 Alidan yosh Vali bo'lsa,
 Kitob o'qir sharillatib.

MAQTANCHOQ

«Onajonimga har dam
 Beraman yordam».
 Deya bizga har kuni
 Maqtanar Hamdam.

Rostin bilsak, u «Ona» —
 Qo'shig'in aytib,
 To'p teparkan ko'chada
 Maktabdan qaytib.

TURPCHA MASLAHAT

— O'tiribmi yo turib,
Turibmi yo o'tirib,
Seni qanday yesam soz,
O'zing ayt a qol, turp?

— Ming bir dardni tanadan
Yubora olgum quvib.
Meni qanday yesang, ye,
Ye faqat doim yuvib...

CHIZISH HAM MAZA

— O'xshatibsan
Yong'oqni,
Shokoladni,
Qaymoqni.

Shouzoq der
Kerilib:
— Chizdim barin
Berilib...

SHOTURSUNNING XOLASI

Qayda ko'rsa
Achomlab,
Qo'yvormas
Ahvol so'rab:

— Bo'ylaringdan,
Shotursun,
Xolaginang
O'rgilsin.

BEDANA

To'rqovoqni to'qillatib
Tinmay sayrar bedana:
— Ko'nglim uchun sepib qo'ying,
Hech bo'lmasa sedana...

OYIJONIM YOPGAN NON

— Oyijonim yopgan non
Bunchalar totli, shirin?
Yo qo'shganmi qand, asal?
Akajon, aytinq sirin.

— Oyijonim nonlarga
Qand emas, qo'shar mehrin.
Shu boisdan nonlari
Mazali, xushta'm, shirin.

UYAL-E, ERKATOY!

Esh uchun ona
Tuzar dasturxon.
Bo'lib parvona
Tutar shirmoynon.

Keltirar yong'oq,
Keltirar pashmak.
Murabbo, qaymoq,
Xushta'm sumalak.

Nonini biroq
Olmasidan yeb,
Hiqillar «toychoq»
Choyim issiq deb.

YURISHNI O'RGANSIN-DA

Bilmasa-da yurishni
O'rgansin deb turishni,
O'n oylik ukamizni
Suyib erkalatamiz.

O'rganvolgach turishni,
Boshlasin deb yurishni,
Oyoqlari ostidan
Kulcha yumalatamiz.

O'LMASNING ODATI

Xo'p g'alati-da
Qo'shnimiz O'lmas —
Yomg'ir, qor yog'sa,
Ko'chadan kelmas.

Yog'inli kunlar
Qalt-qalt titrab, jim,
Yalangbosh yurar
O'ssin deb... bo'yim.

MULOHAZAKOR

— Yoshimni nega
So'rayapsan, hoy?
— Kattaroq bo'lsang,
Bermoqchiman joy.

«MUVAFFAQIYAT» SIRI

— Piyonista rolini
Xo'p o'rinaltding, Shahboz!
— Dadamlar ichaversa,
O'ynayman bundan ham soz!

TUFLIM KASAL

— Sog‘lig‘imni namuncha
So‘radingiz, oshna, siz?
Soppa-sog‘man faqat shu...
Bir poy tuflim poshnasiz.

MIXNING E’TIROZI

Uquvda gap ko‘pligini
Duradgorlar bilishar.
Qo‘llari lat yesa, biroq
Mandan gina qilishar.

MENIMCHA...

— Akajon, nega
Tolning qaddi dol?
— Menimcha, qarib
Bo‘lib qolgan «chol».

TAKLIF

Dadam bersa
Olma.
Hiqillashdan
Qolma.

Agar so‘ysa
Qovun,
Yig‘layvermay
Ovun.

PAYSALLAMASANG BO‘LGANI

Havo yomon, dala loy
Deyaverma, yigitcha.
Paysallasang, vaqtida
Unib chiqmas chigitcha.

BECHORA

Bugun nega jim desam,
 Ezma ukam Miryo'Idosh,
 Og'zi og'rib, hattoki
 Yeyolmasdan qopti osh...

GINACHI

Chirmoviqqa ilashib,
 Soya ag'nab toshdaqa,
 Kimlardandir o'pkalab
 Ko'zin yoshlar toshbaqa:

— Toshko'ylagim ko'rolmay
 To'sishdilar yo'limni.
 Yashirinib o'zları
 Bog'lashdilar qo'limni...

UDDABURON

— Bahong «ikki», «uch»
 Bu qanaqa gap?
 Tuzat ularni
 Tezda, Mirrajab.

Bo'lgin doimo
 Kitob bilan band, —
 Deya kattalar
 O'qisalar pand,

— Xo'p bo'ladi,— der
 Kulib har safar
 Va tutar yangi
 Kundalik daftar.

NIMA QILSIN?

— Voy-bo‘, ust-boshing
 Buncha kir, G‘ani,
 Uyalmaysanmi
 Shunday yurgani?

— Uyalib nima —
 qildim, O‘g‘iloy?
 Ko‘chamiz doim
 Bo‘lgach tuproq-loy.

МОHTOB

Ovunmadi
 o‘yinchoqqa.
 Ovunmadi
 qo‘g‘irchoqqa.

O‘qiy boshlagandim
 kitob,
 Yig‘lamasdan
 qoldi Mohtob.

JAVOBSIZ JAVOB

— Ra’no nega eshikni
 Yopmasdan yurar?
 Daftar, qalam, paypog‘in
 Topmasdan yurar?

Desam dedi oyisi
 (Horg‘in tovushi):
 — Izlashvorsang aytaman
 Quyma kovushim.

SAXIY

Topib olib mis chaqa,
Shod vaqillar qurbaqa.
Uni otga berarmish,
Sotib olgin deb taqa.

HAZILKASHNING JAVOBI

So‘rar muallim:
— Quyosh ne uchun
Yanvarda ancha
Ertabotadi?

Sinf qolgach jim
Shunday der Uchqun:
— Tursa kechgacha
Sovuq qotadi!

QORLAR

Tomga yoqqan qorlarning
Odati rosa qiziq,
Yerga tushgisi kelmay
Tarnovlarga yopishar.

Ko‘chaga yoqqanlarin
Vaqtлari juda ham ziq —
Bolalarni chorlashar
Bo‘lib olib sirpanchiq.

ASALGUL

Gulni ko‘rib Gulg‘uncha
Qomatini egdi sal:
Hidlay-hidlay dedi so‘ng:
— Buncha bo‘lmasang go‘zal!

Bolari kelib qo'ndi
O'sha gulga bir mahal.
Gulni o'pib dedi u:
— Buncha bo'lmasang asal!

HUSHYORLAR

Bilsang, shunday itlar bor,
Ular nafaqat hushyor,
Yo'llarni erinmasdan
Nazorat qila olar.

Velosiped tezligin
Ozgina oshirsang sen,
Allaqancha joygacha
Ortingdan quvib solar!

KUCHUKCHAM

Mayin yungli kuchukcham
Qarang, tushunar so'zim.
Uni mushtdekligidan
Katta qilganman o'zim.

Ovqat tutsam hozir ham
Quvonadi vovullab.
Go'yo rahmat, degandek,
Qo'llarim qo'yar yalab.

KO'KLAM YOMG'IRI

O'yinimiz qizirdi xo'p.
To'pillashdan tinmasdi to'p.
Qo'y-qo'zini quvib qirdan,
Yomg'ir quyib qoldi birdan.
O'tdik tollar panasiga,
O'tdik toklar panasiga.

Shaddod yomg‘ir bo‘lsa ajab,
Olaverdi bizni topib —
Chala qoldi o‘yinimiz,
Chala qoldi qiy-chuvimiz.
Kirib ketdik biz oxiri
Uyimizga
chopib,
chopib...

MUSHUKCHAM

Mushukcham, hoy mushukcham,
Kelgil, birga o‘ynaymiz.
Bir-birimiz quvlashib,
Hovlimizda quvnaymiz.

Yungi momiq mushukcham,
Unutmagin hech qachon,
Tirnoqlarni o‘stirib
Yurish juda ham yomon!

O‘RDAKCHAM

O‘rdakchamning ovozi
Jarangdor juda.
Og‘zi tinmas «g‘a-g‘a»lab
Yuvinsa suvda.
Rostini aytSAM, unga
Havasim kelar —
Mendan kichik bo‘lsa ham
Suzishni bilar!

Kitobni ko'p o'qiydigan ukam



BULBUL

Suvi mo'l-ko'l bog'larda
Yayrar ekansan, bulbul.
Oqshom cho'kkан chog'larda
Sayrar ekansan, bulbul.

Ovozing ko'p xush ekan
Qanotlaring mallarang.
Jussang kichikligidan
Ko'rinarkansan arang.

Bu gaplarni kitobdan
O'qib-bilib oldim men.

Boqib mo'jaz rasmingga
Xayollarga toldim men.

Chamanga aylanguncha,
Bo'lguncha har yer bo'ston,
Bir o'tinchim, o'zingni
Ehtiyot qil, bulbuljon!

ESIZ YAKSHANBA

Na oyimga yordam berdim,
Na dadamga qarashdim.
Na tunov kun arazlashgan
O'ktam bilan yarashdim.

Hatto xat ham yozolmadim
Xizmatdag'i akamga.
«Dutor» yasab berolmadim,
Yon qo'shnimiz Mahkamga.

Endi bo'lsa, iloji yo'q,
Endi kechdir — befoyda.
«Attang» ekan ishing doim,
Dangasalik bor joyda.

Sezayapman, qadri ketib
Borayapti so'zimning.
Ahvol shunday bo'lgach qanday
Kechirayin o'zimni...

OMONNING ORZUSI

— Yangi yilni o'rmonlarda
Kutardim topsam imkon, —
Qay bir oqshom akasiga
Shunday deb qoldi Omon.

— Tanlab olib bir archani
O'yinchoqlar taqardim.

Yo‘q, yo‘q, aslo kesmas edim,
Unga to‘ymay boqardim.

Eltar edim qushlarga don,
Quyonlar uchun karam.
Nishonlardim Yangi yilni
Ular bilan shod, xurram.

O‘rmonni sayr aylamoqqa
Taklif etib barchani,
Asrar edim kesilishdan
Aqalli bir archani...

KITOBNI KO‘P O‘QIYDIGAN UKAM

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
Nimagadir juda ham kamgap.
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
She’rlar yozar onamga atab.

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
O‘yga tolar ba’zida uzun
Va shivirlar: — Hali kelmabdi
Suvlar suvga o‘xshaydigan kun.

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
Bir kun menga shundayin dedi:
— Oq mo‘ynali qalpog‘ingiz ham
Quyon edi, joni bor edi.

— Bunaqangi jumboq gaplarni
Qaydan o‘ylab topasan? — desam,
Bosh chayqar-da, «uf» tortib qo‘yar,
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam.

ILTIMOS

Meni ko'rsa tog'amning
ko'zlariga yosh kelar,
Botirim, polvonim deb
opichlab yurar uzoq.
Yoshi dadajonimdan
ancha kichik bo'lsa-da,
G'o'zasi kabi rangpar,
paxtasidek sochi oq,
Ona, tog'amning nega
bitta ham bolasi yo'q?

Qiliqlari, yuzlari
menga rosa o'xshaydi,
Menga o'xshab arazchi,
menga o'xshab hazilkash.
Ammo bitta gapiga
sira tushunolmayman,
Nimaydi, ha: «Bunchalar,
bunchalar qiyin yashash?»
Ona, tog'amning nega
bitta ham bolasi yo'q?

Ertakdag'i parilar
sarvqomat desalar
Ulardan go'zal derdim
Lobaroy kennoyimni.
«Kasal bo'lib qolasiz
yig'layversangiz agar»,
Desam ham ko'zin yoshtag
solib berdi joyimni.
Ona, tog'amning nega
bitta ham bolasi yo'q?

Akam, opachalarim
xafa bo'lishsa bo'lar,

Mening aytganimga ham
bir borgina kiringlar —
Ko'nmasangiz agarda
uydan qochib ketaman,
Meni kichik tog'amga
o'g'il qilib beringlar!
Ona, tog'amning axir
bitta ham bolasi yo'q!

TO'YDA

A'zamlarning to'yida
Chuchvaraga to'ydin men.
Tog'am bilan omborda
Qovun-tarvuz so'ydin men.

Rosa avj oldi bazm,
Hamma o'ynab, yayradi.
Bir kishi avval kakku,
So'ng bulbul bo'b «sayradi».

Ozgina qovurdoq yeb,
Ozgina ichib olib,
Normamat aka birpas,
Yig'ladi uvvos solib.

Buni ko'rib yuragim
Ezilgandan ezildi.
O'g'li — do'stim Toshmatning
Yo'qligi ko'p sezildi.

To'y bo'lsa, qizigandan
Qiziyverdi, qo'ying-chi,
«Bari gal»ga o'n marta
Raqsga tushdi o'yinchi.

Qoshlari qaldirg'ochdek,
Sochi «uzun» bo'lsa ham,

O'sha raqqosa opa
Menga yoqmadи hecham.

Uch so'mni deb yolg'ondan
Ko'zini qisib manga,
Yuzlaridan o'ptirdi
Shermat mo'ylov deganga!

INSHOLARDAN KO'CHIRMALAR

Barno depti: «Paxtamiz
Momiq parga o'xshaydi».
Ra'no depti: «Paxtamiz,
Xuddi zarga o'xshaydi».

Uni oppoq bulutga
Qiyos qilibdi Davron.
«Muzqaymoqning o'zi u»,
Deptı hazilkash Omon.

Kimdir «Paxta — non» depti
Kim yozibdi «kunduz» deb,
«Tunda oy terimchi-yu
Lo'ppi paxta — yulduz», deb.

Inshosini shundayin
Tugatibdi Shouzoq:
«...Asli paxta qordekmas,
Dadamning sochidek oq».

ARMON HAQIDA SHE'R

A'luchi qiz edi Nigora
Darslaridan aslo qolmasdi.
Ahvol so'rib borgan paytimiz
U o'midan tura olmasdi.

Borar edik yana va yana,
Borar edik har kuni yo'qlab.

«Tuzalib ham ketasan mana»,
Derdik xasta ko'nglini to'qlab.

Sog'aymadi sinfdoshimiz,
Oxirgi kun qorayganda qosh,
O'girilib biz tomon unsiz
Ko'zlaridan to'kdi duv-duv yosh.

Shu payt hamma yig'ladi birdan,
Muallim ham yig'ladi to'lib.
Derazada bizlar keltirgan
Atirgullar qolgandi so'lib.

Ko'zimizni qizartirdi g'am,
Qalbimizdan armon ketmadi.
Ko'taraylik tobutin desak,
Bo'yimiz yetmadi, yetmadi...

YOLG'IZ FARZAND

Ko'chaga suv sepganin ko'rib,
Qiqirlashib o'tishdi qizlar.
Yurar ekan hovli supurib,
Piqirlashib o'tishdi qizlar.

Tushlikdan so'ng anhor bo'yida
Yuvganida choynak-piyola,
Karimjonni «qizbola» deya
Mazax qildi uch-to'rtta bola.

Parvo qilmay qochiriqlarga
Barisiga silkigancha qo'l,
Sumkasini ko'targanicha,
Do'kon sari shoshmay olar yo'l.

Yo'lda ahvol so'raganlarga
«...Tinchlik», deya so'ylar edi u.
So'ylardi-yu yuragi xasta —
Onasini o'ylar edi u.

NODIRA

— Ancha qiyin bugungi mavzu,
Qulq soling, — dedi muallim.
Chor atrofni bosgandayin suv,
Zum o'tmasdan sinf bo'ldi jim.
Meni esa Nodira bilan
Suhbatlashgim kelaveradi.

Orqaga hech boqmas Nodira,
Taqinchoqlar taqmas Nodira.
Bir oyog'i shikasta, shundan
Bolalarga yoqmas Nodira,
Meni esa Nodira bilan
Suhbatlashgim kelaveradi.

Mensimasdim avvallar atay,
Yig'latardim sochidan tortib.
Uzoq fursat unga gapirmay,
Ranjitardim sho'xligim ortib.
Endi bo'lsa Nodira bilan
Suhbatlashgim kelaveradi.

Yuzlarida xol-poli ham yo'q,
Tovushi ham mosmas yoshiga,
Ammo ancha yarashar ekan,
O'sma qo'ysa agar qoshiga.
Endi o'sha Nodira bilan
Suhbatlashgim kelaveradi.

MUHABBAT HAQIDA SHE'R

Kecha-yu kunduzi, maktabu uyda
A'zamjon Mohtobni yurarmish o'ylab.
Ko'chasidan o'tsa, ko'rарman deya
Pastak eshididan qo'yarmish bo'ylab.
Yuragim, yuragim — joni halagim,
Qachon o'rganasan sevishni?

Shouzoq o'rtog'im qo'shni sinfdagi
Ra'noga xat yozar uch yildan buyon.
Bejavob qolsa-da dilnomalari
Tilida doimo bir so'z: «Ra'naxon!»
Yuragim, yuragim — joni halagim,
Qachon o'rganasan sevishni?

Hamdamu Gulnorni sinfdoshlari
Kelin va kuyov deb atasalar ham,
Gulnorning parvoysi falak hamma vaqt
Haddan ziyod sipo, sir bermas Hamdam.
Yuragim, yuragim — joni halagim,
Qachon o'rganasan sevishni?

Anov qiz kim bo'ldi?
E, bu Dildor-ku!
Ko'yida nechani sargardon etar.
Uchrashib qolsak bas, xuddi mendayin,
Negadir Dildor ham qizarib ketar.
Yuragim, yuragim — joni halagim,
Qachon o'rganasan sevishni?

RADIONING MAGNITOFONGA DEGANI

(Anvar Obidjon yo'lida)

Na so'zlaysan yozilib,
Na xabar yetkazasan.
Qo'shiq aytib, odamlar
Charchog'in ketkazasan.

Lekin, uka, shuni ham
Xotirangda tutgin yod,
Faqat kuy va qo'shiqdan
Iborat emas hayot!

YUMSHOQ KURSINING STULGA YOZGANI

Stol bilan sirlashib
Turgandirsan, ukajon.
Qo'rqaman ko'rmayman deb
Endi sen hech qachon.

Belim, ikki oyog'im
Bo'lgandan beri mayib,
Yotibman zax omborda
Kunni ko'rmay, ya'lpayib.

...Ba'zan o'ylab qolaman
Bo'ylab sen turgan uyga,
Suyanchig'im bo'lganda
Tushmasdim deb shu ko'yga.

KARTOSHKANING PIYOZGA YOZGANI

Qattiq kelar emish qish,
Shunday dedi bobotok.
Xabar topib bu gapdan
Osilvoldi shipga nok.

Anor poxolto'n kiyib
Suyangan kun so'riga,
Ko'chib o'tdim daladan
To'g'ri ombor to'riga.

O'tgan yil qorda qolgan
Katta akangga o'xshab,
O'jarlik qilmasang gar,
Aytar edim bitta gap.

Gap shuki, ustingdagi
To'nlaringga uchmasdan,
Yonimga kel, dalani
Qirov-pirov quchmasdan.

YOMG'IR HAQIDA SHE'R

Ko'ngli tusab qolsa bas,
Ko'kdan tushar-da,
Gullarning qulog'iga
She'r o'qir yomg'ir.
Tegib ketsa joniga
Bu ish ham goho,
Shamolvoyga qo'shilib
Kuy to'qir yomg'ir.

U shunaqa serg'ayrat,
Erkatoy, sinchkov,
Yog'averar dala, qir,
Yuzu ko'z, kiftga.
Ta'mirtalab bo'lsa gar
Mabodo tomlar,
Yozib qo'yar fikrini
Erinmay shiftga!

ESKIRMAYDIGAN ERTAK

«...Anhor bo'yi so'lim emish,
Emish qalin qamishzor.
Parrandalar o'sha yerda
Yasharmish tinch, beozor.

Suvlar tanga rohat emish,
Suvlar emish musaffo.
Tarar emish unga boqib
Sochlarini Oymomo...»

Suzishni ham bilmaydigan
Bolalariga har kech,
Ona o'rdak shu ertakni
Aytib charchamasmish hech...

QULOQSIZ CHANGLAR

Qo‘rqadi deb o‘ylardim
Oyimlardan chang, g‘ubor.
Bilsam, ular ham ancha
Ekan quloqsiz, ayyor.

Oyijonim xonamni
Supurib-sidirsa ham,
Sholchalar ni erinmay,
Bir-bir qoqib kelsa ham,

Uyning derazalarin
Ochib qo‘ysa hamki lang,
Ajabo, tashqariga
Chiqay demas ekan chang.

Keng, top-toza hovlida
Bizga nima bor deya,
Berkinib olisharkan
Ular javon ortiga!

OLAPARNING BOLALARIGA NASIHATI

Umrim kechdi yaylovda
Qo‘zi bilan, qo‘y bilan.
Suruv bo‘lsin salomat
Degan xayol, o‘y bilan.

Duch keldim, eh-he qancha
Qashqir degan nomardga.
Qon tekkan tumshuqlarin
Beladim loyu gardga.

Ular hozir ham bisyor,
Bilar bosqin, uvlashni.
Sizlar chopag‘on bo‘ling,
Eplang yana quvlashni!

RAHMAT SENGA, CHAQALOQ!

Judayam soz bo'ldi-da,
Tug'ilganing, singiljon.
Yig'lasang ham saharlar,
Ranjimayman hech qachon.

Sog' bo'lsang bas, yig'ingning
Zarari yo'q menga hech —
Sen tufayli maktabdan
Axir qolmayapman kech...

DAKKI

Boshqa bola bo'lganda
Sening o'rningda shu kez,
Faqat o'zin o'ylamay
Ko'nglimni olardi tez.

Ol, deb manzirat qilish —
Qayoqda, e, jimsan, jim.
Bilmabman-a shunchalar
Ekaning kaltafahm.

Gap shu, bundan keyin ham
Bo'laman desang o'rtoq,
Gapni chuvalatmasdan
Pistadan cho'z, qurumsoq!

EHTIYOTKOR TOSHBAQA

Moshga meni yalqov deb
Rosa yomonlabdi g'oz.
Odatini bilsam ham
Ranjidim undan biroz.

Aslida ehtiyyot shart,
Tashlayman shoshmay qadam —
Sozlab berar axir kim
Sinib qolsa toshkosam?

CHORLOV

Oymomajon, oymoma,
Oymomajon, oymoma.
Kechikmay ko'k — taxtingga
Chiqaqolgin, hoy, moma.

Osmon toza, fusunkor.
Osmonda bulutlar yo'q.
Yulduzlar porlar unda
Har bittasi oppoq cho'g'.

Ular sanoqsiz, ammo
Yoritolmas yo'llarni.
Yoritolmas yo'l tugul,
Adirlarni, cho'llarni.

Oymomajon, tezroq chiq,
Ko'rsataqol rang-ro'ying.
Chiqmasang, qorong'ida
O'ynay olmaymiz o'yin.

ONA TASHVISHI

Yog'in-sochinli kunlar
Kelarkan eshik qoqib,
O'z-o'ziga g'udranar
Qirqoyoq ko'kka boqib:

— Kim uyim deb jonhalak,
Kim kovush deb ovora,
Qanday butlay o'g'limning
Oyog'in men bechora?

Bir daftар savol



- Shularning hammasini o'zing yozdingmi?— so 'rayman Shuhratjonning daftaridan ko 'zimni uzmay.
- Yo 'q, hammasini emas, — rostiga ko 'chadi u.— Bu yerda akam yozgan savollar ham bor. Faqat ular meniki bilan aralashib ketgan...

1. BEKATDA TUG'ILGAN SAVOLLAR

* * *

Bu ko'chadan kim o'tdi ekan
Erta tongda birinchi bo'lib?

* * *

Kim kimdan o'rgangan salomlashishni
Chumoli bizdanmi, biz chumolidan?

* * *

«Gulzor» deb atalgan bu keng bekatning
Tegrasida nega gul o'smas?

* * *

Nima uchun aynan qaldirg'och
Yer bag'irlab ucha oladi?

* * *

Yoz emas, kuz emas yo bahor emas,
Nega qish bir yilda ikki bor kelar?

* * *

O'zingdan kattaga salom berishni
Nahot o'rgatmagan namozxon onang?

2. YO'LDA TUG'ILGAN SAVOLLAR

* * *

Qanday qilib «bor» va «yo'q» qilar
«Xalqob»larni asfalt ko'chalar?

* * *

Tusharmikan ko'chamizga ham
Kelin bo'lib sochi uz-un qiz?

* * *

Nega kelib-kelib ayni bahorda
Zerika boshladim o'zimdan o'zim?

* * *

Nahotki akamning gapi rost bo'lsa,
Nahotki yulduzlar oydan ham katta?

* * *

Bilarmikan mana bu kishi
Onasining tug‘ilgan kunin?

* * *

Chumolilar yerning ostida
Qanday yashasharkin... chiroqsiz?

* * *

Osmon havorangmi,
Havo osmonrang?

* * *

U boshi bozorga, bu boshi mozorga
Tutashligin bilarmi bu yo‘l?

* * *

Insodan bo‘lmasa kerak-a
O‘zimniki desam ko‘chani?

3. MAKTABDA TUG‘ILGAN SAVOLLAR

* * *

Tamaki zahar deb bizlarga bot-bot
Muallimlar nega chekishar?

* * *

Puldan boshqa gapni bilarmikan-a
Qassob qo‘sнимизнинг бақалоқ о‘г‘ли?

* * *

Bobongizdan so‘raganmisiz
Bobosining kim bo‘lganini?



Bor edimi avvallari ham
Gulnoraning yuzidagi xol?



Menga nima bo'ldi, nega dars payti
Gulnoraga hadeb qaragim kelar?



«Tokay» degan so'zdan nega goh
Kelib turar isyonning isi?



Ohanrabo temirni nega
Hammadan ko'p yaxshi ko'radi?



Onalarin nega «sen»lashar
She'rlarida ba'zi shoirlar?



Kimga kerak bo'ldiykin yirtmoq
Onam bilan tushgan rasmimni?



Oyning yuzidagi alomatlarni
Nega xol demaymiz, nega dog' deymiz?



Kim biladi, qani kim aytar,
Nima uchun qarimas ovoz?



Bilasizmi, «e» degan so'zni
Qaysi bola eng ko'p aytishin?

* * *

Naqoratli qo'shiqlar serob,
Naqoratli she'rlar nega yo'q?

* * *

Tarix bor, rasm bor, ona tili bor,
KO'NGIL degan fan nimaga yo'q?

4. UYDA TUG'ILGAN SAVOLLAR

* * *

Nima uchun ovqat yeishni
Eng birinchi boshlar kattalar?

* * *

Buncha maza chaqaloqlarni
O'ziga bildirmay tomosha qilish?

* * *

Nega ishlayverar soddadil soat
Burasak ham quloqlarini?

* * *

Yiqilib tushmasmi yuragi o'ynab,
Shiftda yurganini bilsa chumoli?

* * *

Senga nima bo'ldi, mushukvoy,
Nega yig'layapsan chaqaloq bo'lib?

* * *

Dada, dada, o'zbek degani
O'ziga bek deganlarimi?

* * *

Ukam hayrat bilan boqqan ko'zgudan,
Dadajon, nimani izlaysiz har tong?

* * *

Buncha xursand bo'lmasa Yulduz,
Chiqdimikan yana bir tishi?

* * *

Reja olsa ustalar nega
Ishonishmas ikki ko'ziga?

* * *

Surishtirsak topilarmikan
Har kech bir xil tush ko'rар kishi?

* * *

Birdan kasal bo'b qolgan odam,
Nima uchun sog'aymas birdan?

* * *

Tashrif va'da qilgan mehmonni
Kutish mumkin aytin necha kun?

* * *

Kunduzi tovushin yutgan soatlar
Tunda nega shovqin solishar?

* * *

Qiziq, yana ko'rarmikinman,
Tunov kuni ko'rgan tushimni?

* * *

Tunda, uxlab yotganimizda
Qayga ketgan bo'lar hushimiz?

5. BOG'DA TUG'ILGAN SAVOLLAR

* * *

Ildizlar nimalar haqida o'ylar
Daraxtlarni ko'klam bezantirganda?

* * *

Nima uchun daraxtga qurmas,
Qaldirg'ochlar loy uyalarin?

* * *

Havas qilarmikan archalar
Navro'z kuni biror daraxtga?

* * *

Buncha oson daraxt qulatmoq
Yog'och sopli o'tkir boltada?

* * *

Orzu qilarmikan maysa ham
Kuz kelguncha daraxt bo'lishni?

* * *

Olma emas, shaftoli emas,
Nega bodom gullar birinchi?

* * *

Qachon osmonlarga qarar majnuntol?

* * *

Qanday bo'lar ekan seni, yoz,
Fasllarning kuyovi desak?

* * *

Har kuni bir vaqtida uchrashmas nega
Kunduz bilan oqshom, tun bilan sahar?



Atirgulni nima ko‘p sevar
Bolarimi yoki kapalak?



Kungaboqar, bo‘yning og‘rimadimi
Ertadan kechgacha quyoshga qarab?



Xushbo‘ylarni qayerdan olar
Navbahorning qizi atirgul?



Bilarmikan kakku qush,
Ismi «kakku» ekanin?..

6. TO‘YDA TUG‘ILGAN SAVOLLAR



Qo‘sishiq aytdi Dildora, raqsga tushdi Gulnora,
Men ham o‘qisammikan yangi yozgan she’rimni?



Boshidan to oxirigacha
Bilasizmi biror qo‘sishiqni?



Sharbatlarga to‘ydik, palovga to‘ydik,
Sochqilarni qachon sochishar?

Raqamlı she'rlar



TUSH

Atrof qorong'i. Soat
İllar emish.

Menga qarab 1 bo'ri
O'qdek kelarmish.

Chorlay desam yordamga
Yo'qmish 1on jon.
Bo'rining 1 ko'zi cho'g',
1i emish qon.

O'yalarmishman shu asno
«Bo'lganda Sol,
1 soniya ichida
Topardi tad1».

1dan chaqmoq gumllab
Yonibdi olov.

Kal deb chaqiribdi
Uzoqdan lov.

Qarasam, sen ekansan
Debman: — Iodar,
Vaqt borida mana bu
Yirtqichdan qutqar!

Itga aylanib qopti
Bo'ri I mahal.
Tilga kirib depti so'ng:
«Kechirdim I gal».

Yig'larmishman, quvonchdan
Chiqmasmish unim...
Tush ko'ribman shundayin
«I» olgan kunim.

UCHQUNJONNING TOYCHOG'I

3qunjonning toychog'i
Shamoldan 3qur.
Orzu qilar bolalar
Minmoqni 3qur.

Kimdir tutar dov3cha,
Kim suv — hov3lab.
Kimdir toychoq yollarin
Qo'yadi silab.

1000an borki, zavqlanib
Der: — Tulporjon, 3!
Misdanman deb o'kinma,
Osmonlarni q3!

HAMMA BILADIGAN HAQIQAT

5 bora toychog‘im deb
O‘rgilsangiz ham 5ak,
Onasiga ichiksa
Yig‘layveradi go‘dak.

Sta bo‘lib 5igin
Tebratsangiz ham agar —
Ochqagan bo‘lsa qorni
Yig‘layverar 5badtar!

XAVOTIRLIK

Inkubatordan chiqqan
Jo‘jalardan uzmay ko‘z,
Takaga Echkibonu
Boshin chayqab qotar so‘z:

— Me-e, jo‘ja deganlari
Muncha n10oq, muncha j10.
Payqashmas qay taraf so‘l,
Payqashmas qay taraf 10g.

Tentirashar 10girda
S10ib, botguncha quyosh.
Bu yerlarda... yaxshiyam
Yo‘q lorta Olamosh.

SO‘NGGI OGohlantirish

Yana meni p3uq desang,
K3ugimni «ishlataman».
Ko‘chamizdan o‘tganingda
Oyog‘ingdan tishlataman.

Keyin qiyin bo'lar senga,
Keyin chiqmay qolar uning.
Lablaringga 3uq toshar,
K3uk zotin ko'rgan kuning.

MINGOYOQNING XO'TIKKA DEGANI

Oz ham emas, ko'p ham emas,
Oyoqlarim 1000ta desam,
Xo'tik otim boshqa qo'yay,
1000tamas deb ichding qasam.

Yarmin hisob qilguningcha,
Soat bo'ldi 7 yarim.
1000tepaga 2 marta
Borib keldi sheriklarim.

Qolganin ham erinmasdan
Sanaydigan bo'lsang uzoq,
Suving kabi ye1000ni ham
Huzurini ko'rар buzoq!

QO'NG'IZVOYNING QUVONCHI

D10galakning ustida
D10peshona 1 q10g'iz
Shodligidan g'10g'illab
Tinmasdan uchar viz-viz.

O'ylar: «Orzumga yetdim
Kunlar ajoyib g'oyat —
10ga qadar sanashni
O'rganvoldim nihoyat».

Q10g'izvoy haqidagi
J10 she'rim shunday tugar.
Hisoblab ko'r-chi endi,
Nechta 10 yozdim, 10ar?

ORZULI DUNYO

Jo'yakdoshi Karamga
K10glini yorar Piyoz:
— Sezayapsanmi, bu yil
10 kun barvaqt keldi yoz.

Senga qanday, bilmadim,
Esib tursa ham shamol,
Bu saraton, bu issiq
Meni etmoqda behol.

T10larimning ch10tagi
Bo'lganda edi, oshna,
Saharlar shabnam g'amlab
Suvga bo'lmasdik tashna.

QOVUNNING DEGANI

3im to'mtoq, kechpisharman
40ma derlar otimni.
Shirinlikda bosvoldidan
Past qo'ymayman zotimni.

Ha, aytmoqchi,
po'stim qattiq.
Yana xayolga tolib,
O'pkalanib yurma mendan
Barmog'ingni 40volib.

OLTINOY

Soljonning k3ugi
Haybatli chunon:
Ko'rgan odam titroqqa
Tushar o'sha on.

Uni k3uk deyish ham
Xatodir Sak.
Asli u 4ko'z degan
Ko'ppakdir, ko'ppak.

8tepki atlaslik
Kelinchaklar ham,
Uy-uyiga tarqashar
Itni ko'rgan dam.

7yotlar haqda-ku
Gap-so'z yo'qdir hech —
10g-so'lga 100 bor qarar
Tushganida kech.

Faqat 6noygina
4ko'zdan qo'rqlmas,
2lanmas, titramas,
Kiprigin qoqlmas.

Maktabga yo'l olgan chog'

va qaytgan mahal

Sollarning uyiga

Qayrilib boqlmas!

ESKIRGAN YANGILIK

— T10g'illama, t10g'izvoy,
G'10g'illama, q10g'izvoy.
Sho'xlik qilmay tur, tozi —
Buziladi tarozi.
Senga ne bo'ldi, s10a?
Qo'rqlma,
demayman j10a.
Chunki, — der kelganlarga
Ma'rab sotuvchi Alqor:
— Do'konchada sovun mo'l,
Shakar ham bor,
qand ham bor...

ERTAKCHI

3i o'tkir o'roqqa
O'xshar bu tun oy.
Osmon g'oyat seryulduz —
3qunlarga boy.

3qur shamol haqida
Ukasi 3un,
Ertak to'qir osmonga
Boqqancha 3qun.

G'ONAN VA TULKI

(*Masalnamo*)

10g'or tog' etagida
Bes10aqay 1 g'10an
Uchrashib qolibdi deng
Mug'am1 tulki bilan.

T10kadayin ko'rinib
Bo'lib hammaga kulgi,
Q10ji qalin k10 etik
Kiyib olgan mish tulki.

— Jo'jalday jonman, — deb
Gap boshlabdi u be100.
— Q10oq bo'lsam degandim
Senga kelgunicha kuz...

L10dagina bo'libdi
G'10an polvonning so'zi:
— Sen bilan do'stlashganning
Chiqqan doimo ko'zi!

G'10anlar tulkilarga
El bo'lmagay hech qachon.
In qurib ol o'zingga
«H10graguncha» ey, nodon!

* * *

Qissadan hissa shulki,
Sodiq bo'l lafz, so'zingga.
Tili bilan dili bir
Do'st ortirgin o'zingga!

BOZORDA

Sol, Bol, Omonboy,
Men, Salom hamda Tohir,
10dan ziyod do'konga
Kirib chiqdik lma l.

Sol to'pponcha oldi
Rosa och ekan Salom,
Kabobga d3 keldi-yu
Puli qolmadi tamom.

Omon, Tohir — 2ovlon
Azaldan yurar lga.
Bugun ham «Biz hozir...» deb,
Kirib ketishdi tirga.

Qishda kiyarman deya
Bo1 oldi jun paypoq.
Tohir sochim qalin deb
Xarid qildi ko'k taroq.

Navbahorga, bayramga
Bo'lsa ham hali ancha,
Men oyimga sotvoldim
9ilrang ro'molcha.

SALOM XAT

— Tushlarimga bu kecha
Akang kiribdi, Rahmat.
Vaqt topib, yozib yubor
Yana 2 enlik xat.

Sog'inibman chamasi,
3ayapti ko'zim ham.
Buvim salom aytdi deb
Qo'shib qo'y xo'pmi, bolam?

— Mayli, — deya Rahmatjon
Q10g'ir r3kasin oldi.
Sh10g'ib o'y daryosiga
1pas tek turib qoldi.

So'ng kursiga o'tirib
Yoza ketdi salom xat:
«Aka, qanday yuribsiz,
Soz ketyaptimi xizmat?

Askarlikka k10ikib
Ketgandirsiz batamom.
Buvim, q10i-qo'shnilar
Sizga yo'llashdi salom.

Q3oq-q3oq ch3moma
Terib qaysak adirdan,
Ko'chamizni nomlashib
Ketishibdi yangidan.

«Ul. Zarechnaya» emas,
Bilib qo'ying, aka, siz,
Endi bizning uy-hovli
Ilik ko'cha, 18!

«Paxtakor» ham ketma-ket
Q3ib turibdi zafar.
1mas, 3ta gol urdi
Ilhom kechagi safar.

Ha, aytmoqchi, sal bo'lsa
Unutay debman, qarang,
Ra'no opamlar bilan
Ishlar bo'ldi vadavang.

Tunov kuni kechki payt
Chiqib turib yo'liga,
Xatingizni tutqazdim
Shaxsan o'zin qo'liga.

«Shunaqa...
aka sizni...»
E, gapniyam d10dirdim.
Xullasi, xat yozishga
«Yangam»larni k10dirdim.

Yana ne dey, bizlarda
Yangiliklar 1 jahon.
6ariqqa bordik
O'tgan oy bo'lib mehmon.

Kirib keldi qishloqqa
Bahor chalib q10g'iroq.
G'3-g'3 gulladi o'rik
Gullari mayda loq...

Fursatingiz bo'lganda
Yozib turing, aka, xat.
3rashguncha xayr deb,
Ukangiz Abdurahmat».

TO'QSON BOBO

1000buloqlik 90 bobo
Yoshligin qo'msab 1 dam,
Cho'l otga shaxdam minar
Havo t10iq bo'lsa ham.

Tili ch3uk bolakaylar
Ha-halashib turarlar.
1—2ta tengi-to'shi
Qahqahani urarlar.

— Yashang, bobo!
— Bo'sh kelmaysiz! —
Yoshlar tinmas olqishlab.
— Qariganda aynigan! — deb
Kampiri olar «tishlab».

— Ji1000, ena, — der evara
Bobosidan uzmay ko'z.
— Olib chiqib berayinmi,
lotarni, — der tuyqus.

— Kerak emas! — rad etar chol.
— Menga shunisi 10g'ay.
O'z vaqtida xo'p ko'targan
Uni bobong qarag'ay.

Qisib otning qolg'asin
Chekib 2 otim nos,
Yo'l boshiga borib kelar
Bobo yigitlarga xos.

So'ng kesatib kampiriga
Hazil qilar: — Hoy, garang,
Arsloning qaytguncha ham
Pishmadimi ch3varang?

Bizning Nor



QO'RQQANGA QO'SHA KO'RINAR

Kech kirib, ko'kda hali
 Oy kezmagan pallada,
 Norni kuchuk quvlabdi
 Sukut to'la dalada.

Yetib olsa tishlaydi
 Degan xayolga borib,
 Chopibdi Nor bechora
 Oyog'in qo'lga olib.

Ortda qolibdi dala,
 Ortda qolibdi ariq.
 Toshko'chaga yetganda
 Toyib ketibdi qattiq...

Ko'zin ochib qarasa,
 Yuragi urib duk-duk,
 O'zin Laychasi emish
 O'sha... quvlagan kuchuk.

AKSIGA OLIB...

Muzqaymog'in tutar Esh
Teng yarmisi senga deb.
Nor bo'lsa lunjin silar
Teskari qarab hadeb.

— Qo'y, zo'rlama, jo'ra, — der.
— Muzqaymoqqa yo'q hushim,
Aftiga ham boqmayman...
Tuzalmaguncha tishim.

NORNING QO'SHNILAR BILAN TANISHGANI

Yangi qo'shnimiz bilan
Tanishib chiqdim, oyi.
Meni ko'rib ochildi
Qizchasining chiroyi.

Ismimi,
eh, ismini
So'ramabman-ku qarang.
Ezma ekan o'ziyam
Gapin tugatdi arang.

Xo'sh, unda nimalarni
Gplashdinglar deysizmi?
...O'n beshta qo'g'irchog'i
Bor ekan o'sha qizning!

NORNING MAKTABDAN KECHGA QOLGANI

Ishiga jo'nayturib,
Opam menga «Tur!» depti.
O'rtoqlarim ko'chadan
«Yur, maktabga, yur» depti.

Xo‘rozimning tomog‘i
Xirqirar edi sal-pal.
Tongda «qu-qu»layverib,
Bo‘lib qolibdi kasal.

Yo‘q, bu bahona emas,
Sizga aytsam, chin so‘zim.
Dakanim emas, bu gal
Uxlab qolibman o‘zim.

NORNING FUTBOL O‘YNAGANI

— To‘pni tepyapman,
Hushyor bo‘l, O‘tkir.
Azamat, darhol
Oldinga Yugur.

Hujumda senga
Nima bor, Uzoq.
Bir kor-hol bo‘lmay
Ortga qayt tezroq.

Qoqqan qoziqday
Turavermasdan,
Jonne koyitib
O‘yna-da, Hasan!

Qani tep!
Ko‘zing,
Qayoqda, Kamol?
Qachon urasan
Bunaqada gol?

O‘ynang, bolalar,
Bo‘linglar botir.
Aslo olmanglar
Menden xavotir...

To‘p o‘tkazvorib
Bir emas, o‘n bor,
Tinmay javrardi
Darvozabon Nor...

NORNING ALLASI

Alla aytar Nor:
— Uxlay qol, Qo'chqor.
Multfilmlarga
Hali ancha bor,
Obbo', obbo', obbo'.

Alla aytar Nor
Qo'yib televizor:
— Uxlamasang ham,
Jim bo'l, jon, Qo'chqor,
Obbo'! obbo'! obbo'!

BOR-YO'G'I...

— Buncha yangi botinkang?
— Olib berdimi akang? —
Shunday deya bolalar
Normi o'rtaga olar.

Ochig'ini aytsa Nor
Yozda ko'rishgandek qor,
Yoqa ushlab daf atan,
— Yo'g'-e!!! — der hamma birdan.

Nor eski botinkasin
Qoqib-artib chang-chungin,
Mohir ustalarga xos,
Moylagan ekan, xolos.

NORNING O'ZI BILAN O'ZI GAPLASHGANI

— Fe'lim senga yaxshi ma'lum
Yoqtirmayman hazilni.
Gaping bo'lsa, tezroq gapir
Tortqilamay kamzulni.

Sen, Sotimsan, Sotimliging
Turibdi, ha, bilinib.
O‘z-o‘ziga shunday der Nor
Egni shoxga ilinib...

NORNING MEHRIBONLIGI

Chana tortib ko‘chadan
Dir-dir titrab keldi Nor.
Ukam isisin, deya
Pechkani yoqdi Dildor.

Eshikni ochib qo‘ydi
Nor o‘zin sezib bardam.
So‘ng opasiga dedi:
— Isib olsin ko‘cha ham.

NORNING METRO POYEZDIGA YOZGAN SHE’RI

Menga yoqar bag‘ringning
Tozaligi, kengligi.
So‘zing bilan ishingning
Bir xilligi — tengligi.

Qani endi tramvay,
Trolleybus ining ham,
O‘rnak olishib sendan
Yursalar doim ildam.

Odat qilsalar yana
Vaqtga qarab yelishni.
Bekatlarga «noz qilmay»,
O‘z paytida kelishni.

NORNING YON DAFTARCHA SOTIB OLGANI

Do'konchadan sotvoldim
Men seni ancha so'mga.
Keyin ichi kuysin deb
Ko'z-ko'z qildim Gulsunga.

Yonimda bo'lsang hech vaqt
Sichqon qirqmas chetlaring.
Qiziq-qiziq she'rlarga
To'lib borar betlaring.

NORNING MAQTANISHI

— Bilim manbayi bo'lmish
Kitoblar jonusu tanim.
Qadrlamas negadir
Ularni Xolmat, Karim.

Do'stlariga shunday deb
Nor maqtanib gap sotar.
To'rtta kitobi bo'lsa,
Tomda chang bosib yotar.

Shoir dadam haqida she'riy hikoyalar



DADAMNING QALBI

Armon uyasimish dadamning qalbi. Dadamning qalbida kularmish sevinch. Dadamning qalbida ummon bor emish. Bor emish dadamning qalbida ilinj. Yozgan uch-to'rt she'ri dadam qalbining topgan quvonchi-yu, ozori emish. Dadamning yuragi dunyo ko'rмаган sonsiz fikrlarning mozori emish...

DADAMNING FIKRI

Bazmga borsa bas, dadam har safar, uyga qaytar minib jahl otiga: — Onasi, ko'nglingga olma-yu ba'zan, hech qoyil qolmayman ayol zotiga. To'yni xo'p qizdirdi bugun ham biri, ajratolmay qoldim men mastmi, u mast. Qiliqlari degin biram beo 'xshov, o'ynab o'ynamaydi, sakrab sakramas. Yoshi ham o'n beshda bo'lsa keragov.

Qayerdan bildingiz deysanmi buni? Uchrashuv o'tkazgan qay bir maktabda ko'rgandek bo'luvdim qaysi bir kuni. Bunaqa xonaki «san'atkor»larda imon doim qahat, andisha qahat. Ularning ko'ziga boqib o'qiymen azaldan birgina «pul» so'zin faqat. Yozib bo'larkanmi ko'zlarga yozuv? Dadam zo'r lofchi-da, degan bir o'yda, «Lazgi»ga eshilib raqs tushayotgan ikki o'yinchini kuzatdim to'yda. O'yinin kuzatdim orqa, oldidan, uzoqdan, yaqindan, xullasi, rosa. Ko'zlariga tikib sinchkov ko'zlarim, nihoyat chiqardim shunday xulosa. «Pul» degan yozuvni o'qimasam-da, biroz to'g'ri chiqди dadamning so'zi. Odamga g'alati qararkan ular, boshqacha kulkarkan ularning ko'zi...

ARI

Devor buzdik dadam ikkimiz. Necha fasl yog'ib yomg'ir, qor, necha daf'a qolib qarovsiz, nurab, cho'kib qolgandi devor. O'sha, devor buzgan kunimiz havo salqin, g'oyat tund edi. Ustki paxsa qulagach, dadam: — O'g'lim, qara, arilar,— dedi. So'nayotgan gulxan cho'g'larin sochgandayin shamol har tomon, ini shikast topgan arilar uchishardi vizillab nolon.— Ehtiyyot bo'l! — dedi-yu dadam, uyg'a chopdi to'xtatib ishin. Ammo sanchib ulgurgan edi tirsagimga bir ari nishin. Ko'kda qovoq uygan bulutlar shu payt sovuq tomchi tashlashdi. Nazarimda uysiz arilar xuddi mendek «yig'lay boshlashdi». Goh devorni, goh inlarini timirskilab, (ehtimol quchib), alamzada arilar oxir qaylargadir ketdilar uchib... Oson kechdi keyin ishimiz. Og'rigni ham unutdim tamom. Jazosini olgan aridek, «taslim» bo'ldi devor batamom. Ish tugarkan kamzulin yechib, taskin bergan bo'ldilar dadam: — Talanganman sendekligimda bundan katta arilarga ham. Dadam yana allanelar deb, surar ekan inni nariga, meni jonim og'riy boshlashdi qo'lim chaqib o'lgan ariga...

SUPACHA

Azim tuti bo 'lgan bu uyning ko 'chaga qaragan betida, odamlar-la doim serqatnov yo 'lakchaning shundoq chetida, bo 'lar ekan mo 'jaz supacha. Unga sholcha, ko 'rpacha solib, ammajonim o 'tirarkanlar salomlarga aliklar olib. Cho 'kkalarkan dadam ham ba 'zan, (ko 'proq ishdan uyga qaytgan dam) bolalarining og 'zi tegsin, deb, — tut tutarkan so 'rashib ammam. Hayot hayot ekan-da qarang, ammamiz ham fursati yetib, o 'tibdilar yorug ' dunyodan urug 'larin dilin yosh etib. Uchida ham, yettisida ham, qirqida ham, hatto yilida supachaga o 'tirib dadam duolar o 'qibdi dilida. Qaysi bir kun razm solsalar devor yoni emish tep-tekis. Odamlar ham sezmasmish ajab, supachadan qolmagan-mish iz. Bir necha kun faromush bo 'lib, joy topolmay qo 'yarga o 'zin, tillaridan qo 'ymadi dadam «fosiq» so 'zin, «supacha» so 'zin.

Fosiqlik ham asli g 'am ekan. Tashrifî tez ekan bu g 'amning. O'z bolasi buzib tashlabdi supachasin Oygul ammamning!

DADAMNING HAZILI

Mehmon kelib qolishin ta 'kidlab dadam, jo 'nab ketdi ishiga shoshib subhidam. Birozdan so 'ng opam ham tushdilar yo 'lga: — U bu narsa olarman, ilinsa qo 'lga. Barno dedi peshbandin egniga tutib: — Bu ahvolda mehmonni bo 'lmaydi kutib. Hovliga bir qaranglar, uyga bir qarang. Alg 'ov-dalg 'ov hammayoq, hammayoq kir, chang.

Yulduzzon, sen ayvonni polin artib chiq. Obdastaga suv to 'ldir, hozirla sochiq. O 'tinlardan qalab qo 'y, tandirga, Omon. Xamir oshsa, yopamiz hademayin non. Qo 'ylaringga, Bahodir, qarab tur, qarab. Uyaltirib qo 'ymasin basma-bas ma 'rab...

Xullas, uyga qaytguncha opam va dadam, yumush-larni bitkazib, bo 'ldik xotirjam. Bu orada o 'n quloch

yerni ham chopdik. Oshxonani oqlashga fursat, vaqt topdik. Katta uyga yozdik so'ng katta dasturxon. Biroq kelavermadni biz kutgan mehmon. Hayron edik bu holga, topolmasdik so'z. Quvontira olmasdi dasturxon ham ko'z. Uyga boshlab kiraman mehmonni shodon, deya chiqdi ko'chaga ikki bor Omon. Qahqah otib, kulvorib dadamlar nogoh, hamma «sir»dan bizlarni etdilar ogoh:

— Bilgim keldi judayam qodirsiz nega. Qolmas ekan sevindim, uyim beega. Yolg'onimni sirayam olmanglar og'ir. Rahmat, Yulduz — oy qizim, rahmat, Bahodir. Qani oshga qaranglar, o'tirmanglar jim. Bugun «mehmon» o'zimman, BOLAJONLARIM.

DADAMNING SHE'RLARI

KO'KLAM

(Abdulla Oripovga)

Quyosh ko'kda ko'proq kulsam der,
Qorlar erir tog'lar boshidan.
Qayta-qayta yuzin yuvar Yer
Bulutlarning to'kkan yoshidan.

Ne tong, dilda uyg'onsa ash'or,
Sururlarga to'lsa she'rimiz.
Bizni yo'qlab kelmagay Bahor,
Tug'ib berar uni Yerimiz...

QISH ERTAGI

Yaxlagan tog'larga oyog'i tegib,
«Uv» tortib yuborar sovqotgan shamol.
Uch-to'rtta shoxini tebratib, egib,
Hazin hushtak chalar qari majnuntol.

Qor bosgan chorboqqa deraza osha
Tikilib zerikmas tuvakdag'i gul.

Oqshom cho'kkunicha o'ylarga tolar,
Oqshom cho'kkunicha xo'rsinar nuql.

O'ylari tushlarga ulanar uning
Tushlarini bezar qushlar, oltin yoz.
Oynaga gul rasmin chizar bu mahal
Haqiqiy bahorni ko'rmagan ayo...

UMID HAQIDA SHE'R

Farzandi yo'q Mehri opaning
Ko'zidan yosh tirqirab ketdi.
Farzandi yo'q Mehri opaning
Yuraklari zirqirab ketdi.

Farzandi yo'q Mehri opaning
Tili kelmas kalomga, so'zga,
Farzandi yo'q Mehri opaning
Bor vujudi aylandi ko'zga.

Farzandi yo'q Mehri opaning
Umid yana ko'ksin etli tog' —
Qisir deya yurgan sigiri
Tug'ib berdi munchoqdek buzoq...

«ISTE'DOD» MASHG'ULOTIDA YOZILGAN SHE'R

(*Muhammad Yusuf yo'lidida*)

Buncha gumroh bo'lmasam-a, buncha gumroh,
Eh deyinmi, oh deyinmi yoki e voh!
O'zim bilmay qilibman men «katta» gunoh,
Oysarani yig'latibman, Oysarani.

Samarqandning sevinchi bor ko'zlarida,
Yulduzlarning islari bor so'zlarida,
Pushti gullar unar qalbin bo'zlarida,
Oysarani yig'latibman, Oysarani.

She'r nimadir? She'r — ko'ngildir, she'r — yoriltosh,
She'r — sehrdir, she'r — mehrdir, she'r — qalamqosh,
She'rlaringiz bo'lmaydi deb men bag'ritosh,
Oysarani yig'latibman, Oysarani.

Yig'layotgan qizlar bo'lar bir kun asal,
Yig'layotgan qizlar bo'lar bir kun go'zal,
Asal, go'zal qizlar bo'lar bir kun g'azal,
Oysarani yig'latibman, Oysarani...

ONA

Har ikki so'zingizning bittasi edi «bolam»,
Har ikki so'zingizning bittasi edi «jonim».
Necha yillar o'tsa ham, ko'zlarimdan ketmas nam,
Diydori qiyomatga qolganim — onajonim.

Sahardan shomlargacha paxtalar tergan onam,
Kechalari uyqusi necha buzilgan onam.
O'g'ilu qizlariga kuchini bergen onam,
Joynamozning ustida joni uzilgan onam.

Tush ko'ribman, tushimda sochingiz tararmishsiz,
Derazadan ko'chaga qararmishsiz damo-dam.
Boisini so'rasam, dadamlar dedi yig'lab:
«Bugun tug'ilgan kuni onajoningni, bolam...»

Bir qishloq bolatari



BEDANA QO'SHIG'I

*«Bedananing uyi yo'q,
Qayga borsa bitbildiq».
(O'zbek xalq maqoli)*

*«Bedananing uyi yo'q,
Qayga borsa bitbildiq».
Qiltuzoqqa ilinib,
Mana biz «uy»li bo'ldik.*

*Topgan qasrim misoli —
Quv ovchining kallasi —
Usti dag'al to'rparda,
Osti qovoq pallasi.*

*Don, suv, ushoq bor bunda,
Qorin tarang, doim to'q.*

Bunda bor qanot qoqish,
Ammo parvoz qilish yo'q.

Sayrash, o'y lash, yig'lashga
Topilar bunda imkon.
Bor bunda dumaloq erk,
Shunga yarasha osmon...

«Bedananing uyi yo'q,
Qayga borsa bitbildiq».
Qiltuzoqqa ilinib,
Mana biz «uy»li bo'ldik.

Sayramasam, so'yishar,
Sayrasam, og'rir jonim.
Ko'zim tikib tolmayman
Endi senga, osmonim!

BIRINCHI IYUN

— Bilag'on deb atashar
Do'stlaring seni, Suyun.
Top-chi, qanday kun o'zi
Deylik, birinchi iyun?

— Nahotki xabaring yo'q,
Nahot bilmaysan shuni,
Birinchi iyun, jo'ra,
YOZNING TUG'ILGAN KUNI!

AJOYIB KUN

Kecha mактабимизга
Shoirlar kelib,
She'rlaridan o'qishib
Berishdi ancha.
Kelajakka to'xtashdi,
O'tmish eslandi,

Yaxshi gaplar aytildi
Qanchadan qancha.

Shoirlarning she'rlari
Ajoyib ekan,
Yig'ilganlar tinglashdi
Maroq bilan jim.
Menga yana yoqqani
Kuy-qo'shiq bo'ldi,
Yuragimni yashnatdi
Badiiy qism:

Savol-javob tugagach,
She'rxonlik tingach,
Sozchilar soz chalgan chog'
Ko'nglimiz xushlab,
Gulloolaning oldiga
Asta bordim-da,
Raqsga tortdim xinali
Qo'lidan ushlab...

MUXLIS

(*Hurmat bilan Anvar akaga*)

Polosoniy she'rlarini
Xo'p yoqtirar Mirjalol.
Polosoniy she'rlarini
Ko'p yoqtirar Mirjalol.

Ro'znomalar chop etganin
Olib qo'yar bittalab.
Ko'zlarida quvonch kular
U haqida ketsa gap.

Yoddan bilar «Bezori»sin,
Yoddan bilar «Diqqat»in.

Tovuqoyning kuzak payti
O'rdakka yozgan xatin.

Sichqonlarning yetim qolib
Ko'zi yoshga to'lganin.
Yosh, tirishqoq xo'rozchaning
Zo'r bilimdon bo'lganin.

Do'stlariga o'qib berib,
Fursatini topgan on,
Yurak to'la orzularin
Mirjalol aylar bayon:

— Yana olti yildan keyin
O'n yettiga to'laman.
Polosoni akamdayin
Men ham shoir bo'laman.

Sababi, (bu so'zlarimni
Aytmagandim hech kimga)
Shoirimning burni ko'proq
O'xshar mening burnimga!

YARASHUV

Nihoyat yangalarim
Erta tongda yarashdi.
«Siz»lashib bir-biriga
Yana kulib qarashdi.

«Mendan o'tdi, kennoyi», —
Dedi kichik yangamlar.
«Yo'q, siz meni kechiring», —
Dedi katta yangamlar.

Baqir-chaqir o'rnini
Oldi tabassum, kulgu.
«Son kirdi» hovlimizga
Tegib supurgi-yu, suv.

Uydagи gap ko'chadan
Qaytmas bo'ldи kiyib «to'n».
Endi lutflar boshqacha,
Endi bari oddiy, jo'n.

Qozon-tovoq, kiyim-bosh
Yotmas kir-chir, sochilib.
Hatto jiyanlarim ham
So'zlashdilar ochilib.

O'zida yo'q shodlanib
Bidirlar jajji Charos:
— Endi hecham urush-urush
O'ynamanglar il-ti-mos!

BEHUDA XAVOTIRLIK

Arqonini uzib qochgan
Buzoqchasin ko'rsatib,
Govmishoyga Olako'z der:
— Bolang buncha betartib?

Tergab tursang bo'lmaydimi,
Har kuni shunday ahvol.
Katta yo'lda toychoqdayin
Chopadi-ya bemalol.

O't chimdishdan picha to'xtab
Govmishoy der muloyim:
— Qayerlarda yursa ham u,
Omon bo'lsin iloyim.

Bir-ikkita achchiq-tiziq
Gap aytgandim Olamga,
Bolam dedi: — Buzoqlar ham
Bir bor kelar olamga.

Endi uncha kichikmasman
(Arqon bundan nishona).

Shoxko‘chaga yotvolsam ham
Xavotir olmang, ona.

Shundan buyon so‘ramayman
Qayda, qanday yurar u.
Ming shukrki, adashmasdan
Uyni topib kelar u.

Tashvishlaring behudadir,
Sen ham mendek keng fe'l bo'l.
Buzoqchamga moshinlar ham
Berisharmish hatto yo'l...

YOZ MO‘JIZASI

Tushmasin desang
Ko‘rpaga kuya,
Qurmasin desang
O‘rgimchak uya.

Kun tandirdayin
Qizigan mahal,
Yoygin ularni
Oftobga, Asal.

Shunday degandi
Buvim tunov kun.
Ish boshladilar
Oyimlar bugun.

Berdim ularga
Erinmay yordam.
Hovliga chiqib
«Semirdi» ko‘rpam.

Kun kulgach, atrof
Ziyoga to‘ldi.
Yostiqlarim ham
Nurda «cho‘mildi».

Oyimlar yuvib —
Bo'lgach talay kir,
Yoyganlarimiz
Yig'dik birma-bir.

Shoshmay kiydirib
Toza jildlarin,
Taxmonga yana
Joyladik barin.

Xo'sh, nima bo'pti
Deb surarsiz o'y?
Hamma mo'jiza
Oqshom berdi ro'y.

Osmon seryulduz
Garchi tun edi.
Kelardi uydan...
QUYOSHning hidi!

TO'RTKO'ZIM

Kim o'zarga yugursak,
Havas-la qarar bizga.
Keyin qattiq vovullab
Qo'shilar safimizga.

Na chirnar, na shoshar,
Na olar og'ir nafas.
Yetib borar marraga
Oradan o'tmay birpas.

Yolg'ondakam baqirib,
Quvalasa Nor aka,
Itim tilin ko'rsatib,
Qilar bizni kalaka...

BIR QISHLOQ BOLALARI

Nor Xolmatni «qo'y» dedi,
Xolmat Norni dedi «kal».
Hazil hazil bilan bo'p
Boshlanib ketdi janjal.

Ikki o'rtoq — ikki yov
Olishmoqchi bo'ldilar.
Do'pposlashib, mushtlashib
Solishmoqchi bo'ldilar.

Sinfboshi Bahodir,
Botiru Habib, Hamdam
Yovlashsangiz, do'stlikdan
Voz kechamiz, desa ham,

Ikki «polvon», «pahlavon»,
Ikki o'rtoq — «kal» va «qo'y»
Bir-biriga o'grayib
Sira berishmasdi bo'y.

— To'xtang! — dedi shu fursat
Esh o'midan turib dast. —
Mayli, siz baland bo'ling,
Mayli, biz bo'laylik past.

Dadamlar derdilarki,
Ko'zyoshi bo'lar taxir.
«Qahramon» bo'lish oson,
Nomusli bo'lmoq og'ir.

Niyozbosh degan yurtning
Gulimiz, lolasimiz,
Unutmanglar, biz axir
Bir qishloq bolasimiz,
Bir qishloq bolasimiz...

G'ALATI SHART

- Bozorga ketyapman, — deb
Yo'lga otlanganim chog‘,
Buvim tayinladilar:
— Ola kelgin ko‘zmunchoq.
- To‘xta, picha shoshmay tur! —
Yengimdan tortar akam. —
Gul qarab ko‘r, ertaga
Sakkizinchı mart — bayram!
- Uydan, hovli tarafdan
Yangrar shu tob xitoblar:
 - Menga igna,
 - Menga to‘p!
 - Menga daftar, kitoblar!
- Bo‘pti! — deb eshik sari
Qo‘yar ekanman qadam,
«Tilga kirar» «tishlarin»
G‘ichirlatib botinkam:
- Quloq tutib, xo‘p deding
Iltimoslaru zorga,
Qoramoy obermasang,
Men... bormayman bozorga!

DO‘PPI

Nasrulloning do‘ppisining
Bahosi besh yuz emish,
Dadajoni olib kepti
Chustdan, atay tunov kun.
Kizagini rostlar ekan,
Imo qilib boshimga,
Dedi: — Iching yonib, mendan
Ranjib yurmagin, Uchqun.

Meni bo'lsa, kulgim qistar
(Xafa bo'lish qayoqda)
Kiyingan u, yasangan u,
Axir nega chekay g'am?
Yangisidan kam joyi yo'q
Boshimdag'i do'ppimning
Chunki uni onam tikkan,
Onam, rahmatli onam...

OLQISHLAR

— Ustalarga ming-ming rahmat! —
Quvonar jajji Soli. —
Bir kundayoq bitdi-qoldi
Ayvonomizning poli!

Sichqonlar ham shod chiyillar,
Jo'shar dilda ilhom:
— Bir kundayoq bitdi, do'stlar,
Ayvonomizning... tomi!

YOZ YOMG'IRI

Yomg'irga do'ngan bulut,
Boshimga qo'ngan bulut.
Yozning yozligi senga
Nahotki bo'ldi unut?

Chaqmoq chaqib, g'o'ldirab
Qilaverma to'polon.
Kuzning kelayotgani
Bizga shundoq ham ayon...

«BECHORA» TOVUQ

Shoshmay, ishtaha bilan
Bodrog'in chaynab O'nar,
— He, attang, tovug'imning
Tishi yo'q, — deb o'kinar.

— Tishi bo‘lganda bormi,
Makkani yutmay shartta,
Bilib olgan bo‘lardi
Mazasin ham albattra!

TO‘PTOSH

(*O‘yin she‘r*)

«To‘ptosh» degan she‘r yozib
Soylar toshgan mahali,
Jo‘natgandi Toshkentga
Toshqishloqlik Toshali.

O‘sha mashqi gazetda
Qay bir kun chiqib ketib,
Yurgan emish muxlislari
Ko‘ngillarin shod etib.

Mashhur bo‘lib ketdi, eh,
Toshali ham birpasda.
«O‘qidik... qoyil!» degan
Xat olar dasta-dasta.

«Boshginang toshdan bo‘lsin»,
Deb yozar Toshboy bobo.
«Ammo jonzot-qushlarga
Tosh ota ko‘rma aslo».

«To‘ptosh»ni birlashib
O‘qidik debdi Toshxon,
Toshbibiyyu Toshbuvi,
Toshbodom, Toshbu, Toshon.

Manzur bo‘ldi bizlarga
Yasha, balli, Toshali.
Ishonamizki shoir —
Bo‘lib ketasan hali.

Bu dunyoda bisyordir
(O'zing ham bilsang kerak)
So'zi zahar — toshyorar,
Toshbag'iru toshyurak.

O'shalar haqida ham
Yozishni unutmagan.
Senga omadlar tilab,
Toshloqlik opalaring».

Toshovuldan kelgan xat
Ekan o'n olti qog'oz.
Tosalivoy o'qidi
Uni chiqarib ovoz:

«...To'ptoshingni yozibsan
Anchagina qunt bilan.
Lekin bitta o'rinda
Picha yanglishibsan san.

Toshhovuzning yonida
Botay deganda quyosh,
Yaxshi bilib qo'yginki,
O'ynab bo'lmaydi to'ptosh...

Toshdek qattiq qovoqni
Ko'pdan derlar toshqovoq.
Boshqa-boshqa narsadir
Fonus bilan toshchiroq.

Yanglishadi hamma ham
Ko'p qirilmasin iching.
Omon bo'l deb doimo
Qirq uch nafar muxlising:

Toshbolta, Toshbon, Toshqul,
Toshqori va Toshlonqul,

Toshim, Toshli, Toshbotir,
Toshmir hamda Toshtemir.

Toshbo'ri-yu, Toshtilla,
Toshdavlat, Toshmatilla,
Toshkanboy, Toshqin, Toshxol,
Toshbo'l, Toshkarim, Toshqol,

Toshoxun, Toshman, Toshtoy,
Toshmurodvoy, Toshlonboy,
Toshniyoz, Mirzatoshmat,
Toshqo'zibek, Toshquvvat,

Toshtobon, Toshmuhammad,
Toshmarqajon, Toshpo'lat,
Toshtursunu Toshoshar,
Toshmuqimjon, Toshnazar,

Toshg'ulom, Nurtosh, Boytosh,
Sangirtosh, Saltosh, Oytosh».

...«Toshko'mir sotib olib
Bo'ldim rosayam xafa», —
Deb boshlabdi o'z xatin
Oqtoshlik Buvtosh opa.

«Toshxo'ja keltirgandi
Uni kecha kechqurun,
Toshloq yerdan yurganmi,
Ko'mirning yarmi kukun...

Haydovchi bo'lsang bir kun
Bolam, sira toshmagin.
Tashisang ko'mir-po'mir,
Toshbaqaday shoshmagin».

Toshquduqlik qizlarning
Xatlari soz ekan xo'p:

«She'ringizni, Toshaka,
O'qidik bo'lishib to'p.

Siz yozgandek kun ora
Toshoyna olib qo'lga,
Qoshga o'sma tortyapmiz
Qarab goh o'ng, goh so'lga.

To'ptoshni-ku azaldan
Qo'limizdan qo'yamaymiz.
Toshgul, Nortosh bir bo'lib
Zerikmasdan o'ynaymiz.

Qo'shiladi ba'zida
Bizga Toshqiz, Toshjamol.
Qo'shiq aytib Toshkumush
Hammamizni etar lol.

Salom yo'llar, darvoqe,
Sizga Xoltosh, Jo'ratosh,
Bo'ritoshu, To'ratosh,
Eshtosh, Shahritosh, Chintosh.

Ushbu maktubimizga
Jo'natsangiz javob xat,
Dugonamiz Toshoysa
Qo'shib yuboring surat.

U she'riyat shaydosi,
Bosh ko'tarmas g'azaldan.
Shoirlarning rasmini
Yig'ib yurar azaldan...»

...«To'ptosh» degan she'r yozib,
Soylar toshgan mahali,
Mashhur bo'lib ketdi, eh,
Toshqishloqlik Toshali.

Maqtovlarning cheki yo‘q,
Qutlovlar dasta-dasta.
O‘qib chiqaman devdi
Nomalarни birpasda.

Qayda, toshyong‘oq pishib,
Ochguncha toshko‘sak yuz,
O‘qiyverdi Toshali
Ularni kecha-kunduz.

O‘qiyverdi qish kelib
Tosh qotguncha dala, yer.
Yozolmadi keyin u
«To‘ptosh» kabi durust she’r...

•O‘CH•

Semiz bo‘lsam ayb mendami?
Uyatmi to‘la bo‘lish?
Ishtaham zo‘r bo‘lsa netay,
Nahotki kerak o‘lish?

Akam meni masxaralab,
Kulishini qo‘ymaydi.
Kula-kula faqat o‘zin
Huzurini o‘playdi.

«Shkaf» bo‘lsa bir kun nomim,
Bir kun ismim «Bo‘g‘irsoq».
(O‘z ukasin ranjitishga
Haddi sig‘arkin qandoq?)

Akamning bu so‘zlaridan
Rosti, rosa to‘yaman.
...Alam qilsin deb ovqatin
Bildirmay... yeb qo‘yaman!

YONG‘OQXO‘R

— Bilasanmi nimaga
Miyaga o‘xshar yong‘oq? —
Shunday deya o‘rtog‘in
Boshin qotirar Uzoq.

— Yong‘oq — bu aql, zehn,
Yong‘oq — bu kuchu qudrat.
Shuning uchun har sahar
Men yong‘oq yeymen faqat.

...Har kun yong‘oq yesa ham
Uzoq qo‘l urmas ishga.
Aqli yetmas loaqlal
Bir tup yong‘oq ekishga!

QUYON

O‘rtoqlarim ismimni
Ziyrak Quyon, deydilar.
Bo‘ri yurgan yo‘llarda
Ko‘zi giryon deydilar?

Bo‘ridan-ku qo‘rqmayman
Afti uning tasqara.
Qachon ko‘rsam, hammaga
Bo‘lib yurar masxara.

O‘sha Bo‘ri o‘zini
Chopag‘on deb o‘ylaydi.
Menga: «Senmi, shoshmay tur!»
Deyishini qo‘ymaydi.

TABIAT ALIFBOSI

Qulupnay, tut va gilos —
Bu bahor sernoz.
Qovun-tarvuz, handalak —
Oltin yoz, demak.

Ko'sak «gullab», anorga
Kirsa qirmiz tus,
Yetib kelgan bo'ladi
O'lkamizga kuz.

Boshlansa sharbat, qiyom,
Tuzlama ochish,
Bilaverki, qor yog'ar —
Bu degani, qish...

MUSHUK BOLASI

Boqamiz deb qo'shnimizdan
Olib chiqdik mushuk bola.
Musichadan sal kattaroq,
Qulog'i oq, dumi qora.

Qo'limizdan sira qo'y may,
Tezroq katta bo'l, dedik biz.
Oyimizga bildirmasdan
Unga faqat go'sht berdik biz.

Bilgan ishi — «miyov-miyov»
Tinmay dodlar tushlik mahal.
Na non yeydi, na sut ichar,
Qiyma ber, deb qilar janjal...

A'ZAMJON

— Yaqin ko'chalar qolib
Qayerlardan kelyapsan?
It quvgandek ortingdan
Dam olmasdan yelyapsan?

Shunaqa qilaversang,
Oyoqlaring toladi.
Velosipeding ham tez
Ishdan chiqib qoladi.

Dadasin gaplariga
Parvo qilmas A'zamjon.
Yana ko'chaga shoshar
Apil-tapil chaynab non:

— Velosipedim yangi,
Uning g'amin yeyapman.
Eskirib qolgunicha
Minib olay deyapman...

O'ROZ

Ikki yashar ukam O'roz
Har kuni yer to'rtta xo'roz!
Sal kamiga ko'nmaydi hech,
Keltirtirar bo'lsa ham kech.

Bitta qo'y may yeydi barin,
Xo'rozlari xushta'm, shirin.
Har kungisin rangi har xil:
Bir kun qizil, bir kun yashil.

Kunda yesa to'rtta xo'roz,
Mesh ekan-da, dersiz O'roz?
E qayoqda, ukam nimjon,
Na bahodir va na polvon.

O‘yin bilan doim banddir,
Xo‘rozlari — xo‘rozqanddir.

SHUHRATJONNING TOVUG‘I

Shuhratjonning tovug‘i qiziq:
Qorni ochsa zir-zir chopadi.
Hech vaqo yo‘q — yalang yerdan ham
Yegulik nimadir topadi.

Shuhratjonning tovug‘i qiziq:
Fe'l-atvori bir o‘ziga xos —
Ba‘zan qorni och bo‘lmasa ham
Tuxumini yeb qo‘yar paqqos!

YOZ TUNI

O‘ynab-o‘ynab gulbog‘da
Lolaxon horib-toldi.
Ovqatin ham yemasdan
Birpasda uxbab qoldi.

Aytgan gapi shu bo‘ldi,
Tongda ochgach ko‘zini:
— Uyquga hech to‘ymadim,
Buncha qisqa yoz tuni?

Qay oqshom Lolaxonning
Rosa og‘ridi ko‘zi.
Na oyisin uxlatdi
Va na uxladi o‘zi.

Mija qoqmay, «voy-voy»lab
Yuraklarni qildi xun:
— Tezroq ota qol, ey, tong,
Yoz tuni... buncha uzun?

«GAZITXON»

— Sobirimning qo'lidan
Gazit tushmas erta-kech.
Ba'zilardek vaqtini
Bekorga o'tkazmas hech.

Oyxola nabirasin
Maqtar ekan tinmasdan,
— Gapingiz rost, buvijon, —
Deb kulib qo'yar Hasan.

U bilar, o'rtog'ida
Borligin qanday odat —
Ko'rsatuylar tartibin
O'qir Sobirvoy faqat.

NOZIKOYIM

Nozikoyim nozik xo'p,
Tegib ketsa hamki to'p,
O'n to'rt soat irillar,
Ko'rib ko'ngil zirillar.

Maktabdan kelsam qaytib,
Eski qo'shig'in aytib,
Nozikkina nozikcha
Yig'labdi yana ancha.

Oppog'im deb ovutdim
Silab mushtdek boshini.
Dastro'molchaga artdim
Qolgan-qutgan yoshini.

— Ne bo'ldi? — deb so'rasam,
Peshonasin bosdi ter.
— Pufak bilan opacham,
Meni rosa urdi! — der.

ABADIY MASHMASHA

Yana o'sha mashmasha:
Mushukni quvlar kuchuk.
Har galgidek yetolmay,
Irillay boshlar xunuk.

Mushukvoy bu safar ham
Yo'l tutar maymunga xos —
Ora kirar joniga
Hovlida o'sgan gilos.

Shovqindan zada qo'ylar
Kuchukka tashlashar gap:
— Chiqolmasang daraxtga
Nima qilasan quvlab...

MEHMONDORCHILIKDA

Mehmon-mehmon o'ynadik,
Dilnoza bilan.
Mezbon bo'ldi Dilnoza,
men esa mehmon.
Divanlari bor uyga
kirib oldik-da,
To'ygunimizcha yedik
suzma, bodring, non.

Qandu murabbo solib
choy ichdik keyin,
Ko'rpachalar choy ichdi,
choy ichdi gilam.
O'yinimiz rosayam
qizigan mahal,
«Voy, sho'rim!», deb bizlarni
koyidi xolam...

KIM URISHDI

— Kim urishdi, kim urishdi?
Yuzu ko'zing, ayt, nega qon? —
Deya so'rar Sobirjondan
Buvijoni bo'lib hayron.

— Qon emas, — der Sobir polvon
Supachaga to'shab sholcha.
So'ng qo'yniga qo'lin solib,
Buvisiga tutar... olcha!

OCHOFAT

Orni bilmas ko'zi och,
Ko'zi ochdan nari qoch.
U bilan borsang «gap»ga,
To'y yoki ziyofatga,
Uyatni sira bilmay,
To'ldirat og'zin tinmay!

KAMALAK

Yetti qalam, yetti rang,
Yetti ohang kamalak.
Qayerlarda yuribsan,
Quyosh — sochi jamalak?

Qalamlarining topildi,
Bulut — qog'oz ham tayyor.
San'atingdan bahramand
Bo'laylik bizlar bir bor.

Qalamdonni qo'ya tur,
Kel, quyoshjon, tezroq kel.
Rasm chizib ber bizga,
O'chirg'iching bo'lar yel.

...Million yilki ahvol shu,
Yerliklar kutib tolar.
Qalamlar bor paytda
Quyosh «yo'qolib qolar!»

DANGASAVOY

To'yib-to'yib uxlaydi,
To'yib-to'yib ko'rар tush.
To'yib-to'yib esnashni
Dangasavoy ko'rар xush.

To'yib-to'yib dam olar,
To'yib yeidi muzqaymoq.
To'yib-to'yib ichar choy,
To'yib yalar bol, qaymoq.

Vaqt topar, to'yib-to'yib
Kavshashga nonu ovqat.
To'yib-to'yib ishlashga
Dangasada yo'q toqat!

NONOVQAT

Qolgan-qutgan nonlarni
Choyiga to'g'rab bir-bir,
Oyisiga nonovqat
Tayyorladim, der O'tkir.

Nonovqatu nonovqat,
Kuch-quvvatga kon ovqat.
Ammo uni yeyishga
O'tkir shoshilmas faqat.

So'rab qo'ymas onasi:
— Ovqating yeysan qachon?
— Endi unga to'rt qoshiq,
Shakar kerak, oyijon!

SOG'INISH

Kim bahorni ko'proq sog'indi?
Chumolimi, chumchuqmi, tolmi?
Dalami yo maktabga shoshgan
Jajji bola — tillari bolmi?

Kim bahorni ko'proq sog'indi?
Musichami, anhormi yo g'oz?
Bahoroyni eng ko'p sog'ingan
Yanglishmasam, piyozdir, piyoz.

Kelmay turib hali qish fasli
Nafas olmay turib dalalar,
Zax, qorong'i omborlardayoq
Ko'karishni boshlashgan ular.

HABIB RAHMATNING TOPISHMOG'I

Habib aka kitobidan
Ajoyib she'r o'qidim.
Ilhom qushi qo'nib boshga
Bir topishmoq to'qidim.

Patak sochga o'xshaydi u,
O'xshar kiyik shoxiga.
Faqat zamin tushunadi
Uning quvonch, ohiga.

U bo'limasa na gul unar,
Na nihol yozar yaproq.
Bahordan to kuzga qadar
Bilmaydi tinim, charchoq.

U omonki, daraxt omon,
Jonu tani tuproq, suv.
Quyosh, Oyni ko'rmas sira
«Yer ostida ishlar u».

UY

Devorlarin silab-siypab
Bo'yadilar uyni obdon.
Rangiga rang kirib uy ham
Eshigini ochdi shodon.

Qo'sh deraza — ko'zlarining
Oynalari yalt-yalt qilar.
Uy sohibi peshayvonga
Zar ipakdan parda ilar.

Uy tush ko'rар o'sha kecha —
Hayron etib nechalarni:
Tomidagi qushlar bilan
Sayr etarmish ko'chalarni...

BOZORCHILAR

Bargin to'shab tog'oraga
Ayab-ayab joyladik.
Ayab-ayab uzgan edik,
Ayab-ayab boyladik.

Bozorda ham kun tig'i-yu
To'rtta aridan ayab,
Savdomiz hech yurishmadi —
Choshgohgacha sotdik gap.

Akam dedi: — Bunaqada
Cho'ntak pulga to'lmaydi.
Uzumnimas, vaqtimizni
Ayamasak bo'lmaydi.

Shundan keyin olinglar deb
Chorlayverdik xaridor:
— Uzumning eng zo'ri bizda,
Kelib qoling, uzum bor!!!

— Qani? Qani?
— Mana! Mana!
Tinmasdan ha... huv... ladik.
Husaynini ana shunday —
Ayamasdan pulladik.

O'RDAKCHALAR

Yanvarning qoq o'rtasi.
Izg'irin. Sovuq.
Issiq yozni tush ko'rar
katakda tovuq.

Sal isisam tonggacha
uxlardim biroz,
Deya qanotin qoqar
qunishib xo'roz.

To'shin berib pichanga
o'rdakchalar ham,
Tashqariga ko'zlarin
qadashar purg'am.

Sovuq emas ularni
o'ylarga solgan.
O'rdakchalar xayolin
hovuzcha olgan.

Boyagina u yerda
o'ynovdi ular.
Yaxdek suvda cho'milib,
quvnovdi ular.

Pishiq ekan ishiga
Rosayam ayoz,
Hovuzchani muzlatib,
beribdi pardoz...

Yanvarning qoq o‘rtasi.
Izg‘irin. Sovuq.
Issiq yozni tush ko‘rar
katakda tovuq.

Uxlamasam ham picha
isisaydim deb,
Dakang xo‘roz qanotin
silkitar hadeb.

O‘rdakchalar ko‘zida
bir o‘tinch, malol,
O‘rdakchalar ko‘zida
bir hayrat, savol:

«Bu qandayin gap axir,
bu qandayin ish —
Kir-chir bo‘lib yuramiz
nahot butun qish?...»

QOR

Yog‘sang dekabrda yog‘,
yo bo‘lmasa yanvarda,
O‘shanda bolakaylor
sendan yasar qorbobo.
Fevralda yog‘sang ham soz,
sudrasa bo‘lar chana,
Erimaysan har tugul,
bo‘lmaysan loy-shalabbo.

Ko‘klamda yog‘sang rosti,
bo‘lasan oyoq osti!

«QO‘RQOQ» SICHQON HAQIDA SHE’R

— Uchmi to‘rt marta ko‘rdim
Uyda yurganin chopib.
«Chiy-chiy»lab qo‘yadi deng,
Olgandek tilla topib.

Menga ko'zi tushgan chog',
Mo'ljal olar taxmonni.
Shunday degach akamlar
Ishga soldik qopqonni.

To'g'ri-da, o'ynay desa,
Ana ko'cha, qir tayyor.
Sichqon degan maxluqqa
Uy to'rida nima bor?

...O'tsa hamki oradan
Ikki, uch, hatto besh kun,
Chiy-chiyvoyi tushmagur
Bo'lay demadi tutqun.

Tulkidan ham o'tarkan
Ayyorlikda yaramas —
Oqshom cho'kdi degandan
Qorasini ko'rsatmas.

Kunduz kunlari bo'lsa,
O'sha ahvol, o'sha hol.
«Ashulasin» vang qo'yib,
Uyda chopar bemalol...

Bo'lavergach ovora
Tugadi bizda toqat.
«Qo'shiqchi»miz odatin
Bilib oldik nihoyat:

Mard bo'lsa ham sichqonboy,
Botir bo'lsa ham juda,
Tashqariga chiqishga
Qo'rqarkan qorong'ida...

DILXIRALIK

Buvijonim qo'liga
Ignasin sanchib oldi.
Opam ham katta uydan
«Qurib ketsin!» deb qoldi.

Chopib kirsam oldiga
Yuzlari aftodahol —
Qayeridir «shiq» etib,
O'chib qolibdi dazmol.

Paypog'im bir poyini
Oyim topolmay xunob.
Choy ichishning o'mniga
Tinmay izladim kitob.

Tuflimni artishga ham
Fursat topmay qoldim och.
G'ijim ko'yakni kiyib
Yo'lga tushdim noiloj.

Kech turib matabimga
Shoshgan kunim ertalab,
Shunday dilxiraliklar
Ro'y berdi uyda, Matlab...

TARBIYA

— Shu kunlarda quloqsiz
Bo'lib ketyapti ukang.
O'qishini qo'yatur,
Boshigacha tuproq-chang.

Muallima opasi
Qilavergach shikoyat,
Ukam tarbiyasiga
Ajratdim ma'lum fursat.

Na koyidim uni men,
Urmadim po'pisa, do'q.
Kamar u yoqda tursin,
Musht ham ko'rsatganim yo'q.

Bor ayb — kamchiliklarin
Yuziga aytib ochiq,

Ukamga dedim: «Endi
Katta pichoqni obchiq!»

Ukam tarbiyasida
Yo'1 tutdim o'ziga xos —
Sho'xliklari qolguncha
Har kun to'g'ratdim... piyoz!

MAQTANCHOQ

Siypab-suydim jonivor deb,
Jonivor-a, jonivor.
Buncha nozik bo'lmasang sen,
Qanchagina joning bor?
Qaddin kerib jo'ja dedi:
— Maqtov menga ne darkor?
Sen yaxshisi dondan gapir,
Qara, qanday qornim bor!

SHAMOLJONNING DO'STLARI

Ko'kka bo'y cho'zgan sari
Baqateraklar ko'proq,
Quvnoq Shamoljon bilan
Tutinar qalin o'rtoq.

Ko'chalarni changitib
Shamolvoy tushsa o'yin,
Qarsak chalar teraklar
Yerga egishib bo'yin...

OSHXONADA

Pishiray deb shirguruch,
Nonushtaga — azonga,
Dadam keltirgan sutni
Oyim soldi qozonga.

Qarab tursam, chiqmoqchi
U qozonning ichidan.
Qaymog'i vijirlagach,
Shoshilib qoldik chindan.

Bolalar, olov bilan
Bo'lmas ekan o'ynashib.
Shuncha hushyor bo'lsak ham
Sutimiz ketdi toshib.

QIZLAR

Ko'rib quvnar ko'zu dil,
Orasidan o'tmas qil.
To'rt qiz — to'rt opa-singil,
Sobirjonning qizlari.

Doim toza, sarishta,
Bir-biridan farishta,
Tejamlidir har ishda
Sobirjonning qizlari.

Burro-burro so'zları,
Munchoqdayin ko'zları,
Dadajonin o'zları,
Sobirjonning qizlari.

Dillarida hayajon,
Umidu hadik bu on,
Kutishar yangi mehmon —
Sobirjonning qizlari.

Kutganingiz bor bo'lsin,
Chaqaloq shunqor bo'lsin,
Uka sizga yor bo'lsin —
Sobirjonning qizlari!

SHO'X QOPQOOQ

Judayam sho'x azaldan
Ko'k choynakning qopqog'i.
Shu sabab rangi o'chib,
Darz ketgan hammayog'i.

Ayniqsa, Nor qo'liga
Ko'k choynak tushgan palla,
Tashlayverar qo'rmasdan
Piyolalarga kalla...

KIMGA MAZA, KIMGA...

Gir aylanib yonida,
Chir aylanib yonida,
Beshta odam bir bo'lib
Arqonidan tortishar.
So'qimsan, deb so'kishib,
Loy-tuproqqa bo'kishib,
Tanavoyni zo'r-bazo'r
Mashinaga ortishar.
Besh kishiga bas keldim,
Deb pishqirar tanavoy.
Na'ra tortib, bo'kirib
Tomoq qirar tanavoy.
Yo'lga tushar mashina
Kuylar:
— Pip! Pip!
Po'sht,
 po'sht,
 po'sht!
Kushxonaga ketyapman
Opketyapman
Go'sht,
 go'sht,
 go'sht...

Feskari sartavhalı she'rlar



SHOM

— Kaptarlarga olish kerak don,
Kaptarlarga olish kerak don! —
Shu to'rt so'zni har kech ming marta
Yuragidan o'tkazar Davron.

Tong otganda maktabga jo'nab,
So'ng o'yin-la bo'lib andarmon,
Kun o'tganin sezmasdan qolar —
Bora olmas bozorga Davron.

Yoz bo'lsa ham boshqa gap edi,
Hammayoq qor, avji qahraton.
Qushlariga rahmi kelsa-da,
Bora olmas bozorga Davron.

Davronboyni don tashvishidan
Mosh mushugi ayladi xalos —
U kechqurun tomga chiqdi-da,
Kaptarlarni tushirdi paqqos!

KON

Lampochkaga qiyoslagan
Meni mashhur bir shoir.
She'r yozilgan qog'oz-qog'oz
Foydalarimga doir.

Tosholmadan kam joyim yo'q,
Nondek lazzatga konman.
Ba'zan qimmat bo'lib ketgum,
Ba'zan juda arzonman.

Bahor kelsa bog'ingga ek,
Jon bo'laman joningga.
Sal hosilga kirsam bormi,
Puling qolar yoningga!

BOBUR

Peshtaxtada «mum tishlab»
Yotdim, bilsang butun yoz.
Meni sotib olganing
Juda soz bo'ldi, shovvoz.

Qunt qilsang bas, yangrayman
«Shahlo»ga, «Tanavor»ga.
«Andijon polkasi»yu
«Lazgi»ga, sho'x «Alyor»ga.

Soz chiqsin desang ohang,
Dilbar bo'lsin desang kuy,
Sen musiqa zavqini
Avval yuragingda tuy!

OTAM

Bu mato neligini
Sizga aytmayman ochiq.
Yo‘q, u dastro‘mol emas,
Emas hattoki sochiq.

Surp, chit ham emas, u —
Tayyorlanar ipakdan.
Go‘zallikda zarracha
Qolishmas kamalakdan.

Qizlar aytar ekanlar
Balki bu lofdir anday —
Uni kiygan bo‘larmish
Marg‘ilonga borganday.

MARKA

Marka desa bir paytlar
Tomdan tashlardi o‘zin.
Band etardi markalar
Har dam xayolu ko‘zin.

O‘ylagani shu edi,
So‘ylagani shu edi.
Do‘satlari shundan unga
Doim: «O, Marka!» derdi.

...Kim ekan deb bu bola
Qiynayvermanglar meni.
Axir to‘rt marta yozdim,
Shu she’rimda ismini...

O'yinqaroq bulutch'a



«XOSIYATLI» QUYONLAR

Maktabda o'tkazilgan
Poygada sovrin olib,
Bir zumda tilga tushdi
Olti «a»dagi Tolib.

O'rtoqlari so'z qotar:
— Hech kelmasding futbolga.
G'alabani mashqsiz
Qanday kiritding qo'lga?

— Uyimizda bir katak
Quyonim bor, — der Tolib.
— Ularni quvaverib
Men bugun bo'ldim g'olib.

KIM HASANU KIM HUSAN

— Menga qara, sen kimsan?
— Men, Husanman, tog‘ajon!
— Sizdek egizaklarni
Ko‘rmaganman hech qachon.

Shunchalar o‘xshashsizki,
Ko‘zim hayratga to‘lar.
Seni Husan ekaning
Qandayin bilsam bo‘lar?

— Gapning rostini aytsam, —
Der Husanboy shivirlab.
— Akamning qulog‘iga
Sira-sira kirmas gap.

— Menga qara, sen kimsan?
— Men, Hasanman, tog‘ajon!
— Sizdek egizaklarni
Ko‘rmagandim hech qachon.

Shunchalar o‘xshashsizki,
Ko‘zim hayratga to‘lar.
Seni Hasan ekaning
Qayerdan bilsam bo‘lar?

— Gapning rostini aytsam, —
Der Hasanboy shivirlab.
— Ukamning qulog‘iga
Sira-sira kirmas gap...

TAYYORGA...

— Hil-hil pishibdi olcha,
Terishvordin, hoy, Ali.
Sharbatini ichamiz
Ayni tushlik mahali.

— Vaqtim yo‘q-da, bo‘lmasa,
Ko‘maklashardim, G‘ani.
Borish kerak mакtabga
Voleybol o‘ynagani.

O‘yin tugagandan so‘ng
Karimjon, men va Rahmat,
A’zamlarning bog‘ida
Surishmoqchimiz shaxmat.

Yumushi ko‘p ekan deb
Xafa bo‘lماgin, G‘ani,
Men kelaman oldingga
Hali...
sharbat ichgani!

ZO‘R EMISH-A

Mahallada «zo‘r»man deb
Kerilar Zokir:
— Meni ko‘rsa bolalar
Titraydi zir-zir.

— Bo‘lsayding rostdan botir, —
Der unga G‘iyos. —
To‘g‘ray olarding, oshna,
Yig‘lamay piyoz.

USTOMONLAR

— Men kattaman, — der Kumush,
— Men kichikman, — der Akmal.
Bo‘lasha olmay yumush
Boshlashar darrov janjal.

Shokolad olib kelsa,
Dadasi tushlik mahal,
Taqsimni opa-uka
Tezlikda qilishar hal.

E'TIROZ

— Hech qolmadi, qolmadi
Bo'shangliging, Shuhratjon.
Bu ahvolda hisobni
O'rganasan-a qachon?

Sanoqni-ku uch oyda
O'zlashtirding qotirib.
Non kavshash bo'lsa senga
Murabboga botirib.

Akasin ta'nasidan
Yuragi qaynab, toshib,
Ko'zin pirpiratgancha,
Shuhratjon so'zlar shoshib:

— Hisobni-chi, akavoy,
Bilaman siz kabi zo'r.
Yettidan olsak uchni
Javobi chiqadi to'rt.

Uchga ikkini qo'shsak,
Shubhasiz bo'ladi besh.
Qirqdan beshni ayirsak,
Javob chiqar o'ttiz besh!

Hangu mang qolib aka
Tinmay ishqar ko'zlarin.
Hayron bo'lgancha tinglar
Ukajonin so'zlarin.

— Misolni, — der Shuhratjon.
— To'g'ri ishlay olaman.
Bo'shang emas, endi men
Harakatchan bolaman.

Yalqovsan deb yoz bo‘yi
Pand o‘qigan chog‘ingiz,
Menga hisob, amalni
O‘rgatdi o‘rtog‘ingiz.

AKULALAR

Zoologiya darsida
Jim o‘tirmagach Olim,
Akulalar haqida
So‘rab qoldi muallim.

Bilmasa ham mavzuni
Olim yo‘qotmay o‘zin,
Gapga tushib ketdi-ku
Shipga tikkancha ko‘zin:

— Akulalar, bilsangiz,
Suvda bo‘lishar katta.
Vaznlari, bo‘ylari
Har xil bo‘lar albatta.

Xohlasalar baliq yer,
Xohlashmasa yeyishmas.
Muhimi, baliqlarni
Qiltanoqli deyishmas!

KECHIKKAN ORIYAT

Eshvoyning kundaligin
Onajoni varaqlab,
— Balli, o‘g‘lim, — der birdan
Ko‘zları shod charaqlab.

— «Uch», «to‘rt» baho olarding
Yozma ish bo‘lsa doim.
Xursand bo‘lsin debsan-da
«Besh»imni ko‘rib oyim?

Ona o'g'lin maqtarkan
Mehri iyib, quvonib,
Boshin quyi solar Esh
Yuzlari lov-lov yonib.

— Ha, oyijon, — demoqqa
Negadir kelmas tili.
Og'ir-og'ir xo'rsinib,
Orziqib ketar dili.

Huv «uch» olgan kuni ham
Uyalmovdi u buncha.
Quloqlari sholg'omdek
Qizarmagandi shuncha.

Ne deb qilsaykin javob?
Yo aytsinmi to'g'risin?
Nima deb o'ylar ona
Ko'rib saboq o'g'risin?

Onasining ko'ziga
Qaray olmas edi Esh.
Chunki u yozma ishni
Ko'chirib, olgandi «besh».

«KAMTAR»

Xoh «o'qish», xoh «tarix»dan
Muallim bersa savol,
Boshini egganicha,
Sukut saqlar Mirjalol.

Mavzularni aslida
U «a'llo»ga bilarmish.
So'rالgan payt miq etmay,
Sal «kamtarlik» qilarmish...

KO'KLAM YOMG'IRI

Onasi Bulutxola
Bag'ridan Yerga shoshib,
Yomg'irvoy ishga tushar
G'ayrati oshib-toshib.

U shu'ladek sochilib
G'ubor qo'ngan gulzorga,
Sharchalar sovg'a qilar
Shirinzabon anhorga.

Erinmay yuvar keyin
Daraxtlarning gardini,
Tarnovlarni davolar
To'kib quyqum — dardini.

Yo'llar, yo'laklar bu chog'
Yaraqlar ko'zgu kabi.
Shamollashdan cho'chibmi,
Titrar gullarning labi.

Tomlar qo'shiq aytishar,
Yashnar adir, dalalar,
Yengil tortib qirlarda
Shivirlashar lolalar.

Onasi Bulutxola
Bag'ridan Yerga shoshib,
Ishga tushar yomg'irvoy
G'ayrati oshib-toshib...

OTA O'G'ILLAR

Hordiq ham olmay andak,
Tovuqqa qurdi katak,
Halim, Salim va Karim.

Taxta kesib, mix qoqib,
Yuzlaridan ter oqib,
Ishga kirishdi Halim.

Botmay turib hali kun,
Katakka sepib don-dun,
Ishni bitkazdi Salim.

Xuddi otasi kabi,
Tegmay labiga labi,
«Ishboshi» bo'ldi Karim.

JAVONDA TURIBDI

— Esingdami, tunov kun
Sotib olgandik kitob.
Zavq bilan o'qib chiqdim
Kecha uni bobma bob.

Haqgo'y Tom, jasur Jonga
Qoyil qoldim, ishonsang.
Mag'lub etishar ekan
Ular dushmanni bejang.

Hech unutmasam kerak,
Xotima — so'nggi bobni...
Maza qilgandirsan-a,
Sen ham o'qib kitobni?

— E, qayoqda! — der esnab
Loqayd Karim Davronga.
— Hamma ko'rib qo'yisin deb
Terib qo'ydim javonga.

CHILDIRMA

Gardishim to'la «boldoq»,
Ohangim quvnoq-quvnoq.
Ishonmasang so'zimga
Meni asta chertib boq.

To'yga borsam g'ilofda
O'tirmayman pisinib.
«Gullataman» davrani
Olsam biroz isinib.

ISHONCHLI TAXMIN

Yaxshiyam bugun emas,
Salimjonlarning to'yi —
Naqd chilla — saratonda
Yomg'ir quydi kun bo'yi.

Asli yog'mas edi u
E'tiroz qilmang sizlar,
Ko'chalarni changitib
Supurmaganda qizlar.

«YORDAMCHILAR»

Tunov kun uyimizda
Bo'ldi kattakon hashar.
Ko'chib keldi deymiz-ov,
Hasharga butun shahar.

Tongda — hali odamlar
Kelmaslaridan avval,
Sevinch ikkalamizni
Oyim tergadilar sal:

— Chuvillashib oldimda
Meni ishdan qo'y manglar.

**Jim-jimgina yuringlar,
Jim-jimgina o'ynanglar!**

...Hashar rosa qizidi
Bitdi eh-he qancha ish.
Tunuka «do'ppi» kiydi
«Bizning chala qurilish».

Talashmadik qo'g'irchoq,
Yo'qotmadik tugmacha.
Kamroq o'ynab loy-tuproq
Ozoda yurdik ancha.

Ko'pchilikning oldida
Yoshlamadik ko'zimiz —
Qarab yurdik kechgacha
O'zimizga o'zimiz!

BOG'CHA OPAMIZ

Barchamizga mehribon
Bog'cha opamiz.
Chaqirsalar, oldiga
Darrov chopamiz.

Nurxonoy opamizning
So'zлari, quvnoq.
Suyar men va singlimni
Hammadan ko'proq.

Hayallasak bog'chaga
Qovog'in solib,
Oyimlarni koyiydi
Biz chetda qolib...

ARAZ-ARAZ

Qo‘g‘irchog‘im kovushini
Oqzibsan ariqqa.
Kulchamni ham berib bo‘psan
Hovuzdagi baliqqa.

Uray desam qo‘lim bormas,
O‘zing yaxshi bolasan.
Hamma gapga kulib-kulib
Darrov ko‘na qolasan.

Mayli desang, bunday qilsak,
(Yana ranjima mendan)
Bugun, erta arazlashib,
Gaplashamiz... indindan.

YASHASIN, OYIMLAR!

Oyijonim somsa yopti
Nonushtaga qovoqdan.
Yulduz opam bilan yedik
Bosh ko‘tarmay tovoqdan.

— Osh bo‘lsin, — der oyijonim
Kulganicha ravoqdan, —
Sizlar uchun yopdim uni
Atay oyimqovoqdan...

MANTIQOSQONNING MISH-MISHI

Pishirganim manti-yu xonim,
Pishirganim hasip, chuchvara.
Shukur, o‘choqqozonga o‘xshab
Rangi-ro‘yim emas tasqara.

Kulishini qo‘ymas «qoravoy»
Men dam olib turgan kezlarda.

Unim chiqmas, vaqirlab-qaynab
Qilay desam o'xshatib zarda.

Qora qopqoq kiygan «oshnam»ning
Kayfiyati buncha desam chog',
Kapgir degan do'sti bor emish
Va har kuni yalar emish yog'...

NOSHUD «MUALLIM»

Hayvonlar mакtabida
Ish boshlabdiki Eshak,
Quyon darsdan qochar
To'polon qilar Chittak.

So'ray boshlasa agar
Topshiriq — uy ishini,
Qovoq uyib Olmaxon
Qirsillatar tishini.

Dumin o'ynab Tulkivoy
«Kecha kasal edim», der.
Ayiqlpolvon pishillab
Nonga asal surtib yer.

«Xo'p desangiz, bir umr
Sizga bo'lardim aka»,
Deya dilnoma yozar
Echkibonuga Taka.

Xo'roz bo'lsa «qu-qu»lab
Yosh Tovuqqa otar gap.
Uyiga ruxsat so'rар
Sutxo'r Buzoqcha ma'rab.

Uyquchi Cho'chqatoyev
Birinchi soatdanoq,
Sinfni boshga ko'tarib
Homuza tortar uzoq...

Talabalardan nolib
Eshak domla burar lab.
Bilmaksi, saboqlarni
O'tib bo'lmaydi hangrab...

OT YILI

— Kelsa kelibdi Navro'z,
Kelsa kelibdi ko'klam.
Sevinarmi shunchalar
Toychoq degan shunga ham.

Bedalarga yetguncha
Hali qancha kunlar bor...
Xo'tikchaning gapiga
Toychoq bermas e'tibor.

Shodlanib der: — Quvonchga
Nega to'lmasin ko'ngil,
Kirib keldi, xo'tikvoy,
Axir bugun bizning yil...

O'RGIMCHAK

Itpashshalar aytgandek,
Quv, dog'uli emasman.
Ko'ringan qanotlini
Tutib olib yemasman.

Ammo menda ham nafs bor,
Bor shuningdek diyonat.
Yesam yeymen sur chivin,
Sayoq pashshani faqat!

TEKIN TOMOSHA

Kuchukchalar bir kuni
Gap talashib qolishdi.
Zum o'tmasdan tirmog'u
Tishni ishga solishdi.

Bu qanday to'polon deb
Chopib keldi qo'zichoq,
Chopib keldi qo'chqor qo'y,
Chopib keldi sho'x buzoq.

Hatto qulog'i og'ir
Mosh ham keldi tom osha
Va kuchuklar jangini...
Qilishdilar tomosha.

POLVON BULUTLAR

Erta ko'klam kelganda
Davrani keng olishib,
Kurash tusha boshlashdi
Bulutlar to'planishib.

Hakam Shamol goh-gohi
Chaqillatdi «chaqmoqtosh».
Yengilgan bulutvoylar
Ko'zlariga oldi yosh.

NOG'ORANING DEGANI

«Tilga kirishim» uchun
Shart emas chayir bilak.
Meni chalmoq uchun ham
Tuyg'u kerak, his kerak.

Toki eshitgan bilsin
Ekanligim nog'ora.
...Qanday chalsang, chal derdim
Bo'lganimda tog'ora.

KEKSAYISHGA HALI BOR

Tishlarim to'kildi deb
Ko'p o'ksima, etikjon.
O'tar-ketar bu kunlar
Kuz bor dema, etikjon.

Hademayin qor yog'sa,
Terga botamiz jiq-jiq —
Xohlagancha uchamiz
Ko'chalarda sirpanchiq.

XONAKI XONANDA

Otmay turib hali tong,
Moviyoysilik qurbaqa,
Qashlab tarang qornini
Boshlar qo'shiq — vaq-vaqa.

Tinglab ko'rsa qunduzxon
Qo'shnisin vaq-vaqasin,
Qurbaqa soyni emas,
Kuylar... o'z baqbaqasin.

RUBOBNING MALOMATI

Ranjimasdim Nodirdan
Torim bo'lgandauzuq —
Sog' bo'lsa ham to'rt mucham,
Meni hisoblar buzuq.

Hattoki «talanti»ni
Qirgan emishman mayib.
...Sozlashni epolmasa,
Axir mendami ayib?

G'AROYIB POYGA

Poygada charchab-horib,
Nafasin olib arang,
Marraga eng oxiri
Yetib kelsa ham qarang,

Toshbaqani muxlislar
Olqishlashar edilar.
— Sovrin egasi sensan,
Balli, shovvoz! — derdilar.

Ortda qolgan bo‘lsa-da
Quyon, o‘rdak, tovusdan,
O‘zib ketgan ekan u
Yap-yangi avtobusdan!

KO‘RSICHQONNING E’TIROZI

Shahlo mening ko‘zlarim,
Shahlo mening ko‘zlarim.
Uyam ostida qolay
Yolg‘on bo‘lsa so‘zlarim.

Dunyoning ishlariga
Goho qolaman hayron,
Ko‘zi ochiq ba’zilar
Meni derkan... Ko‘rsichqon.

ORIYAT

Qo‘zichoqlar: «Hoy, ko‘ppak,
Nari tur katta yo‘ldan!»—
Deb yuvosh kuchukchani
Tergashar o‘ngu so‘ldan.

Bundan ranjir kuchukcha:
— Nahotki siz bexabar,
Mening otim ko'ppakmas,
Mening ismim Olapar.

BUZOQCHANING E'TIROFI

Ta'min totdim kunjarani,
Ta'min totdim sho'rani.
Qovun, po'choq, beda, poxol,
Olma, o'rik — g'o'rani.

Yedim g'umay, yedim arpa,
Yedim tarvuz, yedim tut.
Totli ekan hammasidan
Onajonim bergen sut.

BOSHQA-BOSHQALAR

— Jim bo'lginu qulq sol,
Eshityapsanmi, Qo'chqor,
Mayingina ovozda
Qo'shiq aytyapti anhor.

— Tushunmayapman sira,
Nima deyapsan, Tohir?
Qo'shig'ing nimasi, suv,
Suv oqayapti axir!

HAR KALLADA HAR XAYOL

— Qoplay boshlasa agar
Yeru osmonni tuman,
Negadir o'z-o'zimdan
Xavotirga tushaman.

— Bunday payt, — der kerilib, —
Quv-quv yo'talib Abbos.
— Maktabda ham qo'rmasdan
Men... chekaman papiros.

UYQUSIN CHAQIRYAPTI

— Qorni to'q, choy ham ichdi,
Kiydirdim yangi ko'yak.
Nega yig'layaptiykin? —
Onasi bo'lar halak.

Chaqaloqdan ko'zlarin
Uza olmay der Unsun:
— Menimcha, ukam yig'lab
Chaqiryapti... uyqusin.

AVVAL O'ZINGGA BOQ

— Soching sa-riq, sap-sariq!
Mal-la, mal-la, patila! —
Shunday deya qo'shnisin
Masxara qilar Tilla.

— Sochim sariq bo'lsa ham, —
Der Omon kulib shu choq.
— Senikidek chang-loyning
Ombori emas, o'rtoq!

QAYSI TAOM SHIRIN

Maktabdan qaytisharkan
Ochqashib sinfdoshlar,
Shirin taom haqida
Gulnoraxon bahs boshlar:

— Oyim palov damlasa,
Doimo chiqar xushta'm.
Chunki oyijonimga
Ko'maklashaman men ham.

— Palov-ku yaxshi, lekin
Sho'rva ham yomon emas.
Ayniqsa, xo'p qaynatsang, —
Deb gapga tushar O'lmas.

Suhbat qizib borarkan
Semizlikdan hansirab,
Dangasa Boqi polvon
So‘z boshlar qornin silab:

— Xushxo‘r yemish juda ko‘p,
Chuchvara, manti, lag‘mon.
Barisi ko‘ngiltortar,
Barisi jonga darmon.

Mazalisiga kelsak,
Yo‘q deb tortishmang faqat,
Bu bizning uyimizda
Eng erta pishgan ovqat!

TANISHUV

— Murod kerak deysizmi,
Murod bizda ikkita.
Birin «Shokolad» deyman,
Birin laqabi «Chita».

Qo‘chqorvoy degan chayir,
O‘rta bo‘y ukasi bor?
Bu ko‘chada-chi, aka,
Bir emas, uchta Qo‘chqor!

«Qo‘chqor qo‘y»dir bittasi,
Bittasi «Qora botir».
Yana birini bo‘lsa,
Deyman «Achchiq qalampir».

O‘zimmi,
o‘zim bo‘lsa,
O‘sha «tili yomonman».
...Nimalar deyapman-e,
Men, men axir Omonman!

TUMOV

Tolib tumov bo'lgan kun,
To'lagan bilan Uchqun
Kelib xabar olishdi.

«Nima bo'ldi, o'rtoq?» deb,
«Yo qoldingmi sovuq yeb?»
Deya gapga solishdi.

Yo'qlovdan bo'lib xursand,
Do'stlariga tutdi qand
Tolib o'midan turib.

— Men-ku sog'man, To'lagan,
Burnim sa-al shamollagan, —
Deb qo'ydi aksa urib.

TAKABBUR

Darsin bajarmay borar
Maktabiga Mirolim.
Muallimi so'rasha,
Og'zin ochmas — turar jim.

Uzoq-uzoq «uf» tortib
Aytar so'ngra boisin —
Uy ishlarin yodiga
Solmas emish oyisi.

SHART

Do'konchaga o'n marta
Bor desangiz, boraman.
Bir arava o'tinni
Yor desangiz, yoraman.

Izlamayman bahona
Chiqib qolsa biror ish:

Aytaylik, pojni yuvish,
Xabar berish yo eltish.

Odobli bola bo'lib,
Yuraman toza, begard.
...Buning-chun velosiped
Olib berishingiz shart.

BEMINNAT YORDAMCHILAR

— Qamishimizga qarab
Qirmay qo'yaqol tomoq.
Ovga ketayapmiz, ha,
Bechuvalchang, beqarmoq.

Mana shu qamish bilan
Men, Karim hamda G'iyos,
Bog'da Qo'ysin xolaga
«Ovlab» beramiz gilos.

«TEJAMKOR»

— Tanaffusda, ko'chada
Og'zing tinmas bir nafas.
Sinfda bo'lsa, ajab,
Churq etgan tovshing chiqmas?

— Bo'lar-bo'lmas gaplarni
Gapirma, degan oyim.
Shuning uchun darslarda
So'zni tejayman doim.

«DASTYOR»

Keltirish lozim bo'lsa
Do'konchadan obinon,
— Men olib kelaman, — der
Hammadan avval Omon.

Boisi bor kirishin
Kattalarning so‘ziga,
Nondan ortgan pulni u...
Olib qolar o‘ziga.

SOBIR CHIZGAN SURAT

Buvijonin suratin
Sobir zavq bilan chizar.
Sezmas, peshonasidan
Marvarid terlar sizar.

Har bir chizgi ustida
O‘ylar rassomlarga xos.
Izlar mayin ranglarni
Buvisin ko‘ziga mos.

Murg‘ak yurak hayrati —
Surat bitar nihoyat.
Unga qaragan borki,
Sobirni maqtar faqat.

Rasmda buvi — bir qiz
Kulib turar tishlab lab.
Qirq o‘rim qora sochin
Yelkasi uzra tashlab...

SENTABR QUVONCHI

Ko‘zlarimni quvnatar
Munis tongning jamoli.
Onam kabi sochimni
Silar kuzak shamoli.

Ukam ham shod mendayin
Qo‘limizda guldasta.
Maktab darvozasiga
Yetsak deymiz birpasda.

Qushlar bizga ergashar,
Qari tutlar cho'zar qo'l.
Orqada qola boshlar
Dala ichidagi yo'l...

Omad tilar ariqcha,
Omad tilar keng olam.
Ko'zin uzolmas bizdan
Ochilgan paxtalar ham...

O'YINQAROQ BULUTCHA

— Osmondag'i bulutcha
Nega yig'lar yo'talib? —
Deb so'rар oyisidan
Shamollab qolgan Tolib.

Oyisi der: — Bulutcha
Gapga solmasdan qulq,
Qorli tog'lar ustida
O'ynagan yalangoyoq!

TOPISHMOQ

Vazifalarni uyda
Ukasiga yechdirib,
— Doskaga men chiqay, — der
Sobir o'midan turib.

Misolni-ku qiyalmay
Bir zumda ishlab tashlar.
Ammo jo'n amallarni
Bilmasdan, boshin qashlar...

Topishmog'im mana shu
Qani, o'ylanglar-chi bir,
Nima qilganda darsda
Mulzam bo'imasdi Sobir?..

MANMANLIK HAQIDA ERTAK

— Shoxlarim xuddi xanjar,
Yetar o'ngu so'limga.
Ayamayman kimda kim
Chiqar bo'lsa yo'limga.

Shunday deb bo'ynidagi
Arqonini uzdi u.
Ko'ringanga tashlandi,
Ko'ringanni suzdi u.

Har qanaqa surlikning
Chegarasi bor axir —
Tinchlanay demas qo'chqor
Teshilmaguncha paqir.

Qo'raga solsalar ham
Aqlini yig'mas sira.
Ma'rayverib hammaning
Ko'nglini etar xira...

Manmanlik oqibati
Bo'ldi yomondan yomon.
Yo'qlab keldi oxiri
Pichoq ko'targan «mehmon».

Ayamadi nimjon deb,
Boqmadi ko'zyoshiga,
Manmanligi qo'chqorni
Yetdi oxir boshiga...

OSMONNING KO'ZI

Bir zum ziyo taratib,
Chaqnagan payti chaqmoq
Chopib keldi oldimga
Kenjatoy ukam Uzoq.

Qo‘rqqanmi desam, qayda
Shodon boshlar so‘zini:
— Menga qarab huv osmon
Ochib-yopti ko‘zini!

HAR KIMNIKI O‘ZIGA...

Gulnusxa kapalakka
Bir maqtangisi kelib,
Sergap tillaqo‘ng‘izcha
Shunday dedi kerilib:

— Kirpivoyning kiygani
Men senga aytsam,
tikan,
Toshbaqaning ko‘ylagi
Toshdayin qattiq ekan.

Egnimdag'i kamzulcham
Bo‘lmasa ham pilladan,
Sira-sira kam emas,
Sof, haqiqiy tilladan.

SEMIRISH HAQIDA SHE'R

— Bir kundayoq yuzlaring
Qizaribdi g‘unchadek.
Bir kundayoq yuzlaring
To‘lishibdi kulchadek.

Nima yeb, nima ichding
Yashirmasdan ayt, qani,
Zora men ham sendayin
Semirib ketsam, G‘ani.

— Qizargan yuzlarimga
Qilaverma ko‘p havas.

Menga o'xshab «et olmoq»
Bilsang, oson ish emas.

Kecha ko'rinolmadim
O'rtoqlarim ko'ziga.
Sen, yaxshisi, qulq sol
Kattalarning so'ziga.

O'z vaqtida ovqatlan,
O'z vaqtida uxla, tur
Va iloji boricha...
Atilardan nari yur.

«TUSHUNTIRISH»

Kalondimog' emishman,
badxulq emishman,
Bilmasmishman ko'chada
yurishni hatto.
Izzat, hurmat, kamtarlik
menga yot emish,
Degim kelar oyimga
bu gaplar xato!
Degim kelar bularning
bari bekor gap,
Bular ko'ngli kirlarning
nayrangi, ishi.
Nega desangiz, menga
yo'lida bosh chayqab,
Salom berar har kuni
o'n beshta kishi!

BAYRAM

Ertalabdan gul isiga
to'lib ketdi xonamiz,
Atir,sovun, dastro'molning
o'zi bo'ldi bir quchog'.
— Salom, aziz bolajonlar, —
deya bog'cha opamiz
Hammamizni o'pib chiqdi
kayfiyati bo'lib chog'.

Opamizga yarashdi xo'p
shippakcha ham, ro'mol ham,
Ra'no olib kelgan ko'yvak
ekan juda alomat.
Ko'zguning qarshisida
gir-gir aylanib biram,
Dedilar: — Buncha yaxshi
bayram — Sakkizinchi mart!

Choyimiz ichib bo'lgach,
she'r o'qishga o'tdik biz.
«Onajon» qo'shig'ini
ayta boshladidi Dildor.
— Ertangi bayram bilan
qutlaymiz, — degach Ramz,
«Bog'chamiz»ga o'ynadi
Sevinch, Yulduzoy, Gulnor...

Javondan pastga tushdi
tillasoch qo'g'irchoqlar,
Chang bosgan charm koptok,
mashina, tankcha, soat.
«Inga»lab, «dir-dir»lashib
ko'nglimiz olgach ular,
Biz ham dedik: — Buncha soz
bayram — Sakkizinchi mart!

BILAG'ONLIKNING SIRI

Zo'rg'a o'qib, zo'rg'a uqib,
«Yerning tortish kuchi»ni,
Payqab qoldim nogahonda
Bir jumboqning uchini.

Partadoshim Isag'ali
Nega a'lachi desam,
Qarangki, u naqd Nyutonning
Adashi ekan bilsam!

YOZ SOG'INCHI

Qor bosgan tomga boqib,
Qor bosgan qirga boqib.
Qalt-qalt titrab sovuqdan
So'zlar ukam Miryoqub:

— Yoz yaxshi-a, akajon,
Ayta qoling «yaxshi» deb.
Nega desangiz, yozda
Hamma yurar issiq yeb.

NOG'ORA QO'SHIG'I

Tak taka tum, tak taka,
Tak taka tum, tak taka.
O'yinni bilmayman deb
Bahona qilmang, aka.

Belga qiyiqcha bog'lab,
Atrofga boqib o'ynang.
Yelkangizni uchirib,
Qoshingiz qoqib o'ynang.

Shundoq bo'lsin, ha, shundoq,
Bo'shashtirmang sur'atni.

Ohangga mos odimlab
Tanadan quving dardni.

Tak taka tum, tak taka,
Tak taka tum, tak taka.
Men xizmat qilgan joyda
Hecham tortinmang, aka.

SHERZODJONNING XO'ROZI

Sherzodjonning xo'rozi
Ekan biram xushovoz.
Yangi uyga ko'chgan kun
Bilib oldik buni soz.

Demay tungi bir yo uch,
Bilmay yoki ataylab,
Qichqiraverar ekan
Ko'zdan uyquni haydab.

Eng yoqimli qu-qusin
Kuylarkan tonggi palla.
Har saharda shu yo'sin
Uyg'onarkan mahalla.

Qu, qu, qu, qu, qu, qu, qu!
Qu, qu, qu, qu, qu, qu!!!
Soat o'n to'rtta kam to'rt
Ko'zdan yo'qolar uyqu...

Sherzodjonning xo'rozi
Ekan shunday xushovoz.
Qo'shni bo'lib ularga
Bilib oldik buni soz.

Uyg'onib ketaverib
Chiqdi degandan sasi,
Bir oyga qolmay bitdi
Uyimizning chalasi!

OMONNING QUVONCHI

— Ko‘zlarimgasovun kirdi!
Bo‘ldi, yuv mang boshimni! —
Yig‘layverib jazzi Omon
Bezor qilar Hoshimni.

Akajoni yuvib-tarab,
Kiyintirib bo‘lgan on,
— Sochim... yangi bo‘lib qoldi! —
Deya quvonar Omon.

AYOZ HAQIDA SHE'R

Tunlar chizib chiqsang ham
Oynalarga gulzor, oy,
Yoqtirishmas odamlar
Hanuz seni, ayozvoy.

Qor singari nomingni
Solmas qo‘sishq-kuylarga.
Eshiklarni yopishar
Kirmasin deb uylarga.

Nega shundayligini
O‘ylab ko‘rganmisan hech?
Bir yomon odating bor
O‘sha odatingdan kech.

Bas qilsang chimchilashni
Qulqlaru burundan,
Seni ham yosh-u qari
Suyib qolardi dildan...

O'RMONDA

Qorbobo yasashar o'rmonda
Bir guruh bolalar — shodonlar.
Archalar ortidan ularni
Kuzatar qordek oq quyonlar.

Quyonlar dikonglab, baxtiyor —
Sezisha boshlashar o'zlarin,
Qorboboning qip-qizil burni —
Sabzidan uzolmay ko'zlarin...

SAMOLYOT

Tomimizning ustida
Pastlamasang ham mayli.
Xatlarimni akamga
Tashlamasang ham mayli.

Bulutlar bag'rin sila,
Yulduzlarga cho'zgin qo'l.
Eng muhimi, hamisha
Salomat bo'l, omon bo'l.

OTASINING BOLASI

— Katta bo'lsam uylarga
Gullar rasmin solaman.
— Maktabimni bitirsam,
Mototsikl olaman.

Akalaridan ko'zin,
Uzolmay ko'ngli to'lib,
Ali der:
— Men yashayman
Otamdek o'zbek bo'lib!

ICHIQORA

Huv anov turgan bola
Menga sindosh — G'olib.
Jim o'tamiz yonidan
Payqamaganga olib.

Nega deysanmi,
Qanday
Tushuntirsam ekan, Esh.
U jahlimni chiqarib,
Har darsda... olar «besh».

SIGIRNING DEGANI

Bo'ynim qashlab, silab-siypab,
Lola ko'nglim olar edi.
Oxurimga mo'l-ko'l qilib
Yemu xashak solar edi.

O'sha Lola, o'sha Lola
Yuragimni dog'lab qo'ydi.
...Emizikli buzoqchamni
Qoziqchaga bog'lab qo'ydi.

DO'STLIKKA NIMA YETSIN

— Qachon ko'rsam, Boqivoy,
Soqivoyni turtkilar.
Pismiq, xomsemiz deya
Masxara qilib kular.

O'rnida bo'lganimda
Indamas Soqivoyni,
Boplab do'pposlar edim
Maqtanchoq Boqivoyni.

Hatto surishtirmasdim
Nega bunday deysan deb.

Jim bo'lardi «uzun til»
«Shirin» mushtlarimni yeb.

— Men esa, — der Jasurga
Qat'iyat bilan Isoq.—
Ikkisin yarashtirib,
Bo'lib olardim o'rtoq.

YULDUZOY

(*Barnoning she 'ri*)

Jajji singlim Yulduzoy
Husnu malohatga boy.
Sochimni tursam tarab,
Jilmayar menga qarab.
Mayin-mayin kulsa ham
Gapirmaydi u hecham.
Hayron bo'l mang siz biroq,
Singlim hozir... chaqaloq.

O'RIK GULLARI

Oq o'rikning gullari
son-sanoqsiz, mo'l edi.
Ertabahor kunlari
berar edi boqqa zeb.
O'rigiga boqqancha
shodlanardi Karimjon,
O'ylar edi: «Dovuchcha
bu yil serob bo'lar», deb.

Shamoldan ko'ray desa
shamollar esgani yo'q.
Yomg'irdan ko'ray desa,
yog'madi qamchi urib —
Nimagadir oq o'rik
hosil tugdi juda kam,

Nimagadir gullarin
teng yarmi qoldi qurib.

Hadik kirdi Karimning
yuragiga o'sha kun,
Katta bo'lib qolgandek
his etdi o'zin birdan.
Sababin bilmasa ham
ilk bora payqadi u,
Hamma gul ham mevaga
aylana olmas ekan!

VELOSIPEDCHI

(*D. Xarms yo'lida*)

— Bo'lishi mumkin emas!
— Bo'lishi mumkin emas!
— Bu axir bo'limgan gap!
— Evi bilan-da yolg'on!
Velosiped minganmish,
Velosiped minganmish,
Ikki yashar O'Imasvoy,
Hammani etib hayron?

Haydaganmish uchirib,
Haydaganmish uchirib,
Chirt yumib ko'zlarini
Rulni tutib bir qo'lida.
Ensizgina ko'priordan,
Ensizgina ko'priordan
O'tgan emish egarga
Minmasdan, turib yo'lida.

— Bo'lishi mumkin emas!
— Bo'lishi mumkin emas!
Tortishar uch-to'rt bola
Shovqinga to'lar keng bog'.

Minib kelar ularning
Yoniga jajji O'imas
O'zin uch g'ildirakli
Velosipedin shu chog'...

TARVUZIM

Tanlab-tanlab bozordan
Oldim kattakon tarvuz.
Olishga olib qo'yib,
Qildim rosayam afsus.

Tushib olgach xaltaga,
Hech unmadi yo'lim-ey.
Tolib ketdi ko'zlarim,
Og'rib ketdi qo'lim-ey.

Buncha zildek bo'lmasa,
Deb o'ylarga toldim men.
Katta ko'chaga yetmay,
O'n marta dam oldim men.

Peshonamni ter bosib,
Bo'lib turgandim loxas,
To'rxaltadan tarvuzim
Berib qoldi nogoh sas:

— Bolasan-da, bolasan,
Suraverma ko'p xayol.
Charchagan bo'lsang, meni —
Yelkangga mindirib ol!

SO'NGGI XABAR

Radioda aytishdi,
Aytishdi takror-takror:
Poytaxtda yog'ar ekan
Vaqtı-vaqtı bilan qor.

Bu gapni dadasiga
Shunday yetkazdi Tolib:
«Qor yog‘arkan Toshkentda
Damini olib-olib...»

ZAKOVAT YO‘LI

Bilaman deb har neni
Maqtanganing maqtangan.
Bilsang, ayt, manov yerda
Qirq yil oldin ne bo‘lgan?

Qishlog‘imiz ne sabab
Niyozbosh deb atalar?
Uni qachon, qay taxlit
Bunyod etgan kattalar?

To‘g‘ri, savollarimga
Javoblar kam kitobda.
Ammo senga bir gapni
Aytgim kelar shu tobda.

Zakovatga eltguvchi
Bordir yana bitta yo‘l —
Bo‘lay desang bilag‘on
Chollar bilan O‘RTOQ bo‘l!

ONALAR

Kim issiqni ko‘rmas xush?
Issiq hammaga yoqar!
Paxta pishar issiqda,
Pishar don, kungaboqar.

Ayniqsa, yoz kunlari
Issiqlab ketsak bormi,
Suzib-sho‘ng‘ib, qiy-chuvga
To‘ldiramiz anhorni.

Issiqni bizdan-da ko'p
Suyar onalarimiz.
Shuning uchun barisi
Chiroyli — qoramag'iz.

Havo isib, harorat
Qirq, ellikka yetsa ham,
Ishlayverar onalar
Dalalarda xotirjam.

O'ttiz yettidan oshib —
Issig'imiz, desak «voy!»
Topa olmas onalar
O'zlarin qo'yarga joy!

BUVIJONIM

Tinchimizni o'ylaydigan
Maslahatgo'y buvimiz bor.
Ko'zlarida qo'sh ko'zoynak,
Bamisoli sochlari qor.

Ko'rpa qavib, paxta savab,
Yumushlardan ortmaslar hech.
Baxtli-taxtli bo'linglar, deb
Bizga o'git so'ylar har kech.

— «Bismillo»dan boshlang ishni,
Hushyor bo'ling so'zingizga.
Tashlab yomon odatlarni
Izzat topping o'zingizga.

— Qay odatlар yomon? — deya
Biz so'raymiz buvimizdan.
— Quloqsizlik, kir-chir yurish, —
Derlar buvim kulib zimdan.

— Qo‘lni belga tiramoqlik,
Barmoqlarni shaqillatish.
Yolg‘on-yashiq so‘zlar so‘zlab
Odamlarni laqillatish.

Kech kirganda ko‘chalarни
Suv sepmasdan supurmoqlik.
Aza bo‘lib turgan joyda
Hiringlamoq — vaqtı chog‘lik...

Aytaversam, bular ancha,
Yomon odat, har vaqt yomon.
Goh sezdirib, goh sezdirmay,
Keltiradi zahmat, ziyon...

Buvimlar pand aytgan paytlar
Dadam kulib qo‘yardilar.
Hatto ba‘zi gaplarini
Eskilikka yo‘yardilar.

E yo‘q, be yo‘q, shu oqshomdan
Qo‘shildilar safimizga.
Buvimlarga choy uzatib,
Dedi: — Men tan berdim sizga.

...Dadam kecha oyoqlarin
Yotgan ekan chalishtirib,
Choyxonada kovushlarin
Ketishibdi alishtirib...

BIZNING OILA

(*Topishmoq she 'r*)

Asalim deb singlimni
Suyarlar oyim.
O‘rib qo‘yar sochlarin
Maydalab doim.

Ukamni ham qo'lidan
Qo'ymaslar sira.
Maqtagani maqtagan
Bo'lsayam xira.

Dadam bilan akamni
Ko'raman yaxshi.
Hammalari, bilsangiz,
Umrimning naqshi.

Ziyarak bo'lsang, o'rtoqjon,
Fikrla shitob.
Oilada nechtamiz
Va ismimiz top!

AHILLIK

O'ynab yurar ikki it
Ariqlarning bo'yida.
Bir-birini qilmas xit
Hordiq olmoq o'yida.

O'ynab yurar ikki it
Mayda qadam tashlashib.
Bir-birini quvlashib,
Bir-birini boshlashib.

O'ynab yurar ikki it
Bilmas janjal-urushni,
Bilmas kin, adovatni,
Bir-biriga hurishni.

— Nega hech urushmaysiz? —
So'rar Taka — beta'miz.
Itlar javob berib der:
— Bizlar aka-ukamiz.

AKALAR VA UKALAR

— Ukalarni urish gunoh,
so'kish esa nodonlik,
Sho'xlik qilib ular goho
qaynatishar qonimni.
Voydod, deyman o'sha kezlar
chang-to'zondan
bo'g'riqib,
Voydod, deyman bosh changallab,
dard so'rgandek jonimni.
— Sen aytgan hol: chop-chop, quv-quv
menga ham juda tanish,
Ukalarim to'polon, «jang»
boshtagudek bo'lsa gar,
Na toshaman, na shoshaman,
ko'rpa chaga yonboshlab,
Qulog'imga shartta paxta
tiqvolaman, birodar.

ETIKCHAM

Qo'nji yung etikchamning
Birorta ham tishi yo'q.
Guppa-guppa qor yog'sa,
Men bilan hech ishi yo'q.

Sirpangani sirpangan
Yuray demas sira jim.
Uning har sirpangani —
Meni qorga botganim.

Yaxshiyam qor qattiqmas,
Yaxshiyam qor emas tosh.
Yo'qsa, har kun yorardim
Kamida yuz marta bosh...

MEHMON VA MEZBON

(Topishmoq she'r)

Mehmonin izzatini
Mezbon qo'yar joyiga.
Tola ustiga tola
To'shab tashlar poyiga.

Mehmon o'zidan ketib,
Qolar bo'lsa yonboshlab,
Yiqilib yurmang, deya
Joyiga qo'yar bog'lab.

Mehmon tortib xijolat
So'zlasa allanelar,
Mezbon uni «allalab»
Go'yo «ko'rpa»ga belar...

Manzirat, izzat-hurmat
Bilmas chegara, poyon.
...To'rga bir chiqqan mehmon,
To'rdan tushmas hech qachon!

ULG'AYISH ISTAGI

Siz hech o'ylab ko'rganmisiz kattalarning narsasin
Nima uchun jon-dilidan yoqtirishin jajjilar?
Yanglishmasam, ular o'sha buyumlar misolida
O'zlarining nurli, porloq kelajaklarin ko'rari!

Misol uchun to'rtga kirgan Zeboxonni olaylik:
Opachasin kitob to'la jildin zo'rg'a orqalab,
Katta yo'lning bo'yigacha borib kelar har kuni,
Katta yo'lning bo'yi go'yo qizaloq uchun «məktəb».

Har saharda aynan shu hol — charchab,
horib-tolsa ham
Salom berib kirar uyg'a qo'ng'iroqdek tovushi.
Rang-ro'yiga qarab bizlar qotib-qotib kulamiz,
Oyog'ida buvasining o'n ikkinchi kovushi!

BO'RI BILAN OLMAXON

(*Ertak emas*)

Bo'ri bilan Olmaxon
Bir sinfda o'qir.
Bir partada o'tirib,
Qo'shiqlar to'qir.

Olmaxonni yeb qo'ymas
Bo'ri hech qachon.
«Xap, sanimi!» deb qo'ymas
Bo'ri hech qachon.

G'ijirlatmas tishlarin
Og'zini ochib.
Uvillamas tunlari
Uyqusi ochib.

Bo'ri bilan Olmaxon
Juda ham ahil.
O'tmas oralaridan
Mushuk tugul qil.

Olib kelsa Olmaxon
Maktabga yong'oq,
Chaqib berar Bo'riboy
Qorni ochgan chog'.

Ular hatto uyg'a ham
Birga kelishar.

Ko'ringanlarga shoshmay,
Salom berishar...

So'zlarimni, bolalar,
Yo'y mang ertakka.
Yozganim yo'q bu she'rni
Hazil, ermakka.

Xafa bo'lsin o'zidan
Ishonmasa kim —
Bo'ri mening ukamdir,
Olmaxon — qo'shnim.

YILLIK BAHO

Xurshidaning orzu-yu
Umidlari puch chiqdi.
Qo'rqqanicha bor ekan —
«Tabiat»dan «uch» chiqdi.

Boshin qo'yib partaga
Ho'ng-ho'ng yig'lar Xurshida.
O'rtoqlarin ko'nglini
Yig'lab, tig'lar Xurshida.

Ozgina qunt qilganda
Olam edi guliston.
Quvonchdan ko'zi porlab
Yurgan bo'lardi shodon.

Afsuslanib «uf» tortar,
Afsuslari befoyda.
«O'qisam bo'lmasmidi,
Yurganmidim yo oyda?..»

Shunday deya Xurshida
O'zin tinmay urishar.

Tabeliga qararu
Yuzi badtar burishar —

Bir so'yloq tish lab tuttib
Chiqqandayin irjayib,
Qator «besh»lar ichida
«Uch»i turat tirjayib.

Voz kechib bo'lmas undan,
O'chirib bo'lmas uni.
U axir yillik baho —
Choraklarning yakuni...

Xurshidaning orzu-yu
Umidlari puch chiqdi.
Qo'rqqanicha bor ekan —
«Tabiat»dan «uch» chiqdi.

Boshin qo'yib partaga
Ho'ng-ho'ng yig'lar Xurshida.
O'rtoqlarin ko'nglini
Yig'lab, tig'lar Xurshida...

UYIMDAGI DO'STLARIM

Birisi ko'nglim olar,
Biri yig'latadi jim.
Yana yonimda qolar
Uyimdagi do'stlarim,
Uyimdagi do'stlarim.

Birisi xatdek yupqa,
Birisi xo'ppa semiz.
Ertak aytar birisi,
Go'yo oltin sochli qiz,
Uyimdagi do'stlarim.

Tushimda ham tinch qo'ymas
Qay birining unlari.
Boshin qo'yib boshimga
«Uxlab» qolar tunlari,
Uyimdag'i do'stlarim.

Ikki soat qadasang,
Bittamizga ko'zingni,
Robinzonning oldida
Ko'rasan, der o'zingni,
Uyimdag'i do'stlarim.

Otabek kim, Kumush kim?
Kim Ro'ziyev Hoshimjon?
So'zlay boshlar shoshmasdan
Topgan zahotim imkon,
Uyimdag'i do'stlarim.

Ular bor, zerikmayman,
Ey, do'st, sen ham ma'no ter.
Vaqtni bekor o'tkazmay
O'qi, o'rgan, yarat, der,
Uyimdag'i do'stlarim!

ADASHLAR MO'JIZASI

Ertak emas, lof emas,
Bu hol mo'jiza so'zsiz!
Kelsangiz sinfimizga
O'zingiz ham ko'rasiz!

Yangi muallimamiz
Tanishmay turib hali,
Partalarga qaytadan
O'tqazdi dars mahali.

— Qizlar bolalar bilan
O'tirishi shart, dedi.
Terga botgan hoy, yigit,
Burningni tez art, dedi.

Biz avvalo doskaning
Oldida tortishdik saf.
So'ng qator partalarga
Joylashdik bo'yga qarab.

— Sen bilan sen!
sen,
sen,
sen.

O'rinalar bir-bir to'ldi.
Sinf rahbarimizning
Aytgan gapi shu bo'ldi.

Bolalarga ko'z tashlab,
Hayratdan qotib qoldim:
O'tirar bir partada
Olma bilan Olim.

O'tirar bir partada
Aziz bilan Aziza.
Rixsi bilan Rixsivoy
Laziz bilan Laziza.

Ortig'u Ortijon ham
O'tirishar xush-xandon.
Bu holdan hayronligim
Ortib ketdi ming chandon...

Sinfda bolalardan
Kamliyi uchun bir qiz,
Eng oldingi partada
Qolibman o'zim yolg'iz...

Shu sabab opa avval
So'zladilar menga shod:
— Mening ismim, Dilshoda!
— Meniki bo'lsa,
Dilshod!

SHE'RIY KINO

(*Quddus Muhammadiyga*)

— Ko'zingni yum!
— Nimaga?
— Bitta zo'r she'r o'qiymen.
Istasang, senga ham mos —
Qiziq gaplar to'qiymen.

Tayyormisan?
— Tayyorman.
Habib o'qiy boshlar she'r.
Ko'zlarini yumvolib,
Tinglar uni G'anisher.

G'anisherning o'yida
Chaqnar momaguldirak.
Qo'li yetgudek joyda
Yal-yal yonar kamalak.

Suzar tegay-tegay deb
Zar bulutlar boshiga.
Qumrilar chahchahlashib
Tizilishar qoshiga...

Bir qiz tushar osmondan
Chakkalari to'la gul.
Ismin aytish o'rniga
Farishtaman, der nuqul.

— Qol! — der unga G'anisher.
— Yo'q, — der pari chayqab bosh.
— Qol, — yalinar G'anisher —
Ko'zida porlab quyosh.

...Sukut cho'kar oraga.
She'r tugar. Sob bo'lar so'z.
Pari qizga termilib
G'ani ocha olmas ko'z...

Habib turtar do'stini,
Bo'yi qadar egilar:
— Ko'rganlaring, og'ayni,
She'riy kino deyilar!

MEHNAT

Singillaring qo'shiq aytishsa
Sochpopuklar taqib nahorda,
Ko'z uzolmay o'rik gulidan
Bahor yaxshi deysan, bahorda.

Yozda bo'lsa, yoz huzur deysan
Yalangoyoq jo'naysan soyga.
Oqshomlari osmonga boqib
Chiqib ketging keladi oyga.

Kundek ayon bolaligingdan
Qaysi meva pishar qay vaqtida.
Ko'ngling qishda qishni xushlasa,
Kuzda senga ko'z tikar paxta...

Uka, o'ylab ko'rganmisan hech
Ne sababdan fasllar go'zal?
Ne sababdan har biri qutli,
Har birida nasiba tugal?

Bu juda jo'n, juda ham oddiy
Savolda yo'q siru sinoat.
Faslarni fasl aylagan
Bilsang, so'zsiz MEHNATdir MEHNAT!

Mehnat borki, hayot abadiy,
Mehnat borki, jannatdir jahon.
Mehnat borki, yaratilish bor,
Yaralish bor, bor paxta-yu don!

Mehnat borki, olamda tus bor,
Dasturxonlar to'kin, muhtasham.
Mehnat ila Haqqa talpinar,
QUYOSH, YER, SUV, VAQT va ODAM!

YOMG'IR

Tunlari kuladigan
Gullar ekan yulduzlar.
Ko'zga ko'rinas ekan
Shu boisdan kunduzlar.

Oftob bilan Oymoma
Ota-yu ona ekan.
Bolalarin boshida
Doim parvona ekan.

Bolalari kim dersiz
Kun va Oyni sizlar ham.
Menga ishonavering,
Ular Bulutlar desam.

Bulutlar ham bizlardek
O'ynar, uxlар, tush ko'rар.
Dengizu ummonlarda
Cho'milmoqni xush ko'rар.

Bas, suvdan chiqing, deya
Koyimasa ham hech kim,
Yuvar yuz-qo'llarini
Ular goh chala-yarim.

Bundan ranjib Ostobjon
Egniga peshband tutar.
Farzandlarin bir joyga
To'planishlarin kutar.

Bulutvoylar g'o'ldirab,
Yo'talishsa ham «quv-quv»,
Ularning ust-boshidan
Quyosh quyar tinmay suv.

Ko'ngli to'lsa-ku xo'p-xo'p,
Yo'qsa, quyar tunda Oy.
Natijada tevarak
Bo'lib ketar ho'l va loy...

Uydan chiqmay shu kezlar
Derazadan bo'ylaymiz.
Eng qizig'i, bu suvni
Biz yomg'ir deb o'ylaymiz?..

KINOSHINAVANDA

Qaydan buncha ishtiyoq?
(Yo bormikan qonida)
Yulduz kino ko'rishni
Yaxshi ko'rар jonidan.

Xoh shom bo'lsin, xoh peshin,
Yarim kecha bo'lsin xoh,
Televizordan Yulduz
O'tirar uzmay nigoh.

Kino ko'rib ovqat yer,
Kino ko'rib ichar choy.
Tushida ham u kino
Ko'rib chiqar hoynahoy,

— Qiz bolaga shu epmi? —
Desak bermas so'zini.
Oyijoni yalinar:
— Jonim, asra ko'zingni.

Sen tengilar uqlashar
Soat o'n bir bo'lgan payt.
Kino ko'rib uzzu kun
Olim bo'lgan bormi, ayt?

— Bor! — der Yulduz jilmayib,
Erkatoy qizlarga xos.
— O'shandaylardan chiqar,
Masalan...

kinoshunos!

PASHSHALAR

Kun tig'iga bardosh berib,
Arilar-la olishib,
Olcha terdik xolamizga
Teru changga qorishib.

To'ldirvordik oz fursatda
Necha-necha paqirni.
Tushlik payti Qo'yсин xola:
— Choyga-a! — deya chaqirdi.

Ishlagan biz, terlagan biz
Bu hol ne deb atalar?
Yetib keldi dasturxonga
Bizdan avval pashshalar...

PISHIQCHILIK

Hali u qush, hali bu qush
Tutni cho'qib, to'kar yerga.
Jig'ibiyron bo'lib akam
Zumda botar jiqqa terga.

— Qo'riqchi ham, kesak-tosh ham
Dang'irchadan taralgan sas,
Bu quloqsiz «tutxo'r»larga
Kelmayapti sirayam bas.

Endi nima qilsak ekan
Deya tursak o'yga tolib,
Gapimizga aralashdi
Jajji Zebo kelib qolib:

Jiddiy boqib ko'zimizga
Kattalardek silab iyak,
Dedi: — Unda, tutimizga
Chumchuqdori sepish kerak!

SHAMOL

(*Ne'mat Dushayevga*)

Qay bir kuni yulqilab
Chiroqlarni o'chirding.
Uyimizning ohagu
Shuvog'ini ko'chirding.

Kecha terak shoxlarin
Sindiribsan — sochibsan.
Shiferni ko'tarolmay,
Yerga tashlab ochibsan.

Mixlarni sug'urgan ham
O'zingdirsani ehtimol?

So'zlarimga, shamoljon,
Bir zum to'xtab, qulq sol.

Uy-joy qurish uchun ham
Kerak farosat, fahm.
O'zgalar tomin buzish
Bilsang, gunohi azim.

Buzma, uzma, shamoljon,
Sen bog'larda o'yna, kul.
Gullar bag'ringda yashnab
Atrini sochsin butkul.

Esaver mayin-mayin,
Yashnasin yuzim, ko'zim.
Kerak bo'lsa senga uy
Qurib beraman o'zim...

SHIRIN BOYLIK

Yer ostida nimalar bor?
Yer ostida konlar bor.
Temir, ko'mir, gaz, neft degan
Sanoatbob «non»lar bor.

Yer ostida nimalar bor?
Yer ostida boylik bor.
Oltin, kumush, aluminiy —
Qaynoq mehnat, oylik bor.

Xoh ishoning, xoh ishonmang,
(O'zingizda ixtiyor).
Oyog'imiz ostida ham
Hisobi yo'q shakar bor.

Ketmon tegsa agar unga,
Suv ho'plasa o'sha yer,

Peshona ter to'kkан odam
Shakar emas, asal yer.

Mohir bog'bon bo'lib ketar
Uch yil mehnat qilsa gar.
Paqir-paqir, savat-savat
Eltar bozorga... shakar!

Qiyom, shinni, sharbatlarga
To'lib ketar ombori.
Farzandlari sog'lom o'sar,
Izlamas darmon, dori...

Bu yer osti «shakar»ining
Nomi — olma, nomi — nok.
Nomi — anor, anjir, o'rik,
Xurmo, jiyda, gilos, tok...

NON MADHI

Eskilar topib aytgan
Ro'zg'or nomi bilan g'or.
Unda doim nedir kam,
Yetishmovchilik tayyor.

Yo'q, bu shikoyat emas,
Picha qoralab qog'oz,
Yorgim keldi dilimni
Siz azizlarga, xolos.

Tunov kun, yarim tunda
(Hay, hay, yana kimlar deng?)
Kelib qoldi mehmonlar
O'shdan, shimarishib yeng.

O'shdan Yangiyo'lgacha
Axir ozmuncha yo'lmi?

Tog‘a-yu ammalarim
Yuvgunlaricha qo‘lni,

Ko‘rpachalar to‘shadik
Keng xonaga bir taxmon.
Quling o‘rgilsin qilib
So‘ng tuzadik dasturxon.

Dasturxonning ko‘rkiga
Ko‘rk qo‘shdi qaymoq, tarvuz.
Bodom, asal, murabbo,
Yeryong‘oq, sharbat, mayiz.

G‘aynoli-yu o‘rikning
Turshagi ham qolmadi.
(Suvga chayib olingan
Olma derdi: — Ol, mani!)

Ayni yarim kechada
Dam yesa-da oshimiz,
Kutilmaganda, birdan,
Qashlab qoldik boshimiz.

Bundayin qiziq holga
Tushmagandik bizlar hech.
Qolmagan ekan uyda
Bir burda non o‘sha kech.

Qo‘shnidan so‘rash uyat,
Do‘konlar bo‘lsa, yopiq.
Bosa olmay non o‘min
Hayron somsa,
lol qatiq...

Zimdan kuzatib yotdim,
Ichilmadi hatto choy.
Yeyilmadi qatlama,
Yeyilmadi palov, moy...

Tan berdim o'sha kecha
Va ishondim begumon —
Har uy — har dasturxonning
Podishohi ekan NON.

YOQIMLI TANISHUV

(Y. TUVIMdan ilhomlanib)

Saharda qo'y bo'lgan go'sht,
Saharda qo'y bo'lgan moy,
Ikki just yangi piyoz
(Oqqa'rg'onlik hoynahoy),
O'rategalik sabzi,
Farg'onlik devzira,
«Orzu» otlig' osh tuzi
Hamda xorijlik zira,
Yangiyo'l bozorida
Tongda uchrashib qoldi.
Tanlab-tanlab ularni
Bir yigit sotib oldi.
Piyozlarni parraklab
Yigit ko'zin yoshladı.
Qizib turgan qozonga
Barin tashlay boshladı.
Dastlab unga moy tushdi,
Keyin piyoz bilan go'sht.
«Yog'ilarkan» qozonga
Sabzi dedi: — Po'-sht, po'-sht, po'-sht!
O'ratega «qozig'i
Hazilkash ekan juda.
Qizib ketdi tanishuv
Yog'li qozon ichida.
Yoqdi chog'i qaynoq suv
Raqs tushib, biqirlashdi.

Bir-birlarin achenlab,
Armonsiz qiqirlashdi.
Og'aynilar bag'ridan
Joy olgach zira, guruch,
Kapgit tutgan yigitni
Quchdi quvonch, zavq-shavq, kuch.
Qozon og'zin yoparkan
Kuylab, oz-oz tuz soldi.
Cho'g' qoldirib o'choqda
Olovni tortib oldi.
...Yonib bitdi tok zangi
Beminnat olov bo'lib.
Qozondagi tanishuv
Tugadi PALOV bo'lib!

ORZU YO'LIDA

Hofiz, shoir, olim, aktyor...
Qisqasi, qo'shnim Dilshod
Kimligidan qat'i nazar
Bo'lmoqchimish buyuk zot.

Buyuk bo'lish oson emas —
So'zlamoq lozim mayin.
Yugur-yugur, chop-choplarga
Ko'milmoqlik ham tayin.

Hali yig'in, hali majlis,
Hali qator uchrashuv.
Hali safar taraddudi,
Hali jonli ko'rsatuv...

Orzusiga yetmoq uchun
Boshlab yuborgan ishni —
Mashq qilyapti shu kunlarda
U suratga tushishni...

BOZORBOY

(*Topishmoq she'r*)

Bozor kuni Bozorboy
Bozor sari yo'l oldi.
Ko'rib lak-lak odamni
Og'zi ochilib qoldi.

Bolta sotar Boltavoy,
Qo'chqor aka olar qo'y.
Anorlarin pullolmay,
Anor xola surar o'y.

Bir bechora ayolga
Niyozvoy tutar niyoz.
— Kep qoling, — deb Sarimsoq
Sotar sarimsoqpiyoz.

Xo'roz olib Norxo'roz
O'zida yo'q shodlanar.
Rayhonin sotib bo'lgan
Rayhon uyg'a otlanar.

Bozorboyning yengidan
Tortib: — To'xta, — der Asal.
— Bol ola ket xolamga,
Zora arisa kasal.

Kimni bilsa, barisin
Bozorda ko'rdi Bozor.
Yarmisi buyum sotar,
Teng yarmisi xaridor.

Ola-g'ovur, shovqindan
Uchib qovog'u qoshi,
Yorilib ketay dedi
Bozorginaning boshi.

Rastalarni aylandi
Ko'zini bosib uyqu.
Shu sabab ko'p tanishin
Ismin eslolmadi u...

Muxtasar she'rimizga
Shu yerda qo'yib nuqta,
Parishon Bozorboyga
Yordam beraylik puxta.

Avvalo, she'r yo'liga
Bering, diqqat, e'tibor.
So'ngra toping kimlarni
Bozorda ko'rdi Bozor?

Yozib chiqsa kim eng ko'p
Bu tanishlarning barin,
Qoyil qolib zehniga
Deymiz yasha, ofarin!

QOR SURURI

Qorsiz o'tdi dekabr,
Qorsiz o'tdi Yangi yil.
Qishga dedi bolalar:
«Endi, bilganingni qil!»

Qish shamolga so'z qotdi:
— Bulutlarni chorla, deb.
Siylamasam bo'lmaydi
Bolalarmi qor-la, deb.

Qish tog'larga so'z qotdi:
— Bo'lib turing ko'z-qulog.
O'yinqaroq bulutlar
Ketib qolmasin yiroq.

Qish osmonga so‘z qotdi:
— Jon, oshna, qo‘llab yubor.
Yomg‘iring tegdi jonga,
Endi yog‘dir faqat QOR!

Qish osmonga do‘q urdi,
Qish osmonga elandi
Va nihoyat tevarak
Oq shodlikka belandi.

Bolalar ning quvonchin
Ana endi ko‘ring siz.
Ko‘chadan soy, qirgacha
Iz ustiga
iz...
iz....
iz...

Nechasi tortar chana,
Quvnar uchib yaxmalak.
Nechasi qorboboga
Burun topolmay halak.

Jajjilar-ku jajjilar
Kattalar ham shod, xushhol.
Qish go‘yoki qor emas,
Hammaga ularshgan bol...

Bulutlar karvonini
Kuzatib qo‘ygach osmon,
Kulgichlari qizarib,
Ko‘kda kuldji oftobjon.

Oftobjon kulgasida
Dilkashlik bor, bahor bor.
Rahmat senga, kumush qish,
Rahmat senga, oppoq qor!

«MUALLIM»

Qattiqqo'l muallimga
o'xshar qahri qattiq qish.
Yupun kiyinib chiqsang,
dalami ko'cha yoqqa,
Ortingga hoziroq qayt,
yo'qsa shamollaysan, deb
Yaxdek qo'llari bilan
yopishadi qulqqo!

KO'CHA

Bolalarga nima yoqar?
Koptok,
kitob,
muzqaymoq?
Velosiped?
varrak,
kaptar?
Uzum,
asal,
o'yinchoq?

Balki o'yin yoqar dersiz?
Balki xushdir kumush qish?
Salom berib kattalarga
Maqtovu olqish olish?

Bolakaylar KUN oshig'i
Misoli kungaboqar.
Shu boisdan, eng avvalo,
Ularga ko'cha yoqar!

Ko'cha — hordiq, ko'cha — meva,
Ko'cha — to'p, ko'cha — anhor.
Ko'cha — o'yin, ko'cha — suhbat,
Unda hamma narsa bor!

ZIYOFATNING DAVOMI

— Ol, Ro'zivoy, nokdan ol,
Mana qaymoq, mana bol.
Shakar, qandni qo'ya tur,
Choyingga novvotdan sol!

Qazidan ye, go'shtdan ye,
Ye qovun, yog'li patir.
Oh, oh... palovto'raning
Ta'mi olamga tatir...

Mehmonlar tarqalishgan.
Quvonchdan yashnab ko'zi,
Tinmay manzirat qilar
O'zini-o'zi... Ro'zi...

QO'RQQAN OLDIN MUSHT KO'TARAR

Kemshik, teshik, qurt tushgan
Tishlarimizni sanab,
Shirinlikning ishi bu
Der edingiz bosh chayqab.

Sog' tishlarga ne yetsin!
Shirinlikdan foyda yo'q.
Oyijon, ko'nglingizni
Qilavering endi to'q.

Boya ukam ikkimiz
Yerto'lada o'ynadik.
O'sha yerda ham, oyi,
Faqat sizni... o'yladik.

Hozir bir gap aytaman,
Lekin xafa bo'lmanq siz —
To'rt bonka murabboni
Yerga ag'darvordik biz...

AKAMNING NOKI

Egasiga o'xshar mol!
Bu naqadar to'g'ri gap —
Katta bo'lgani sari
Ko'chadan kelmas Rajab.

Rajabing kim deysizmi?
Rajab mening akamda.
Hovliga nok ekkandi
Shu yil erta ko'klamda.

Noki ham xuddi o'zi,
O'yinda fikru o'yi —
Devor osha ko'chadan
Ko'zin uzmas kun bo'yi.

QOVUNXO'RLAR

— Qovuningning oldida
Ip esholmas hatto bol,
Didingga «besh» ketdim, «besh!» —
Dedi Dehqonga Jalol.

— Bol ham gapmi, novvot u!
Rangi misoli tilla.
Ta'mi bo'lsa, oh, oh, oh! —
Der kulib Rixsitilla.

Kattaligin chamlab,
— Qovunni-chi, — der Hasan, —
Ginneslar kitobiga
Kiritsak ham bo'larkan.

Dehqonboyni shu zayil
Maqtar ekan jo'ralar,
— Jud-da to'g'ri! — der Taka
Bosh chiqarib qo'radan.

So'nggi so'zni aytar u
Oxurin tepib to'q-to'q:
— Qovunni-chi, bolalar,
Po'chog'iga vey, gap yo'q!

UYQUCHINING TUSHLARI

— Mushtdek-mushtdek arilar
Nishin sanchdi bo'yninga.
Vishillashib ilonlar
Kirib oldi qo'yninga.

Jarliklardan sakrolmay
Muzdek terlarga botdim.
Ajinalar quvlagach,
O'zimni soyga otdim.

Qaynoq ekan soy suvi
Badanlarim burishdi.
Meni cho'qimoq bo'lib
Qushlar uchib kelishdi...

Oymomaga urvoldim
Peshonamni shu fursat...
...O'n birmi ko'rsatardi
Uyg'onganimda soat...

— Yaxshiyamki o'n birda
Uyg'onibsan, Muzaffar.
Birgacha yotganingda
Bo'larding bundan battar —

Oymomaning yonidan
Qular eding tog'larga.
Duch kelarding u yerda
Qaroqchilar — zog'larga.

Ular seni tutvolib
Qorningni ishqab qorga,
O'ylab ham o'tirishmay,
Osishar edi dorga!

KAMOLANING MUSHUGI

(*T. Adashboyevga*)

Sanab ko'rsam, mo'ylovi
O'ntacha ekan, xolos.
Go'shtni paqqos tushirdi
Ammo yemadi gilos.

Ayirarmish quvalab
Sichqonlarni es-hushdan.
Lekin itdan qo'rqqandek,
Qo'rqarmish kalamushdan.

Erkalansa dumini
Gajak qilib turarmish.
Xafa qilsa bolalar
Tomda o'ynab yurarmish.

TO'Y OSHI

— Oshdan oshab
uch-to'rt chuqum,
Bo'lib ketding
qayerga gum?

— Xo'p shirin-da
to'yning oshi,
Malik aka
Qozonboshi.

Yonlariga

borib hozir,
Doshqozonga
ko'z tashlab bi-i-r,

Kattalardek
uyib qoshim,
Sarak-sarak
qildim boshim.

— Oshpaz nima
dedi senga?
— Oshpaz shunday
dedi menga:

— Solavermay
qovog'ingni,
Tez olib kel
tovog'ingni!

TOMOSHABIN

Multfilm deganlari
Ajoyibu zo'r ekan.
Quyon ziyrak, chopag'on,
Bo'ri bo'lsa g'o'r ekan.

G'o'r bo'lmasa Bo'riboy,
Zo'r bo'lmasa Quyonjon,
Yopib olgan bo'lardim
Og'zimni allaqachon!

Tobishmoqlar



* * *

Shakl bersang, nok bo'lar
 Shakl bersang, qulupnay.
 Pichagina qunt bilan
 Yasash mumkin undan nay.

* * *

Ado etib o'zini
 Tozalikka yo'l ochar.
 Suv tegsa goh qo'llardan
 Baqaga o'xshab qochar.

* * *

Neki bo'lsa dasturxonda
 Barisini talaydi.
 Indamasdan,
 Qo'yib bersang,
 O'zingni ham yalaydi.

Baqir-chaqir, to'polonni
Sezmas, garang hoynahoy.
Piyolaga yaqin kelmas,
Quyib bersang issiq choy.

* * *

«Qo'shiq» aytar ming'irlab,
«O'yin» tushar g'ing'irlab,
Yashirinib oladi
Chiroqni yoqsam nolon.

Bu zumrasha, bu beyuz —
Chaqirilmagan mehmon,
Qiliqlarin haqiga
So'rар mendan faqat... qon!

* * *

Kunu tun parvona zamin boshida
Na damni bilishar, na olishar tin.
Biriga qarasang, ko'zing qamashar,
Biriga soatlab tikilish mumkin?..

* * *

Qancha shirin bo'lsa,
shuncha,
Og'zingizni toldirar.
Qo'lingizdan qo'ymasangiz,
Sizni ishdan qoldirar.

* * *

Chiroq o'chsa, yordamga kelib,
Yog'du sochib, ko'nglimiz olar.
Yonib-yonib ado bo'lquncha,
To'rt devorga rasmimiz solar?

* * *

U bor bo'lsa, na yomg'ir, na do'l,
Eta olar ko'nglingni xira.
O'ylagani yelkaaru bosh,
Oyoq bilan ishi yo'q sira?

* * *

Taqinchoqmas, tasmamas
Va na bo'yinbog'.
Tushay demas bo'yindan
Sovuq bo'lgan chog'?

* * *

«Puf-puf» desam, oynadan
Yo'qoldi rasm.
Uning musavviri kim
Bilsang, ayt, Nasim?

* * *

Yog'och uychaman
Serrang, serbo'yoq.
Bag'rimga sig'ar
FAQAT chaqaloq.

* * *

Parraksiz ham osmonda
Parvoz etaman.
Tortmasangiz ipimdan,
Oyga yetaman.

* * *

Hech kim kulmas ustingdan
Hech kim demas «voy!»
Artib yursang burningni
Unga, kichkintoy?

* * *

Qaqroq qirlar quvonib
Bag'ini ochar.
Sal tezlashsa, odamlar
Panaga qochar.

* * *

Yorib oppoq uychasin
«Chip-chip» deb qo'ydi.
Chuvalchangni cho'chimay
Cho'qib yeb qo'ydi.

Ounasiga dedi so'ng
Uyalib biroz:
— Yana qanchadan keyin
Bo'laman xo'roz?

* * *

Qizlar juda yoqtirishar
Onaxonlar boldoq der.
Bilsang gapir, qulog'ingni
Qashlayvermay, G'anisher.

* * *

Shu gapim gap, shodlik, quvonch
Totuvlikdan boshlanar.
O'rtoq bo'lib igna bilan
Kam bo'lmadim, oshnalar.

* * *

Bo'lmasa ham til-og'zi
Ayta olar uchta so'z.
So'zlarini tinglaymiz
Ko'zlariga tikib ko'z.

* * *

Menga qarab osmonni
Ko'rsangiz bo'lar.
Sochingizni maydalab
O'rsangiz bo'lar.

* * *

Dilga surur solguvchi
Alangamiz alanga.
Bahor kelsa qirlarni
Belaymiz alvon rangga.

* * *

Yuvoshroqmiz kuchuklardan
Sariq, ola, qoramiz.
Bir emas, naq besh harfni
Yoddan ayta olamiz.

* * *

Dasturxonlar ko'rkimiz
Lo'ppi, mazali.
Sedanali, piyozli
Hamda jizzali.

* * *

Ertalabdan kechgacha
Echkini talar.
Qorni ochsa irkitlar
Lunjini yalar.

* * *

Ohangi xush, yoqimli
Doira bilan,
Chetda turmay, o'yin tush
Shoira bilan.

* * *

Bozorlarda hurmati zo'r
Savdo usiz bitmaydi.
Sotuvchiga yon bosishi
Endi sira ketmaydi.

* * *

Qop-qoradir
Jismimiz.
Charos erur
Ismimiz.

* * *

Suvdan bunyod bo'lgan bu gul
Biram tiniq, biram mayin.
Quyosh kulta tepasida
Ko'rsatarmish kamalagin.

* * *

Yura olar — oyog'i yo'q,
Qanotsizu parvoz etar.
O'qiganlar sevinsin deb
Pochtachilar tashlab ketar.

* * *

Sahifasi ochilgan
Kitobchaga o'xshayman.
Kitobdek ezgulikka
Xizmat qilishga shayman.

Topolmadim deysanmi,
E, qanaqa bolasan.
Meni mizrob bilanmas,
Qo'sh cho'p bilan chalasan.

* * *

Mahsi-kovush, shippak degan
Jiyanlari — qizlari ko'p.
Xiyobonu to'yda emas,
Paxtazorda izlari ko'p.

* * *

Tun-kun ishlar soatdek,
Olib-berar qon.
To'xtab qolsa,
to'xtasa,
Yurmas hech qachon!

* * *

Bayroqchaman, bayroqcha
Rangim yam-yashil.
Kuzga qadar hilpiray,
Shamol, shafqat qil.

* * *

Biror kimsa razm solmas,
Qumdag'i iz — xatiga.
Kuni bo'yи cho'milsa ham
Suv yuqmaydi patiga.

* * *

Hech narsani eshitmas,
Na og'zi, na ko'zi bor.
Shu holi bilan boqqa,
Qushni yo'latmas zinhor.

* * *

Pak-pakana bu daraxtni
Parvarishlab, avaylab,
O'zbek bobom dala kezar,
Qaramay chang, loylarga.

Har kuzakda ko'ngli to'lib
Uygani — xirmonidan
Jo'natadi tolalarin
Uzoq-uzoq joylarga.

* * *

Yotgan bo'lsa yerda kitob,
O'qimasdan qo'ymaydi.
Yoqtirgani — bayroqlarni,
Erta-yu kech o'ynaydi.
Ko'klam chog'i bulutlarni,
Yelkasiga mindirar.
Fe'li aynib qolsa ba'zan,
Daraxtlarni sindirar.

Rasmdan she'riy saboqlar



1- saboq

Chiz mana bunday uchburchak:



Chiz yana bunday uchburchak:



Ostiga tort uzun chiziq:



Ustiga tort uzun chiziq:



Chizgan rasming, Norqo'zi,
Bo'lar xatjildning o'zi!



2- *sabiq:*

Daftaringni qilmay kir,
Shoshilmasdan yozgin

1

Yo‘q, bo‘yi kalta buning
Qaddi g‘oz bo‘lsin uning.

1

Bu boshqa gap, juda soz,
Xafsala qilib biroz,
Chapdan yana shoshmasdan
Ilmoq chizib chiq pastdan.

1

Chizganim nimaykin deb
Savolga tutma meni.
Ilmoqlarning yoniga
«Ilib» chiq, sherigini.



Barakalla, qoyil der
Rasmningni ko‘rgan barcha.
Ana shunday chizilar
«Bir»dan chiroyli archa!



3- saboq:

Bitta tosh




Ikkita tosh



Uchta tosh



O'nta tosh



Shuncha toshni chizdim deb
Maqtanaverma, Yo'l dosh!
Yaxshilab boq, toshlarmas,
Chizganing uzum — bir bosh!



4- saboq:


Diqqat bilan Shoira,
Chiz yonma-yon doira.



Doiralar ustiga
To'g'ri to'rtburchak qo'ndir.



Ana endi oxirgi
Topshiriqni ham do‘ndir:
To‘rtburchakning ustiga
To‘rtburchak shaklini sol:



Bu rasmni «mashina»
Deyish mumkin bemalol.



Xoh ishoning, xoh ishonmang



BIZ TOMONLARDA

Yoz oylari yog‘ar issiq qor,
Qaynab oqar anhorda sutlar.
Teraklarning uchiga qo‘nib,
Erta-yu kech uxlар bulutlar.

Biz tomonda havo asalday
Totimlidir, pokdir qordan ham.
Dard neligin bilmay shu sabab
Ikki yuz yil yashar har odam.

Chaqaloqlar onalarini
Ko‘tarishib yurishadi dast.
Biz tomonda sharob ichibmas,
Gul isiga bo‘ladilar mast...

BO'LGAN VOQEALAR

Gullolaning tug'ilgan kuni
Lola yog'di osmondan tinmay.
Yig'lavordi bitta chumoli
Bosib olsam oyog'in bilmay.

Oq kaptarim Bahodir degan
O'rtog'imdan olib keldi xat —
Samarqandning sog'inchi, sasi
Baxsh ayladi menga zavq, hayrat.

Kuzak edi o'shanda chog'i
Derazamni chertdi allakim.
— Kim u? — deya ovoz bersam ham
Turaverdi indamasdan, jim.

Miq etmadim har safargiday,
Kelmasin deb ko'ngliga malol —
Chaqaloqqa o'xshab «inga»lab,
Kirib oldi xonamga shamol.

...Lof deysan-a, «e»ing nimasi?
Bilgan gaping «e», «e» ekan-da.
Shunday ishlar bo'lgan, jo'rajon,
Bizlar tomga sholi ekkanda!

KINOYULDUZ

Ikki oylik edim chamamda,
Yanglishmasam, o'sha paytlar.
Dostonlarni epolmasam ham
Yoza olar edim baytlar.

Bo'limasa-da og'zimda tishim
Yong'oqlarni ko'rdim demasdim.

Singlim ovqat pishirib kelsa,
Qo'llarimni yuvmay yemasdim.

Qisqasi, men — kimsan bir oyu
Ming soatlilik jish — chaqaloqqa,
Taklifnama kelib qoldi deng
Kinoda bosh rol o'ynamoqqa.

Aytaversam gap juda ham ko'p,
Qiziq ekan kino degani.
Qo'lingga nok tutqazib qo'yib,
Ruxsat berishmaskan yegani.

Bu filmda baqirmas hech kim,
Qovoq solmas birov-birovga.
O'ljalarin suvga qo'yvorar
Baliqchilar kelganda ovga.

Yo'lbars, quyon, olmaxon, tulki
Yashaydilar bir inda ahil.
Qilinadi oyga badarg'a
Barcha badnafs, poraxo'r, baxil.

Qahramonim — jippi bolakay,
Kashf etib ajoyib bir tig',
Nafaqat Yer, hatto ko'kni ham
Mikroblardan aylaydi forig'.

Boshidan to oxirigacha
Asar rangga — ohangga to'liq:
Qo'shiqlardan gul hidi kelar,
Gullar aytar ovozsiz qo'shiq!

Tengi yo'qdir qahramonimning,
Betimsoldir kuchda, bilimda.
...Ana shunday ko'rinishlar bor,
Men suratga tushgan filmda!

KAMTAR

Ishonmasdim shunday hodisa
Ro'y beradi o'ngingda desa!
Jinni bo'lib qolayin debman,
Isoq... tirik ilonni yesa!

Eshitgandim it yeganlarni,
Eshitgandim bit yeganlarni.
Ko'z o'ngimda sodir bo'lgan ish
Tamom hayron ayladi mani.

Qo'rqqanimdan yuzlarimgacha
Toshib ketdi potirlab uchuq.
O'ziyam bir haftacha kului
Ahvolimni ko'rgan Nor puchuq.

Yurak yutib, borsam yoniga
Shu ham ishmi, deya qo'l siltab,
To'rt muchasi soppa-sog' Isoq
So'zlay ketdi qornini silab:

— Eshitardim Hoshim akani
Ilonlarning yog'in yalar, deb,
Men bor-yo'g'i qiynab o'tirmay,
Bittasini qo'ya qoldim yeb!

«TEJAMKORLIK»

Zeboxonni asal qizcha deb
Qo'ldan qo'ymas amma, xolalar.
Ko'targani ko'targan suyib,
Uni qizlar, qo'shni bolalar.

Beshigiga belasa opam
Alla aytar shakarginam deb.
«Qo'rqtadi» dadam ba'zida
— Popugimni qo'yamanov yeb!

Zebobonu tug‘ilibdiki,
Uyimizda har kuni shu hol.
Bamisoli naqsh olmaday
Yuzlarini deysiz xuddi bol.

Tushlikda ham, nonushtada ham
Novvot qizni o‘pib tolmaymiz.
Bo‘lmasin deb shirinlik isrof
Choyimizga shakar solmaymiz!

MAMAROZIQNING TUSHI

«Oyi» so‘zi o‘rischada
Qay yo‘sinda aytilar?
Obdon o‘ylab, shoshilmasdan
Bitta-bitta aytinlar!

Muallima shu savolni
O‘rtaga tashlagan on,
— Mama! — dedi tap tortmasdan
Hozirjavob Mamajon.

Mamajon, bu Mamajon-da,
Sinf birdan jonlandi.
Har tarafdan, galma-galdan
«Mama» deyish boshlandi.

— Mama, — dedi Mamausmon,
— Mama, — dedi Mamatosh.
— Mama, — dedi Mamasulton
va uchirib qo‘ydi qosh.

— Mama, — dedi Mamaqo‘zi,
— Mama, — dedi Mamashoh.
— Mama, — dedi Mamaro‘zi
Hiqichoq tutib nogoh.

— Mama, — dedi, mama, — dedi
Mamasho, Mamarajab.
...Xullas «a'lo» baho oldi,
Hamma...Malar
 ma...
 ma... lab!

G'AROYIB HODISA


Changyutgichim xonamning
Changini rosa ho'plar.
Vag'illab, qornidagi
Oshqopchasiga to'plar.

Zavqlanaman «xartumin»
Gilam uzra yurgizib.
U go'yo guldengizda
Yurgandek bo'lar suzib.

Hayotda bunday holni
Ko'rmagansiz sira ham —
Kunlardan bir kuni deng
So'zlab yubordi «oshnam».

Quloq tutib gapiga
Bo'lib qoldim hangu mang:
Yutarmishman kun bo'yi
Men ham... anchagina chang...

Ismli she'rlar



GEOGRAFIYA DARSIDA

— TOSHKAN SHAHRiga tegma,
LONDON ham tura TURSUN.
Bizga MADINAnimas,
Qutbni ko'rsat, UNSUN.

Yerning shimoliy QUTBI
Nahot xaritada yo'q?
Bu bo'lishi mumkinmas,
Qizim, ko'ngling BO'LSIN to'q.

ZUHUR unda har bir joy,
CHAMANlar ham, tog'lar ham.

**GULLOLAg a burkangan
FAYZI BO'LAK bog'lar ham.**

**Unda QUDRAT, HIKMAT ko'p,
Unda MUROD mujassam.
NAZAR solsang topasan,
QUDDUS, OBIDJONni ham.**

**Qancha-qancha DIYORu
AZIM, AKBAR DAVLATLAR,
JAVLON urgan daryolar,
MUAZZAM MAMLAKATlar,**

**Ummonlaru O'RMONlar
Bani BASHAR unda jo.
Xarita — bu o'zimiz,
Xarita — QUTLUG' dunyo.**

**Sen bo'lsa, ona qizim,
QUMRIDay jonsaraksan.
JAHONning bir QUTBIni
Topa olmay halaksan...**

**ELBERDIYEV ELBO'LSIN
Domlamiz shunday derdi.
So'ng o'zi xaritadan
Qutbni ko'rsatib BERDI.**

ISMLAR MAMLAKATI

**MUATTAR ekan u yurt,
MUNAVVAR ekan u yurt.
YONG'IN, QILICH, KO'CHKINlar
U yurtga ekan unut.**

**ROHAT ila FAROG'AT
U DIYORga ESH ekan.
CHAROS ko'zli QIZLARning
HUSNI HULKAR — «besh» ekan.**

Tinch-OSUDA yasharkan
U elda OYIMQIZlar,
FAZILATli YULDUZlar,
SULUV, UMRI AZIZlar.

XOSIYATli ekan xo‘p
U yurt tog‘larin qori.
Uch oy emas, uch yuz kun
YASHNAR ekan BAHORi.

BO‘STONlarda MA’SUMA
ZEBOoylar sayr aylab,
Dillariga SEVINCНni
Yurishar ekan joylab.

YOQUT ko‘zli uzuklar
Taqib olgan LOBARlar,
MALOHATli BARNOlar,
MAHBUBAlar, DILBARlar,

LATIF g‘azallar aytib
BAHRI-dili OCHILib,
Yashasharkan SALOMAT,
SABOlarday sochilib...

Tushlarimda ko‘raman
Ularni goh-gohida.
Baxt kaliti bor ekan
O’sha yurt podSHOHIDA.

Yo‘q, yo‘q, xayoliy emas,
Bu she’rda yo‘q sir, ASROR.
ISMLAR MAMILAKATI
Rostdan ham bor, rostdan bor!

...Qayerdasan, qaydasan?
Yerdami, ko‘kda, qayda?
Qalb nomli SAYYORAda,
Ehtimol GO‘ZAL oyda?

Qaydasan, ay, MUNIS yurt,
Qayerdasan, DILNAVOZ?
Ey, ismlar maskani,
Bizga ovoz ber, ovoz!

OTAJONIM DUOSI

Erishay deb G'OLIBlik,
Ya'ni mutlaq ZAFARga,
OTAm bilan xayrlashib
Jo'nab ketdim SAFARga.

Ko'ngli SULTON YO'LCHillar
YO'LDOSH bo'lди yo'limga.
Qo'li ochiq QO'LDOSHlar
Qo'l berdilar qo'limga.

Sovug'i kor qilmadi
Salqin saharMARDONni.
Yengolmadi kurashda
Hech kim menday POLVONni.

Otajonim duosi
Topib IJOBAT, AMAL,
Bellashuvda NISHONni
Uzil-kesil qildim hal.

Bu duo ZAMIRida
Tengsiz UMID bor edi.
U QUVVAT BERDI menga —
Raqiblarim horidi.

Alqaganim, alqagan:
OMON bo'ling, OTAJON.
UMRIngizu RIZQIngiz
Hech vaqt topmasin POYON.

GULHAYOT GULSHANida
O'zingizsiz nahrimiz.
Bo'lib yuring MANGUga
QUVONCHimiz, FAXRImiz!

SHIRINSUXAN SOTUVCHI

— OLMOS, TILLA, zar bilan
Bizlar savdo qilmaymiz.
XOLIS NIYAT doim yor,
Egrilikni bilmaymiz.

MAQSADimiz el-yurtning
RAHMATin olib yurish.
ODAMlarning ko'ngliga
XURRAMlik solib yurish.

UZOQ joydan yo'l bosib
Kelibsiz-da, opa, siz.
FERUZAyu **GAVHAR**ni
Huv, **BOZOR**dan topasiz.

Kerak bo'lsa mabodo
A'LO sifatli dazmol,
POPUK, **ASAL** va **BODOM**,
Satin, **ALOMAT** gazmol,

Do'konchadan **TOPI**Lar,
Aytavering, **MARHAMAT**.
Narxi qancha deysizmi?
Narxi hech emas **QIMMAT**.

ShaKARIM bor, tuzim bor,
Hech bo'lmasa oling **QAND**.
Hojatingiz chiqarsak,
Bo'lamiz **QUTLI**, **XURSAND**.

...Kelib turing, opajon,
Dilingizni qilib to'q.
Bor O'TKIR pichoqlarim,
Ammo uzl, **SHOYIM** yo'q...

«ECHKI»

Mehmon bo'lsang o'zingga!
(MAHKAM bog'lang qo'lini!)
Yo'q qilibdi bu nodon
Mehnatini CHO'LIni.

Ta'ziringni berardim
Bo'lganida boshqa payt.
Nihollarni sindirib
Nima SAMAR topding, ayt?

Mana bu ANORlarning
Qomatlari edi tik.
NISHONa bergen edi
Bilsang, mana bu o'rik.

O'SARDi EMIN-ERKIN
RAHMAT derdi tottingan.
MO'MIN bo'lsa ham isming,
Qahring TOSH, TEMIR ekan.

Hatto MIRZAterak ham
Dastingdan qolmabdi sog'.
Tep-tekis qilib bog'ni
Nahot ko'ngling bo'ldi chog'?

IRODAsi bo'sh, nodon
Echkimisan yo rostdan?
Bu qadar «TO'RA»chilik
SODIR bo'lmas bexosdan.

BOQIbeg'amlik qilmay
Endi pul-mul topasan.
Shamoldan tez SUR'ATda
BOZOR sari chopasan.

Shukr, hozir NAVBAHOR,
Sahardan shomgacha to,
Rastalarda ko'chatning
MING bir xili MUHAYYO.

MEHRI bo'lsa qalbingni,
Bo'lsa senda JUR'AT, or,
Keltirasan baridan
Bizni qilmay INTIZOR...

Endi qo'lin yechinglar,
Jazosi shu,
urmaymiz.
Ekishamiz gul, ko'chat,
Chetda qarab turmaymiz!

AZAMAT VA DAVRONBEK

AZAMAT — ASIL YIGIT
SALOMni qilmas kanda.
Qo'li ko'ksida doim
KATTAlarni ko'rganda.

JO'RAsi DAVRONBEK ham
Undan sira qolishmas.
Odob-axloqda SOBIT
Gap talashmas, olishmas.

Bu kabi bolalarning
So'zsiz KABIR KAMOLi.
Kundai RAVSHAN, NURLIdir
Kelajagin JAMOLi.

G'AROYIB MAK TUB

Bundan bir oy muqaddam,
KIMYO fanida
Topib oldim sumkamdan
MO'JIZA bir xat.
Hazil desam hazilga
o'xshamas sira.
Undan RAYHONning isi
kelardi faqat.

Bolalardan so'rashim
ORTIQcha edi —
Yelka qisdi barisi
g'udransam koyib.
E'TIBORli tomoni,
ko'zim o'ngida
Bo'ldi-qoldi o'sha xat
nogahon G'OYIB.

Kim yozdi-yu kim oldi
bilmayman hanuz,
Bir-biriga qarashar
sinfdoshlar YAYRAb.
Bir-birlarin gapiga
MAHLIYO bo'lib,
QIZLAR sochin tarashar
oynaga qarab...

Balki topib olarman
IQBOLim kulib,
Paydo bo'lar QARSHImda
balki u yana.
Ishonsangiz, yig'lagim
keladi, to'lib,
Buncha gumroh bo'lmasam,
bunchalar man-a?!

XAYRIxohlik tuyg'usi
jam edi unda,
Bir MEHRIBON , bir MUNIS
ko'zlar bor edi.
Yuragimdek bir parcha
oppoq qog'ozda
«SENI SEVAMAN!» degan
so'zlar bor edi...

ULGURJI SAVDO

— SHIRIN degan joylardan
Kelibsiz horib-TOLIB.
Savdolashsak bo'lardi
Picha shoshmay — dam olib.

— Qo'yalarim yomon emas,
Ayniqsa, QO'CHQORlari.
Maqtanyapti demangu
O'zimga MANZUR bari.

Nihoyatda OZODA,
Zotlari ham ja, NODIR.
Bularni, sizga aytsam,
BOZORi chaqqon hozir.

CHO'PON BOBO shunday deb
NAFASini rostladi.
DADAm qo'y-QO'Zllarga
NAZAR sola boshladi.

BOBO gapga chindan ham
MOHIR, usta ekan xo'p.
NASIB qilgan olar deb
Tortishmadi uncha ko'p:

— IXTIYOR o'zingizda,
Xohlang qiling TAVAKKAL.
Rozi-RIZOlik bilan
Narxlashganimiz AFZAL.

Ko'ravering, molim shu,
Endi qayga shoshaman.
Puli ot bo'larmidi?
BOZORga YONDASHaman.

— Ma'qul, — dedi DADAmilar
OTA to'xtagach so'zdan.
Qo'ylarni G'AYRAT bilan
Kechirib chiqdi ko'zdan.

Sakkizdan ZIYODini
Chetga ajratib olib,
Cholni uyga boshladi
Yuragiga qo'l SOLib:

— Kun ham shuncha isirmi?
Qarang, obu havoni.
AVVAL non-choy qilamiz,
So'ng boshlaymiz savdoni.

ASAD oyida kelin
Olmoq bo'lib turibman.
TO'YCHI bo'lib chop-chopu
Tashvishlarda yuribman...

Dadamlar MEHMON bilan
Chiqqunicha choylashib,
TURG'UN bilan qo'ylarga
Qarab TURDIk,
poylashib.

Taomili shu ekan,
Har qo'yga yakka-yakka
Naqd bir SOAT qo'l silkib,
Qildilar bor BARAKA.

TO'LAGAN pullarimiz
Beliga MAHKAM bog'lab,
Qo'ylarin HAYDAR BOBO —
Ketib borar yirog'lab.

Axir kimga maqtanay
Maqtanmasam sizlarga —
Dadam birmas, o'n bosh qo'y
SOTIBOLDI bizlarga.

A'LOCHI

LOLA rasmin chizdi CHAROS
Xo'p o'xshatib bir mahal.
Shunday DILBAR bir LOLAki,
Hatto BARGI ham GO'ZAL.

Har xil, NODIR kitoblarga
TO'LA ekan xonasi.
Bizga uni MEHRI iyib,
Maqtab qoldi onasi:

— Izlanishu intilishga
CHAROSim doim QODIR.
Olganlari shu sababdan
Faqat A'LO BAHODIR.

Adabiy topishmoqlar



1- topishmoq

Zafar degan bolaga
Zafar Diyor adashdir.
Shukurboyga, shubhasiz,
Adash Shukur Dadashdir.

Abdullaning o'zidan
Qancha shoir, nosir bor:
Qodiriy, Avloniy, Sher,
To'qay, Oripov, Qahhor...

Adashlarni axtarib
Uka, boshing qotirma.

Menda bor aynan senbop
G‘alati boshqotirma.

Hozir bitta-bittalab
Ismlarni aytaman.
Yozib bo‘lganiningdan so‘ng
Maqsadimga qaytaman.

Bo‘lmasa, yoz, boshladik:
Quddus, Ilyos, Miraziz,
Anvar, Kavsar, Tursunboy,
Po‘lat, Umida, Aziz.

Qambar, Safar, Narimon,
Habib, Yayra va Sulton.
Xudoyberdi-yu Qudrat,
Rauf, Hamza, Muhammad.

Erkin, Latif va Farhod,
Nosir adib, shoirdir.
Yozganlarining bari
Balalarga doirdir.

Topishmog‘im mana shu —
Surishtir, qara kitob.
Sanab o‘tilganlarning
Familiyasini top.

Yodingda tut bularning
Bari nosir, shoirdir.
Yozganlari avvalo,
Balalarga doirdir...

2- topishmoq

Polosonlik bir akam bor,
Polosonlik.
Qachon borsak uylariga
so‘yar jonliq.

Polvonlardan yoqtiraman
Meshni deydi.
«Baho»lardan bo'lsa, o'g'il
«Besh»ni deydi.

Ijodkordir, asarlari
kitob bo'lgan.
Mamajondek bolalarga
xitob bo'lgan.

Bulbul cho'pchak aytib berar
u kishiga.
Sharob degan narsa kelmas
hech hushiga.

Yozgan emish qator kino,
qolib g'azal,
Shu akamni sog'inib men
bo'ldim kasal.

Shu akamni ko'rsam quchib
olgin kelar,
Sevinchlardan ko'kda uchib
olgin kelar.

Sog'inchimning zo'rligidan
ismini ham,
Qarang, paqqos unutibman
men, muttaham...

Oshiqbola yuragiday
bag'rim tilmay,
Kimligini aytta qoling,
ilhaq qilmay...

3- topishmoq

Ikki elning o‘g‘lidir,
Gapi dangal, to‘g‘ridir,
Yozganlari cho‘g‘lidir.
Kim bu, kim bu, toping, hoy?

.....

Safed Bulon bolasi,
Shahri O‘s shalolasi,
Kitobin yo‘q «ola»si,
Kim bu, kim bu, toping, hoy?

.....

Ustozi Qudrat Hikmat,
Saxovatda azamat.
Bilmas ne gina, kudrat.
Kim bu, kim bu, toping, hoy?

.....

Asarlari soz, quvnoq:
«Qarasamki», «Do‘l», «Pishloq».
«O‘kifik», «Toldi buloq».
Kim bu, kim bu, toping, hoy?

.....

Muxislari rosa ko‘p,
Qo‘qon, Gurlan, Shoshdan ko‘p,
Bo‘zdan, Niyozboshdan ko‘p.
Kim bu, kim bu, toping, hoy?

.....

Po‘latga xat yo‘llagan,
Zafar boshin silagan,
Hamzaga taxt tilagan,
Kim bu, kim bu, toping, hoy?

.....

Topgan bo'lsangiz, yaxshi
U shoir, emas baxshi,
She'riyatimiz naqshi,
Kim bu, kim bu, toping, hoy?

4- *topishmoq*

Yoshligimda ko'rgandim
g'aroyib kitob.
Rasmlari ajoyib
hamda behisob.

O'qiganim eslayman
uni hijjalab.
Sarguzashtlar haqida
borgan edi gap.

Eslolmayman oxirin,
boshin ham afsus.
Bahormidi, yozmidi
va yo oltin kuz.

O'sha katta kitobda
Bir uddaburon
Lol etardi hammani
to'qib lof, yolg'on.

Bolaligim sog'insam
gohi-gohida,
Shu kitobni o'qigim
keladi juda.

Balki nomin toparman
o'ylasam andak...
Xayolimga kelmoqda
negadir... danak.

Ko'rinmoqda ko'zimga
shu topda miltiq.
Bir yoshgina kiyikcha
va olcha... qiziq?..

Shu asarni o'qigan
bo'lsangiz agar,
Daragini yetkazing,
Yo'llang xat-xabar.

Nomi nima, kim yozgan?
qahramoni kim?
Gullivermi, Robinzon,
Karlson balkim?

Topib to'g'ri javobni
Etsangiz xursand,
Jo'nataman haqqiga
Bir qop xo'rozqand!

5-topishmoq

Rostakam sehrgarlik
Asli kelmas qo'limdan.
Ikkichi-yu ishyoqmas
Chiqaversa yo'limdan,

Sinalgan usulimni
Darrov ishga solaman.
Hojatbaror Sehrgar
Bobo bo'lib qolaman.

Yozishni bilmaganga
Yozishni o'rgataman.
Ozishni bilmaganga
Ozishni o'rgataman.

Qo‘lim solib qo‘yniga —
Fe‘lu atvorin bilib,
Sabog‘imni o‘taman,
Hamisha qo‘sinq qilib.

Kelavering, tortinmang,
Darslarim bepul mani.
Boshi xom qovoqqa ham
O‘rgataman karrani.

MUXLISLARIMGA

(Hazil)

She’rga ism tirkab yozish
Urf bo‘ldi bir zamon.
«Gap», «so‘z» bo‘ldi shu yo‘l bilan
Necha shoiri zamon.

Eshmat yozdi: «Eshmat, qara,
Suluv bahor keldimi?»
Toshmat yozdi: «Toshmat, boqqin
Arg‘umoqlar yeldimi?»

Hoshim yozdi: «Quvon, Hoshim,
Yog‘ayotir oppoq qor».
Toshim yozdi: «Yetar, Toshim,
Chekaverma ko‘p ozor...»

She’rga ism tirkab yozish
Urf bo‘lgandi bir zamon.
«Gap», «so‘z» bo‘ldi shu tariqa
Necha shoiri zamon.

Men ham qaytdim jur‘at etib,
Bugun o‘sha gaplarga —
Muxlis bo‘lsang kam bo‘lmaysan
Abdurahmon AKBARGA!

MUNDARIJA

Mehribon quyosh

Quyosh	3
So'rov	4
Kuz	4
Shirin «quyosh»	6
Odatlar	7
Opam	8
• Kashfiyotchilar»	8
Qish sabog'i	9
Nima kuchli	9
Chiraldoqlar qo'shig'i	9
Unutilgan do'stlik	10
Bir kam dunyo	10
Ko'ngil haqida she'r	11
Qishloqlik va shaharlik	12
Ayoz bilan suhbat	12
Sevinch	12
Bahona	13
Mehribon quyosh	13
Niyat	13
Kimga qiyin	14
Tanbeh	14
«Mehribonlik»	15
Tongda	15
«Ishbilarmon» yomg'irvoy	16
Maqtanma, dakang	16
Bolarilar	17
Ziyarak chumoli haqida ertak	17
Tomosha	18
Havas	19
Uzrli kechikish	19
Avtoruchkaning yozganlari	20
So'zlovchi yomg'ir	20
Egizaklar	21

Yulduzoyning daftaridagi she'rlar

•A'llochilar»	22
Sadirjonning kaptari	23
Tishi yo'q-da	24
Raqqosa	24
Ma'suda va Oymoma	24
Orzu	25
Kichkintoy chavandoz	25
Yulduzoyning kulchasi	25
Yulduz	26
Yulduzoyning o'giti	27
«O'g'ri»	27
Zeboxon	28
Zebo degan qizgina	29
Zeboning qo'g'irchog'i	29
Kamalakjon	30
«O'troqlar»	30
Niyozboshda bir qiz bor	30
Eng to'g'ri javob	31
Bola tili	31
Orzu haqida she'r	31
E'tirof	32
Sevinchoy haqida she'r	32
Bo'sh ozondaga nima bor	33
Bahor hazili	33
•To'rt» va tort	34

Xato she'rlar

Jumboq	35
Men ko'rgan tush	35
Teskari ertak	35
Daftarimning odati	36
Mo'jiza	36
Singilcham	36
Hasharda	36
Notanish yo'lovchi	36

Jajji she'rlar

Tungi mayoqlar	37
Botirlikning «siri»	37
Topgan joyini qara	38
Tennis sharchasi	38
Qishda	38
Mish-mish	38
Ona — ona-da	38
Chaqaloq	39
Kel, do'stlasharniz	39
Sehrgar	39
Mart	40
Mushuklarim	40
Zo'r yong'oqning shum yong'oqqa degani	40
Dastlabki xulosa	40
Niyozbosh	41
Pazanda mezbon	41
«Qariya»	41
Mushuk xola	42
Tekin nonushta	42
Ali-Vali	42
Maqtanchoq	42
Turpcha maslahat	43
Chizish ham maza	43
Shotursunning xolasi	43
Bedana	44
Oyijonim yopgan non	44
Uyal-e, erkatoy	44
Yurishni o'rgansin-da	45
O'lmasning odati	45
Mulohazakor	45
«Muvaffaqiyat» siri	45
Tufilm kasal	45
Mixning e'tirozi	46
Menimcha...	46
Taklif	46
Paysallamasang bo'lgani	46
Bechora	47
Ginachi	47
Uddaburon	47
Nima qilsin?	48
Mohtoh	48
Javobsiz javob	48
Saxiy	49
Hazilkashning javobi	49
Qorlar	49
Asalgul	49
Hushyorilar	50
Kuchukcham	50
Ko'klam yomg'iri	51
Mushukcham	51
O'rdakcham	51

Kitobni ko'p o'qiydigan ukam

Bulbul	52
Esiz yakshanba	53
Omonning orzusi	53
Kitobni ko'p o'qiydigan ukam	54
Iltimos	55
To'yda	56
Insholardan ko'chirmalar	57
Armon haqida she'r	57
Yolg'iz farzand	58
Nodira	59
Muhabbat haqida she'r	59
Radioning magnitofonga degani	60
Yumshoq kursining stulga yozgani	61
Kartoshkaning piyozga yozgani	61
Yomg'ir haqida she'r	62
Eskirmaydigan ertak	62
Quloqsiz changlar	63
Olaparning bolalariga nasihat	63
Raxmat senga, chaqaloq	64
Dakki	64
Ehtiyyotkor toshbaqa	64
Chorlov	65
Ona tashvishi	65

Bir daftar savol 66-73
Raqamli she'rilar

Tush	74
Uchqunjonning toychog'i	75
Hamma biladigan haqiqat	76
Xavotirlik	76
So'nggi ogohlantirish	76
Mingoyoqning xo'tikka degani	77
Qo'ng'izvoyning quvonchi	77
Orzuli dunyo	78
Qovunning degani	78
Oltinoy	78
Eskirgan yangilik	79
Ertakchi	80
G'o'nan va tulki	80
Bozorda	81
Salom xat	82
To'qson bobo	84

Bizning Nor

Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar	85
Aksiga otib	86
Norming qo'shnilar bilan tanishgani	86
Norming maktabdan kechga qolgani	86
Norming futbol o'ynagani	87
Norming allasi	88
Ror-yo'g'i	88
Norming o'zi bilan o'zi gaplashgani	88
Norming mehribonligi	89
Norming metro poyezdig'a yozgan she'ri	89
Norming yon daftarcha sotib olgani	90
Norming maqtanishi	90

Shoir dadam haqida she'riy hikoyalar

Dadamning qalbi	91
Dadamning fikri	91
Ari	92
Supacha	93
Dadamning hazili	93
Dadamning she'rlari	94

Ko'klam	94
Qish ertagi	94
Umid haqida she'r	95
«Iste'dod» mashg'ulotida yozilgan she'r	95
Ona	96
Bir qishloq bolalari	
Bedana qo'shig'i	97
Bitinchi iyun	98
Ajoyib kun	98
Muxlis	98
Yarashuv	100
Behuda xavotirlik	101
Yoz mo'jizasi	102
To'rtko'zim	103
Bir qishloq bolalari	104
G'alati shart	105
Do'ppi	105
Oqliqlar	106
Yoz yomg'iri	106
«Bechora» tovug'	106
To'ptosh	107
«O'ch»	111
Yong'oqxo'r	112
Quyon	112
Tabiat alifbosи	113
Mushuk bolasi	113
A'zamjon	114
O'roz	114
Shuhratjonning tovug'i	115
Yoz tuni	115
«Gazitxon»	116
Nozikoyim	116
Abadiy mashmasha	117
Mehmondorchilikda	117
Kim urishdi	118
Ochofat	118
Kamalak	118
Dangasavoy	119
Nonovgat	119
Sog'inish	120
Habib Rahmatning topishmog'i	120
Uy	121
Bozorchilar	121
O'dakchalar	122
Qor	123
«Qo'rqoq» sichqon haqida she'r	123
Dilxirilik	124
Tarbiya	125
Maqtanchoq	126
Shamoljonning do'stlari	126
Oshxonada	126
Qizlar	127
Sho'x qopqoq	128
Kimga maza, kimga	128
Teskari sarlavhalı she'rlar	
Shom	129
Kon	130
Bobur	130
Otam	131
Marka	131
O'yinqaroq bulutcha	
«Xosiyatlari» quyonlar	132
Kim Hasanu Kim Husan	133
Tayoriga	133

Zo'r emish-a	134
Ustomonlar	134
E'tiroz	135
Akulalar	136
Kechikkan oriyat	136
«Kamtar»	137
Ko'klam yomg'iri	137
Ota o'g'ililar	138
Javonda turihdi	139
Childirma	140
Ishonchli taxmin	140
«Yordamchilar»	140
Bog'cha opamiz	141
Araz-araz	142
Yashasin, oyimlar	142
Mantiqosqonning mish-mishi	142
Noshud muallim	143
Ot yili	144
O'rgimchak	144
Tekin tomosha	145
Polvon bulutlar	145
Nog'oraning degani	145
Keksayishga hali bor	146
Xonaki xonanda	146
Rubobning malomati	146
G'aroyib poyga	147
Ko'rsichqonning e'tirozi	147
Oriyat	147
Buzoqchaning e'tirofi	148
Boshqa-boshqalar	148
Har kallada har xayol	148
Uyqusin chaqiryapti	149
Avval o'zingga boq	149
Qaysi taom shirin	149
Tanishuv	150
Tumov	151
Takabbur	151
Shart	151
Beminнат yordamchilar	151
«Tejamkor»	152
«Dastyor»	152
Sobir chizgan surat	153
Sentabr quvonchi	153
O'yinqaroq bulutcha	154
Topishmoq	154
Manmanlik haqida ertak	155
Osmонning ko'zi	155
Har kimniki o'ziga	156
Semirish haqida she'r	156
«Tushuntirish»	157
Bayram	158
Bilag'onlikning siri	159
Yoz sog'inchi	159
Nog'ora qo'shig'i	159
Sherzodjonning xo'rozi	160
Omonning quvonchi	161
Ayoz haqida she'r	161
O'rmonda	162
Samolyot	162
Otasining bolasi	162
Ichiqora	163
Sigirning degani	163
Do'stlikka nima yetsin	163
Yulduzoy	164

O'rik gullari	164
Velosipedchi	165
Taruzim	166
So'nngi xabar	166
Zakovat yo'li	167
Onalar	167
Buvijonim	168
Bizning oila	169
Ahillik	170
Aka-ukalar	171
Etikcham	171
Mehmon va mezbon	172
Ulg'ayish istagi	172
Bo'ri bilan Olmaxori	173
Yillik baho	174
Uyimdag'i do'stlarim	175
Adashlar mo'jizasi	176
She'riy kino	178
Mehnat	179
Yomg'ir	180
Kinoshinavanda	181
Pashshalar	182
Pishiqlichilik	183
Shanol	183
Shirin boylik	184
Non madhi	185
Yoqimli tanishuv	187
Orzu yo'lida	188
Bozorboy	189
Qor sururi	190
•Muallim	192
Ko'cha	192
Ziyofatning davomi	193
Qo'rqqan oldin mushti ko'tarar	193
Akamning noki	194
Qovunxo'rilar	194
Uyquchining tushlari	195
Kamolaning mushugi	196
To'y oshi	196
Tomoshabin	197
<i>Topishmoqlar</i>	198
<i>Rasmdan she'riy saboglar</i>	206
<i>Xoh ishoning, xoh ishonmang</i>	
Biz tomonlarda	210
Bo'lgan voqealar	211
Kinoyulduz	211
Kamtar	213
«Tejamkorlik»	213
Mamaroziqning tushi	214
G'aroyib hodisa	215
<i>Ismli she'rlar</i>	
Geografiya darsida	216
Ismilar mamlakati	217
Otajonim duosi	219
Shirinsuxan sotuvchi	220
•Echki»	221
Azamat va Davronbek	222
G'aroyib makiub	223
Ulqurji savdo	224
A'luchi	226
<i>Adabiy topishmoqlar</i>	
Muxlislarimga	233

**ABDURAHMON AKBAR
UYQUCHINING TUSHLARI**

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2006

Muharrir *Sh. Ergasheva*
Badi y muharrir *B. Bobojonov*
Rassom *R. Zufarov*
Texnic muharrir *R. Boboxonova*
Musahhihlari: *M. Ziyamuhamedova, J. Toirova*

Terishga berildi: 29.09.2005. Bosishga 10.03.2006 ruxsat etildi.
Bichimi 84x108'/₁₁. «Tayms» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma
tobog'i 12,6. Nashriyot-hisob tobog'i 10,9. Adadi 3000 nusxa. Buyurt-
ma № 2197. Bahosi kelishilgan narxda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
700083, Toshkent shahri, «Buyuk Turon», 41.**